2/2023

ORIENTAL UNIVERSITETI
TOSHKENT
2021

AL-BUXORIY

Ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-ommabop xalqaro jurnal



Toshkent - 2023

Bosh muharrir:

Axmedov Murodjon Ubaydullayevich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Bosh muharrir o‘rinbosari:

Abduqaxxor Iminoxunov, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Mas’ul muharrir:

Govxar Raxmatova, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

“Al-Buxoriy” ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-ommabop
xalqaro jurnalining tahrir hay’ati

1. Anatoliy Sagdullayev	t.f.d., akademik – tahrir hay’ati a’zosi;
2. Dilorom Yusupova	t.f.d., akademik – tahrir hay’ati a’zosi;
3. Saidaxror G‘ulomov	i.f.d., akademik – tahrir hay’ati a’zosi;
4. Saidasror G‘ulomov	i.f.d., akademik – tahrir hay’ati a’zosi;
5. G‘ayrat Shoumarov	ps.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;
6. Azamat Ziyo	t.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;
7. Saidbek Boltabayev	filologiya fanlari bo‘yicha falsafa.doktori (PhD); (Turkiya) – tahrir hay’ati a’zosi;
8. Muxammadi Alimardonov	i.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;
9. Farmon Egamberdiyev	i.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi
10. Shaxnoza Xalilova	p.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;
11. O‘ktam Mavlonov	t.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;
12. Hojiakbar Hamidov	t.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;
13. Muhammadolim Muhammadsiddiqov	s.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;
14. Shukritdin Paxrutdinov	s.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;
15. Baxriddin Umarov	ps.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;
16. Mavluda Raximshikova	f.f.n., dotsent (Qozog‘iston) – tahrir hay’ati a’zosi;
17. Aysha Baltabayeva	t.f.d., dotsent (Qirg‘iziston) – tahrir hay’ati a’zosi;
18. Baxtiyor Arabov	prorektor - tahrir hay’ati a’zosi.
19. Dilfuza Axmedova	fil.f.d., dotsent – tahrir hay’ati a’zosi;
20. Shovosil Ziyotov	t.f.d., dotsent – tahrir hay’ati a’zosi;
21. Xurshid Fayziyev	t.f.n., dotsent – tahrir hay’ati a’zosi;

MUNDARIJA

TARIX

Isroil Sulaymonov
Zahiriddin Muhammad Bobur va Shohbegim munosabati 1

Feruza Djumaniyazova
Ilk o‘rta asrlarda Buxoro vohasida eftaliylar omili 7

Dostonjon Tojiyev
Turkiy Davlatlar Tashkiloti a’zolarining mustaqillikka erishuvi va o‘zaro hamkorligi …… 14

Tamara Nuridinova, Faxriddin Ernazarov, Yorqin Nurmatov
O‘rta Osiyodagi madrasalar tarixidan 21

SHARQ TILLARI

Shohruh Abdiraimov
Imlo qoidalarini takomillashtirishga doir 28

Maxsuda Berdimuratova
Shekspir va Navoiy: mushtaraklik va o‘ziga xoslik …..... 31

Tojixon Toshboltayeva, Muqaddas Saidakbarova, Feruza Qurbonova
«Majmuai shoiron»da hamd va na’tlar talqini 36

Fayzullo Musayev
May tushunchasining Navoiy g‘azalidagi tavsifi 44

Nodira Sadullaeva
“Kitob al-qand” asari ijtimoiy-tarixiy manba sifatida ……... 47

Azizulla Arol
Afg‘onistonda navoiyshunoslik 51

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR VA SHOHBEGIM MUNOSABATI

Isroil SULAYMONOV
Samarqand davlat universiteti
Mumtoz adabiyot tarixi kafedrasi mudiri,
filologiya fanlari doktori

Annotatsiya: Maqolada Bobur hayoti davomida unga nisbatan ko‘p bor muammolar keltirgan shaxslardan biri Shohbegim shaxsiyati, uning davr siyosiy hayotida tutgan o‘rni, Bobur bilan munosabati kabi masalalar yoritilgan.
Kalit so‘zlar: *«Boburnoma», Bobur, Shohbegim, Mirzoxon, g‘oliblik, mag‘lublik.*

Аннотация: В статье освещались такие вопросы, как личность Шахбегима, её рол в политической жизни, её отношение к Бабуру, одной из многих людей, у которых были проблемы с Бабуром при его жизни.
Ключевые слова: *«Бабурнаме», Бабур, Шахбегим, Мирзахан, победа, пораженчество.*

Annotation: This article highlights the personality of Shahbegim, one of the people who troubled Babur during her lifetime, as well as her role in political processes and attitude towards Babur.
Key words: *Baburname, Babur, Shahbegim, Mirzakhan, victory, defeat.*

Temuriylar davlatida obro‘-e’tiborli, siyosiy jarayonlarda faol bo‘lgan nufuzli ayollar ko‘p bo‘lgan. Ular mamlakat ijtimoiy, siyosiy hayotida ba’zi hollarda hal qiluvchi shaxs maqomida bo‘lgan. Jumladan, Sohibqiron Amir Temurning sevimli rafiqasi Saroymulkxonim o‘zining oqilaligi va sadoqati bilan alohida ajralib turadi. Bunday shaxslarning ayrimlari o‘zlarining dono maslahatlari bilan davlat manfaatlariga o‘z hissalarini qo‘shgan bo‘lsa, ba’zilarida esa buning faqat aksini ko‘rish mumkin. Bobur hayotiy faoliyatida bu kabi ayollarning har ikki toifasini – unga doimo sadoqatli va ko‘makdosh bo‘lgan hamda unga faqat tashvish-u muammolar tug‘dirgan ayollarni uchratishimiz mumkin.

Bobur hayoti davomida unga nisbatan ko‘p bor tashvish keltirgan shaxslardan biri Badaxshon shohi Sulton Muhammadning qizi, Yunusxonning xotini Shohbegimdir. U davr siyosiy hayotida tutgan o‘rni, martabasidan ko‘p hollarda shaxsiy manfaati uchun foydalanadi. Uning saltanat tartib-qoidalariga e’tiborsiz va nopisand qarashiga, hatto Boburday podshoh ham ba’zida qarshi tura olmagan.

Bobur davrning bu illatini yaxshi anglagan holda Shohbegim haqida so‘z yuritganda uning xislatlarini tasvirlashdan oldin nasl-u nasabiga alohida urg‘u beradi. “Boburnoma”da Shohbegim haqida gap borganda uning shaxsiyatiga nisbatan murosa bilan qaraydi, bu bilan go‘yoki u temuriylar xonadoni a’zolariga ehtirom nuqtayi nazari bilan qarash saltanat tartibi ekanligini bildirgisi keladi. «Boburnoma»ning bir necha o‘rinlarida biz bunday yondashuvni ko‘ramizki, bu Boburning temuriylar saltanati oliy tabaqasiga nisbatan munosabati belgisini anglatsa, yana bir sababi muallifning bayon uslubi natijasi sifatida deb qabul qilish ham mumkin. Quyida Shohbegim shaxsiyati masalasini «Boburnoma» va «Tarixi Rashidiy» asarlaridagi tasvirlarni qiyosan o‘rganish orqali tahlil etishga harakat qilamiz.

Bobur Shohbegimni temuriylar avlodiga mansub jihatiga alohida e’tibor berib, uning muxtasar tarixini quyidagicha bayon etadi: «Men Qobulg‘a kelganda, Shohbegim bila Samarqanddin Xurosong‘a kelib, Xurosondin Qobulg‘a keldilar. Shayboniyxon Qandahorda Nosir Mirzoni qabag‘onda, men Lamg‘on azimati qildim. Xon mirzo va Shohbegim va Mehr Nigorbegim Badaxshong‘a bordilar. Mirzaxonni Muborakshoh Qal’ayi Zafarg‘a tilaganda

Abobakr Qoshg‘ariyning chopqunig‘a yo‘luqub, Shohbegim va Mehr Nigorxonim va jami’ elning ahli va ayoli asirliqqa tushub, ul zolimi badkirdorning habsida dunyoyi foniyni vido qildilar» [1].

«Boburnoma»ning ko‘p joylarida muallif o‘zini Shohbegim bilan yaqinligini ko‘rsatib o‘tadi va uning shaxsiyati muallif uchun befarq bo‘lmaganligini ta’kidlamoqchidek bo‘ladi go‘yo: «Toshkandga xon qoshig‘a bordim. Shoh begimni va urug‘-qayoshni ham yetti-sakkiz yil bor erdimkim, ko‘rmaydur erdim, bu bahona bila alarni ham ko‘ruldi» [2].

Ushbu fikrimizni quyidagi parcha ham isbotlaydi. Bu parchalarda Bobur Shohbegimni tilga olar ekan, temuriylar xonadoniga mansub bu ayol har jihatdan uning o‘ziga ham yaqin ekanligini, uning jamiyatdagi mavqei va shaxsiyatini ehtiromda tutishini ta’kidlab o‘tganligini ko‘ramiz: «Borib uruqni Dahkatda qo‘yub, bir necha kundin so‘ng Shohbegimni va xon dodamni va xon urug‘-qayashni ko‘rgali men ham Toshkand azimati qildim. Borib Shohbegim va xon dodamg‘a mulozamat qilib, bir necha kun anda bo‘ldum» [3]. Shohbegim Yunusxonning xotini, Badaxshon xonining qizi kabi iddaolar bilan o‘zini Boburga nisbatan kibrli tutardi. Keyinchalik Shayboniyxon Badaxshonga hujum qilib ularni mag‘lub etganidan so‘ng, ancha shashti pasayib qolgani sabab Boburga o‘zini yaqin tutishga harakat qiladigan bo‘lgandi.

Shohbegim jamiyatdagi hozirgi holatidan mutlaqo qoniqmas, u temuriylarning Movarounnahr va Xuroson hududida mustahkam o‘rnashib olishini, o‘zi esa Bobur saltanatida avvalgi mavqeiga erishish payida edi. Xuddi shu paytda Boburning onasi Qutlug‘ Nigorxonim vafot etadi va u azada dardkash sifatida qatnashishni ayni muddao deb biladi. Shohbegim bu ta’ziyada qatnashish orqali o‘zini go‘yoki Boburga o‘ta yaqin shaxs sifatida ko‘rsatishga intilardi. Bobur azaga kelgan temuriyzodalarning ruhiy holati, ichki kechinmalari, tashqi ko‘rinishlarini «A’zolar toza bo‘lub, firoqlar o‘ti beandoza bo‘ldi» tarzida umumlashtirib tasvirlar ekan, uning mohir nosir adib sifatidagi mahorati namoyon bo‘ladi. Bu marosimda qatnashgan Shohbegim o‘zini tutishida avvalgi tashkilotchilik, marosim yaqin kishisi sifatidagi harakatlari sezilmas, Qobuldagi avvalgi isyon mag‘lubiyati bois uning kayfiyatida tushkunlik, hazinlik holatini sezish qiyin emas edi: «Xonimning qirqi yovushub edikim, Xurosondin xonlarning volidasi Shohbegim, mening xolam Sulton Ahmad mirzoning harami Mehr Nigorxonim va Muhammad Hasan ko‘ragon dug‘lat keldilar. A’zolar toza bo‘lub, firoqlar o‘ti beandoza bo‘ldi. A’zo rasmini bajo kelturgandin so‘ng, osh va taom faqir va masoking‘a tortilib, xatm va duolar borg‘onlarning arvohig‘a qilib, ko‘ngillarini olib, qarolarini solib, bu muhimmottin forig‘ bo‘lg‘ondin so‘ng…» [4].

Shohbegim Qobuldagi isyonga ma’naviy rahbar sifatida boshchilik qiladi va nabirasi Mirzoxon, Muhammad Husayn dug‘latlar bilan til biriktirib Boburni Qobul taxtidan ag‘darib, Mirzoxonni taxtga o‘tqazmoqchi bo‘ladilar. «Boburnoma»da bu hodisa tafsiloti, ishtirokchilarning ruhiy holati, psixologiyasi juda aniqlik bilan hayotiy tasvirlangan. Shu o‘rinda Shohbegim va tarafdorlarining o‘sha vaziyatdagi ruhiy holati tasviri, gunohkor tarzda Bobur oldida tiz cho‘kkanligi – mag‘lublik holatiga e’tibor beraylik: «Muhammad Husayn mirzo o‘lturg‘on uylarning eshigiga yetganda tom ustidin bir mo‘g‘ulkim, mening navkarim edi, men ani tanir erdim, eshiklik, tuvurluk yerdin tortti o‘qni yuzumga, ul tarafdin, bu tarafdin hay-hay, podshohdur deyishtilar, o‘qni yondurub solib qochti, o‘q otmoqtin ham ish o‘tub edi, Mirzosi va sardorlari qochti, giriftor bo‘ldi, kim uchun o‘q otar ushbu yerda. Sulton Sanjar barlosnikim, rioyat qilib Ningnahor tumanini anga inoyat qilib edim, ul ham bu fitnada bular bila sharik edi, tutub bo‘ynini bog‘lab kelturdilar, muztarib bo‘lub qichqiradurkim, hay, menda ne gunoh. Gunoh mundin ortuq bo‘lurmukim, bu jam’ bila hamjihat va hammashvaratlardin bir ulug‘rog‘i sen. Chunon dodamning volidasi Shohbegim xoharzodasi bo‘lur edi, buyurdumkim, mundoq beizzatona kezdurmang, o‘lum yo‘qtur» [5].

Bu lavha tasviridan shu narsa ayon bo‘lmoqdaki, «yiqilgan raqib kurashga to‘ymas» maqoliga “amal qilgan” Shohbegim va boshqa shaxslar jangda o‘zlarini ashaddiy raqib sifatida tutadi, imkoni boricha g‘olib Boburga nisbatan bor kuchlari bilan pand berishga urinadi. Bu jangda Bobur o‘zini nishonga olgan oddiy mo’g‘ul askari va Sulton Sanjar barlos o‘rtasida mantiqiy bog‘liqlik borligini his qiladi, u askar Sulton Sanjar amri bilan shunday xiyonatkorona harakat qilgan, degan fikrga borib, «g‘oliblik» va «mag‘lublik» o‘rtasida murakkab jarlik borligini badiiy tarzda ifodalab beradi. Ushbu fitna qatnashchilarining ma’naviy rahnamosi Shohbegim ekaniga

ishonch hosil qilgan Bobur «Chunon dodamning volidasi Shohbegim xoharzodasi bo‘lur edi, buyurdumkim, mundoq beizzatona kezdurmang, o‘lum yo‘qtur», – degan xulosaga keladi.

Ko‘rinib turibdiki, Bobur boshiga solgan shuncha xiyonat-u kulfatlariga qaramay Shohbegimga nisbatan yomon munosabatda bo‘lmaydi, uning barcha gunohlarini kechiradi, jazolashni esa qodir Alloh hukmiga topshiradi. Bu kurashda Bobur nafaqat jismonan, balki ma’nan ham g‘olib bo‘ladi.

Bobur ushbu isyonni batafsil bayon etar ekan, kim g‘olib-u kim mag‘lub, bachasini bor bo‘yicha ko‘rsatmoqchi bo‘lgan. Mazkur isyonda markaziy tarixiy shaxs Mirzoxondir. Mirzoxonga bir necha amaldor-u beklar, Boburga ancha yaqin bo‘lgan kishilar yo‘lboshlovchilik, maslahatgo‘ylik qilganini ko‘ramiz. Bobur bu voqeani batafsil o‘rganadi, isyonning kelib chiqish sababiga diqqat qaratib, uni analitik tahliliga ko‘chadi. Masalan, u «Gunoh mundin ortuq bo‘lurmikim, bu jam’ bila hamjihat va hammashvaratlardin bir ulug‘rog‘i sen» deb fikr yuritar ekan, fitnaning boshida tajribali shaxs turganligini bildiradi: «Ningnahor tumanini anga inoyat qilib edim, ul ham bu fitnada bular bila sharik edi», «tutub bo‘ynini bog‘lab kelturdilar», kabi jumlalarda Sulton Sanjar qiyofasini mag‘lublik egallagani, jismida qaltiroq va qo‘rquv hukmronlik qilganini payqash qiyin emas. Bobur Shohbegim atrofida kimlar turganligi, ularning temuriylar xonadoniga nisbatan qilgan xiyonati masalasini yoritar ekan, aslida bu voqealarning barchasi Bobur Hirotdaligida sodir bo‘lganini ta’kidlaydi. Yaxshiki, fitnachilarning rejalari amalga oshmaydi, barcha o‘ylaganlari barbod bo‘ladi, o‘zlari esa ham moddiy, ham ma’naviy mag‘lublikka yuz tutadi. Bu voqea tasvirini muallif juda ta’sirchan va jozibali qilib ifodalash orqali tarixiy shaxslar taqdirida g‘oliblik va mag‘lublik holati o‘rin tutganini ko‘rsatib berganiga guvoh bo‘lamiz. Bu holatni, ayniqsa, mazkur voqeaning bevosita tashkilotchisi va ishtirokchisi Shohbegim ruhiyatida sodir bo‘lganini Bobur yuksak mahorat bilan ifodalay olgan. Garchi Shohbegim temuriylar xonadonining nufuzli vakilasi bo‘lsa-da, nihoyat darajada buzg‘unchi malika ekanligi, Bobur va uning saltanatiga juda ko‘p ziyon yetkazganini ko‘ramiz. Shu o‘rinda Shohbegim va unga o‘xshagan ayollar (masalan, Hirotda Xadichabegim, Samarqandda Zuhrabegim va boshqalar)ning kasri nafsi bois temuriylar saltanati yakson bo‘lishiga sabab bo‘lganini aytib o‘tish lozim. Shu kabi saltanatda bo‘ladigan murakkab jarayonlar, ayni paytdagi shaxslarning ruhiy-psixologik holatlarini Bobur asarida qay darajada tasvirlay olganini imkon darajasida ko‘rib chiqishga harakat qildik.

Mirzoxon haqida ba’zi manbalarda «Mirzoxon Qobulda isyon ko‘targan» [6], – tarzidagi ma’lumotlar keltirilgan. Lekin aslida Qobuldagi isyonning sarkori, g‘oyaviy rahbari Shohbegim edi va uning asosiy maqsadi Qobul taxtidan Boburni ag‘darib, o‘zining suyukli nabirasi Mirzoxonni taxtga o‘tqazish bo‘lgan. Bobur bu isyonni bostirib, o‘zining Qobul hokimiyatini asrab qolgan va hukmronligida davom etgan. Yuqorida biz ushbu isyon tafsiloti, unda ishtirok etgan shaxslarning ruhiy holati haqida to‘xtalib o‘tdik. Bunda biz Shohbegimning tarixiy shaxs sifatidagi mavqeini, uning boburiylar saltanatida tutgan o‘rnini aniqlashda ikki jihatga: avvalo, isyon voqealari jarayonida uning ruhiyatida g‘oliblik va mag‘lublik holatining bir lahzada o‘rin almashishi, ikkinchidan bu ruhiy o‘zgarish isyon ishtirokchilarining barchasida yuz berishi tasviri badiiy in’ikosini topganini ko‘rib chiqishni maqsad etdik. Shundagina Shohbegim shaxsiyatini to‘lig‘icha yoritib berish (asosan Bobur saltanatiga buzg‘unchilik niyatida ish tutgani) imkoni bo‘ladi hamda Amir Temur saltanati parchalanishida shohbegimlarning ham ta’siri katta bo‘lganiga aniqlik kiritish mumkin bo‘ladi. Bu o‘z navbatida, Bobur davlatchiligida saltanatni bir yaxlitlikda asrash qanchalik siyosiy to‘qnashuvlarda o‘tganligini, ichki raqiblari bilan kurashda uning kuchi, idroki va g‘oyalarining behuda ketishi sabablarini oydinlashtiradi. Shuni ta’kidlash joizki, yuksak badiiylik, tarixiy shaxslar ruhiy kechinmalarining hayotiyligi, muallifning haqqoniy tasvirlari, so‘z tanlash mahorati, turkiy til imkoniyatidan samarali foydalangani kabi masalalarni faqat «Boburnoma» sahifalarida uchratamiz. Bunday ohorli badiiy ifodalar Boburgagina xos bo‘lganligi bois «boburona» so‘z, ibora va jumlalar» desak, xato bo‘lmaydi.

Bobur, Mirzoxon tasvirini davom ettirar ekan, yana shunday yozadi: «Mundin ichiqib Ahmad Qosim ko‘hburni va nekim qo‘rg‘ondag‘i beklardin biri ul edi, bir pora yigitlar bila Mirzoxonning so‘ngicha yibordim. Ushbu Bog‘i Bihisht yonida Shohbegim va xonim uylar yasab

o‘lturub edilar, bu bog‘din chiqib, Shohbegimni va xonimni ko‘ra bordim, shahar eli va qora tayoq hujum qilaturlar. Go‘sha va kanorda el tutmoqqa, mol talamoqqa ilik qo‘yubturlar, kishilar qo‘yub barcha elni urub-surub chiqordilar» [7].

Bu vaziyatda Bobur Shohbegim boshchiligidagi isyon fitnachilaridan o‘ch olish uchun, o‘sha davrdagi saltanat tartibi, qoidasiga ko‘ra ularni el oldida jazolashi mumkin edi. Ammo bular ham temuriyzoda, Mirzoxon Shohbegimning nabirasi bo‘lgani bois shohlik xonadoniga nisbatan bunday isnodni ravo ko‘rmaydi, ularning sha’nini himoya qiladi. Boburning himmati balandligi shu o‘rinda yana bir marta o‘z isbotini topadi, garchi ular kechirib bo‘lmas gunoh qilgan bo‘lsalarda, Bobur ularni jazolashdan voz kechadi. Bu Boburning g‘ururi, nafsoniyati ustidan odamiylik, silai rahmning g‘olib kelishi edi.

Bobur Shohbegimning ruhiy holatini, mag‘lublik kayfiyatini yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlab beradi. Bu vaziyatda garchi Bobur g‘olib bo‘lsa ham kamtarlik bilan, hech narsa sodir bo‘lmagandek Shohbegimga ehtirom ko‘rsatib («doimg‘i yerda tushib, kelib burung‘idek adab va ta’zim bila yurib ko‘rushdim») samimiy muomala qiladi. «Boburnoma»da bu kabi tasvirlarda Boburning vaziyatga haqqoniy, obyektiv yondashgani, Shohbegim ruhiyatida paydo bo‘lgan psixologik o‘zgarishlar, kibrli ayolning mulzamlik holatini uning izzat -nafsiga tegmagan tarzda yoritib berishga harakat qilgan. Bobur o‘sha davrda mavjud temuriylar saroyidagi rasmiy tartib qoidalar, zodagon ayollarga nisbatan samimiy ehtiromni inobatga olgan holda muomala qiladi. Bu munosabat Bobur shaxsiyatining ko‘z o‘ngimizda yana bir karra ulug‘ligini namoyon etadi: «Shohbegim va xonim bir uyda o‘lturub edilar. Doimg‘i yerda tushub, kelib burung‘idek adab va ta’zim bila yurub ko‘rushtum, Shohbegim va xonim behad va beqiyos muztarib va munfail va sarafkanda va xijil bo‘lubturlar, ne ma’qul uzr ayta oladurlar, ne mushfiqona so‘rmoq tarhin sola oladurlar, bulardin tamaim mundoq emas edi. Bu jam’ har badbaxtliq maqomida bo‘lsalar edi, andoq emas edikim, begimning va xonimning so‘zlariga quloq solmag‘aylar edi. Mirzoxon xud Shohbegimning tuqqon nabirasi, kecha va kunduz begim qoshida, bular so‘zlariga kirmasa, Mirzoxonni qo‘ymay o‘zlarining qoshida saqlasa xud bo‘lur edi» [8].

Bu o‘rinda Bobur Shohbegimning ruhiy holatini shu qadar aniq va badiiyat bilan ifodalab berganki, o‘quvchi go‘yo badiiy roman o‘qigandek his qiladi o‘zini. Muallif imkon qadar bu sertakabbur, kibrli, o‘ziga bino qo‘ygan malika ayolning boshlagan mojarosidan o‘ta pushaymonligi, xatosini «behad va beqiyos» so‘zlari bilan ifodalab, sifatning orttirma darajasi vositasida aks ettiradi. Buni yana «muztarib va munfail va sarafkanda va xijil bo‘libturlar», - tarzidagi jumlalarda ham ko‘rishimiz mumkin. Ular shunchalik darajada ruhiy tushkunlikka tushganlarki, Boburga na bir uzr ayta oladi, na qilmishlariga yarasha gunohkorlik hissini izhor qiladi, tillari kalimaga kelmay qoladi. Bu holatni Bobur katta san’atkorlik va yuksak badiiyat bilan ifoda etadi: «…ne ma’qul uzr ayta oladurlar, ne mushfiqona so‘rmoq tarhin sola oladurlar, bulardin tamaim mundoq emas edi».

Bobur davr tarixchisi, siyosiy, ijtimoiy ekspert sifatida shohbegimlar, mirzoxonlarning tarixdagi o‘rni, temuriylar xonadoniga yakkashligi bois ko‘p kasofatlarga sababchi bo‘lganini davrning illati sifatida baholaydi. Bu bilan u Mirzoxon orqali Shohbegim mag‘lubiyatiga ishora etib, uning gapi hamisha amalga oshganini, lekin bu daf’a undan omad yuz o‘girganini juda o‘rinli jumlalarda ifodalaydi: «Bu jam’ har badbaxtliq maqomida bo‘lsalar edi, andoq emas edikim, begimning va xonimning so‘zlariga quloq solmag‘aylar edi». Lekin bu o‘rinda Bobur mazkur isyonga Mirzoxon emas, Shohbegim bosh bo‘lganligini ta’kidlab, uning Bobur saltanatida dushmanona harakat qilganini aniq bilardi. Qobul taxtini boshqarish Mirzoxonning qo‘lidan kelmasligini, ammo shunga qaramay o‘z so‘zini o‘tkazish, o‘zining «men»ini yana bir karra isbotlashga kirishgani, oqibatda sharmandalarcha mag‘lub bo‘lganini Bobur achinish hissi bilan bayon etadi.

Ushbu voqea tafsilotini Boburning zamondoshi, Qobuldagi fitnaning ishtirokchisi Muhammad Husayn Mirzoning o‘g‘li Muhammad Haydar Mirzo o‘zining «Tarixi Rashidiy» nomli asarida quyidagicha tasvirlaydi: «Qobulg‘a ravon bo‘ldilar (ya’ni Bobur podshoh – I.S.) Hazoraning ko‘histonig‘a xabar topdilarki, Mirzoxon va Muhammad Husan Mirzo Qobulni qurshab turubdur, deb. Ancha og‘ir-yengil yuklarini Mirzo Jahongirga topshirdi. Birmuncha

lashkar bilan chiqdilar. Hindiqush degan dovonda to‘la qor yoqqan ekan, ziyoda mashaqqatlar birla o‘tib, lashkarni tez yurdirib Qobulg‘a yuz kelturdi. Saharg‘a yaqin Qobulg‘a yettilar. Qobul xalqini tanglikka solib erdi, har tarafga qochdilar. Qobulning ichidagi xaloyiq tashqari chiqdilar. Xaloyiqni toroj qildi. Podshoh (ya’ni Bobur – S.I.) sohibi muruvvat edi, g‘oyat xushluq birla cho‘ng onalarining oldiga kirdilarki, bulardin mehr-u muhabbatlari ko‘tarilib, nabiralari bularning o‘rnida podshohliqqa o‘turg‘uzib erdi (Bunda Mirzo Haydar Qobuldagi isyon natijasida Boburning o‘rniga Shohbegimning suyukli nabirasi Mirzoxonni Qobul taxtiga o‘tqazilganligi haqida hikoya qilmoqda – S.I.). Shohbegim iztirob va xijolat birla bilmadilarki, na tariqalik javob bergay. Ul holda Podshoh (ya’ni Bobur – S.I) muhabbati tamom birla muloqot(da) bo‘ldi. Va ayttiki, kishining volidasi bir farzandig‘a shafqat qilsa, yana bir farzandig‘a nechuk haddu yoro bo‘lg‘ayki, ranj va malolliq tortgay. Va ayttilarki, kecha uyqusiz erdim, deb boshlarini Shohbegimning quchog‘iga qo‘yub, uyquladilar. Bu ishlari Shohbegimning xotirlarig‘a taskin bermoq uchun erdi. Hanuz uyqug‘a bormas edilarki, podshohning xolalari Mehr Nigorxonim keldi. Mehr-muhabbat yuzidin xolalari birla ko‘rishdilar. Xonim ayttilarki, farzand va ahli ayollari nihoyatda mushtoqdurlar. Alhamdulilloh, biz diydori muboraklariga musharraf bo‘ldik, qo‘bg‘il, ahli ayollarning oldig‘a qal’ag‘a borg‘il, biz ham boraylik dedi» [9].

«Tarixi Rashidiy»da berilgan ushbu tasvirni «Boburnoma»dagi ayni shu epizod bilan qiyosan chog‘ishtirishga harakat qilsak, eng avvalo, har ikkala asar qariyb bir davrda yaratilgan, uslub jihatidan bir- biriga yaqin. Shu bilan birga, har ikkala muallif ham temuriylar saltanatiga mansub kishilar, hatto, Muhammad Haydar Bobur tarbiyatida bo‘lgan, uning yaqin yosh qarindoshi ham sanaladi. Mualliflar tarixiy shaxslarni tasvirlashda ularning ruhiyatida davrning tez o‘zgaruvchan holati – g‘oliblik va mag‘lublikning qay darajada iz qoldirganini o‘ziga xos so‘z, ibora va jumlalarda turlicha tarzda tasvirlaganini ko‘ramiz. Bu ikki tarixiy asar mualliflarining uslubi, bayon tarzi, ifoda yo‘nalishida o‘zgachaliklar borligi rad etib bo‘lmas haqiqatdir.

Avvalo, shuni ta’kidlash kerakki, Muhammad Haydarning mazkur asari sof tarixiylikka asoslangan bo‘lib, muallif dunyoqarashi va uslubiga xos tarzda yaratilgan. Bunda biz «Boburnoma»da mavjud bo‘lmagan ba’zi tasvirlarni ham ko‘ramizki, garchi bu asar yigirma yilcha keyin dunyo yuzini ko‘rganligini inobatga olsak, Boburdan keyin ko‘p masalalar oydinlashgan yoki Bobur Haydar keltirgan faktlarni o‘z shaxsiyati uchun joiz bilmagan, balki kamtarlik yuzasidan ularni keltirmagan bo‘lishi mumkin. Asosiysi, har ikkala asar ham muhim tarixiy manba bo‘lishi bilan birga, ularda tarixiy shaxslar tasviri, ularning ruhiy holati, tasvir etish mahorati o‘ziga xoslik kasb etadi.

Yuqorida biz faqat bir holat tasvirni har ikkala asarda qay yo‘sinda ifodalanganini tahlil qilar ekanmiz, bunda g‘oliblik va mag‘lublik ruhiyati, bu kabi murakkab psixologik jarayon ushbu asarlarda qanday tasvirlanganligiga e’tibor qaratdik. Sababi, tarixiy asarlarda badiiy tasvirlarning qay darajada berilishi, bu kabi asarlar uchun me’yor darajasi nimada aks etishini belgilash edi. Chunki har ikki asar ham tarixiylik kasb etsa-da, ularning mualliflari shaxsiyatida o‘zgachalik mavjuddir. Boisi, Bobur nafaqat tarixiy nasriy asar muallifi, balki yuksak iste’dod egasi, lirik janrlardan iborat sohibi devon, e’tiqodiga sobit hukmdor hamdir. Shu jihatlar ham uni Muhammad Haydardan ajratib turadi. Bu xususiyatlar ularning asarlarda ham o‘ziga xoslik kasb etishiga sabab bo‘lgan.

Shu o‘rinda yuqorida tasviri berilgan voqea bayonining «Boburnoma»dagi ifodasiga e’tibor bersak, ikkala asar haqida xulosa chiqarish osonroq bo‘ladi: «Shohbegim va xonim bir uyda o‘lturub edilar. Doimg‘i erda tushub, kelib burung‘idek adab va ta’zim bila yurub ko‘rushtum, Shohbegim va xonim behad va beqiyos muztarib va munfail va sarafkanda va xijil bo‘lubturlar, ne ma’qul uzr ayta oladurlar, ne mushfiqona so‘rmoq tarhin sola oladurlar, bulardin tamaim mundoq emas edi. Bu jam’ har badbaxtliq maqomida bo‘lsalar edi, andoq emas edikim, begimning va xonimning so‘zlariga quloq solmag‘aylar edi. Mirzoxon xud Shohbegimning tuqqon nabirasi, kecha va kunduz begim qoshida, bular so‘zlariga kirmasa, Mirzoxonni qo‘ymay o‘zlarining qoshida saqlasa xud bo‘lur edi.»[10].

Muhammad Haydar asarida Shohbegimning ruhiy holati, iztirobi, Bobur oldidagi xijolati, haddan tashqari tushkun tarzda «iztirob va xijolat birla na tariqalik javob bergay», – degan

umumlashma jumla bilan ifoda etilganki, Bobur tasvirlagan yuksak darajadagi mag‘lublikka xos ruhiy holatni seza olmaymiz.

Biroq, bunda Muhammad Haydar tasviridagi yutuq shundan iboratki, «Boburnoma»da keltirilmagan, Boburning kamtarligi, yuksak insoniy xislati, davrning himmatli, yuksak insoniy sifatli podshohining, eng asosiysi, ezgu maqsadini amalga oshirish uchun o‘z kasri nafsini poymol etib bo‘lsa-da temuriylar xonadoniga mansub a’yonlarning gunohidan kechishini chiroyli tasvirlab beradi. Muhammad Haydarning «Bu ishlari Shohbegimning xotirlarig‘a taskin bermoq uchun erdi», degan jumlasida Boburning bu harakatida katta enasiga dalda berish, o‘zining ko‘nglida kudurat yo‘qligini bildirish bo‘lsa, ayni paytda Boburning barcha harakatlari temuriylar saroyi sha’ni, obro‘yini asrash uchun qilinganligini tushunib yetamiz. Muhammad Haydar tarixiy shaxslarni g‘olib va mag‘lub kategoriyasida tasvirlaganda «Boburnoma»dagidek yuksak darajada ifodalay olmaganini ko‘ramiz, bu faqat Shohbegim shaxsiyati tasvirida emas, balki boshqa shaxslar tasvirida ham yaqqol ko‘rinadi.

Qobul isyoni masalalari anjomiga yetib, Boburning Hindistonga yurishi oldidan Shohbegim yana bir siyosiy nayrang ko‘rsatadi - Boburga xiyonat qiladi: «Bir men Qobulda qolib edim», degan Bobur Hind eliga safarini mo‘ljallar ekan, bu davr Boburning ma’lum darajada ma’naviy mag‘lublik paytiga to‘g‘ri keladi. Boisi, bir qator do‘st va tarafdorlariga suyanishni maqsad qilib turganda Shohbegim hamda Mirzoxonlar tashviqoti bois juda ko‘p yaqinlari Badaxshonga ketib qoladilar, buni Bobur alam bilan xotirlab shunday yozadi: «Badaxshonda chun podshoh va podshohzodalardin kishi yo‘q edi, Shohbegimning munosabati bila yo savobdiydi bila Mirzoxon Badaxshon jonibig‘a mayl qildi. Mirzoxong‘a Badaxshon sori ruxsat berildi. Shohbegim ham Mirzoxon bila mutavajjih bo‘ldilar. Mening xolam Mehr Nigorxonim ham Badaxshon bormoq bo‘ldilar. Mening bila bo‘lmog‘larining munosabati ko‘prak edi, tuqqonlari edim, har necha man’ qilindi, mamnu’ bo‘lmadilar. Ular ham tebradilar».

Ko‘rinib turibdiki, bunda ham Shohbegim Boburdan xufiyona bir necha kun Badaxshonga o‘z yaqinlarini olib ketish rejasini tuzgan va uni amalga oshirish uchun munosib payt poylab, Boburga juda qiyin bo‘lgan paytda («Dushman bisyor qaviy, biz ko‘p zaif, ne maslahat qilmoqqa ehtimol, ne muqovamat qilmoqqa majol...») uni qoldirib ketganlar. Bu ham Boburga nisbatan qilingan xiyonatning bir ko‘rinishi edi.

Xulosa sifatida aytsak, Bobur saltanatida g‘araz va fitnaning boshi bo‘lgan, hatto Boburdan shuncha yaxshilik, muruvvat ko‘rgandan keyin ham unga qarshi borgan, «men buyukman, mening avlodim Iskandar Zulqarnaynga borib taqaladi», degan da’voda bo‘lgan Shohbegim Amir Temur saltanatining darz ketishida sababchilardan biri bo‘lib, tarixda yomon nom bilan qoldi.

Shohbegim tarix taqozosi bilan yana bir temuriyzoda Abu Bakr Mirzo lashkarlari bosqiniga uchrab, Qoshg‘arda asir olinib, fojiali tarzda o‘ldiriladi. Bu uning hayotidagi so‘nggi, ma’naviy mag‘lubiyati edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бобурнома. Нашрга тайёрловчи С.Ҳасанов. – Тошкент: Шарқ, 2002. – Б. 39.
2. Бобурнома. Нашрга тайёрловчи С.Ҳасанов. – Тошкент: Шарқ, 2002. – Б. 35.
3. Бобурнома. Нашрга тайёрловчи С.Ҳасанов. – Тошкент: Шарқ, 2002. – Б. 86.
4. Бобурнома. Нашрга тайёрловчи С.Ҳасанов. – Тошкент: Шарқ, 2002. – Б. 124.
5. Бобурнома. Нашрга тайёрловчи С.Ҳасанов. – Тошкент: Шарқ, 2002. – Б. 150.
6. Заҳириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси. – Тошкент: Шарқ, 2014. – Б. 341-342.
7. Бобурнома. Нашрга тайёрловчи С.Ҳасанов. – Тошкент: Шарқ, 2002. – Б. 150.
8. Бобурнома. Нашрга тайёрловчи С.Ҳасанов. – Тошкент: Шарқ, 2002. – Б. 151.
9. Мирзо Муҳаммад Ҳайдар Аёзий. Тарихи Рашидий. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – Б. 297.
10. Бобурнома. Нашрга тайёрловчи С.Ҳасанов. – Тошкент: Шарқ, 2002. – Б. 151.
11. Бобурнома. Нашрга тайёрловчи С.Ҳасанов. – Тошкент: Шарқ, 2002. – Б. 159.

ILK O‘RTA ASRLARDA BUXORO VOHASIDA EFTALIYLAR OMILI

Feruza DJUMANIYAZOVA
O‘zR FA Sharqshunoslik instituti
kichik ilmiy xodimi, PhD

Annotatsiya: Maqolada III–IV asrlarga oid Markaziy Osiyodagi migratsion jarayonlar, Buxoro toponimi, Buxoroning shahar sifatida shakllanishi, Abro‘y bilan bog‘liq voqealar, Buxorxudotlarning saroyi – Varaxsha qasri qayta tiklanishining yangi bosqichlari, eftaliylarning Buxoro vohasida uzoq hukmronlik qila olmagani sabablari va Poykent ilk o‘rta asrlarda Markaziy Osiyoda eng muhim yuk tashish punktlaridan biri bo‘lgani kabi masalalar tahliliy asosda ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *Buxoro vohasi, shahar madaniyati, Eftaliylar, Sosoniylar, Abro‘y, Varaxsha, Buxorxudot, Kampirak devori, Poykent.*

Аннотация: В статье рассмотрены миграционные процессы в Средней Азии III-IV веков, топонимия Бухары, становление Бухары как город, события, связанные с Аброем, новые этапы восстановления дворца бухарских худотов - Варахшского замка. На аналитической основе раскрываются замок, причины, по которым эфталиты не могли долгое время править Бухарским оазисом, а также Пойкентом в раннем средневековье в Средней Азии, как одним из важнейших судоходных пунктов.

Ключевые слова: *Бухарский оазис, городская культура, эфталиты, Сасаниды, Аброй, Варахша, Бухарахудот, Кампиракская стена, Пойкент.*

Abstract: The article examines migration processes in Central Asia of the 3rd-4th centuries, the toponymy of Bukhara, the formation of Bukhara as a city, events associated with Abroy, new stages in the restoration of the palace of Bukhara khudots - Varakhsha Castle. The castle, the reasons why the Hephthalites could not rule the Bukhara oasis for a long time, as well as Poykent in the early Middle Ages in Central as one of the most important shipping points in Asia, are revealed on an analytical basis.

Key words: *Bukhara oasis, urban culture, Hephthalites, Sassanids, Abroy, Varakhsha, Bukharakhudot, Kampirak wall, Poykent.*

O‘tgan asrda Buxoro vohasida shahar madaniyatining tadrijiy rivojlanishi ko‘plab yirik tadqiqotlarda yetarlicha o‘rganilgan. Biroq ushbu tadqiqotlarning katta qismi Turk xoqonligi va undan keyingi davrlar ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyot jarayonlariga oid muammolarni qamrab olgan. Yaqin-yaqingacha, ayniqsa, Eftaliylar davlatini Sosoniylar bilan tinimsiz urushlari zaiflashtirgani natijasida, ularning mahalliy o‘troq aholi bilan konsolidatsiyasi va O‘rta Osiyoning mahalliy mulkdorlari hamda yirik savdogarlari bilan mustahkam aloqa o‘rnatmagani haqida ta’kidlanadi. Garchi yunon manbalarida so‘g‘diy elchi Maniaxning Vizantiya imperatori Yustinian II ga javobida “ular (eftaliylar) shaharlarda yashovchi qabila” ekani aytilsa-da, Eftaliylar davri (V asr o‘rtalaridan VI asr oxiri)da shaharlar tanazzuli kuchayib, aholi nufuzi kamayib, hunarmandchilik va savdo sustlashgan davr sifatida qarash o‘rnashib qolgan. Xorazm, Buxoro va Naxshob kabi viloyatlarda ziroatchilikning inqirozi yirik qishloq va shaharlarning huvillashiga olib keldi, deb baholanadi[1]. Tadqiqotchilar Eftaliylar davrini O‘rta Osiyo tarixidagi tushkunlik davri deb baholaydi[2]. Garchi V.A.Shishkin qabul qilmagan bo‘lsa-da, eftaliylar davlatining poytaxti Patien-Poykent bo‘lishi mumkinligi haqida qarashlar mavjud[3].

III–IV asrlar Markaziy Osiyoga ko‘plab migratsiyalar amalga oshirilgan davr edi. Szin sulolasi (265-419) yilnomalarida Kangyuy davlati o‘z qarorgohini Sirdaryo qirg‘oqlaridan janubda So‘g‘dga ko‘chirilgani aytiladi. IV asr o‘rtalarida Ammian Marsellin Markaziy Osiyoda xion qabilalari va kushon-kidariylari siyosiy maydonda paydo bo‘lganini yozadi. Migratsiyalar katta

miqyosda bo‘lib, u Buxoro vohasini ham chetlab o‘tmagan. IV asr boshlarida Buxoro vohasida o‘troq ziroatkorlar manzilgohlariga tutash hududlarda Qovunchi madaniyati vakillarining ta’siri kuzatiladi (Setalak madaniyati)[4]. E.V. Rtveladze fikricha, IV asrning birinchi yarmida Buxoro vohasi ikkita alohida mustaqil hukmdorlikka bo‘lingan: biri avtoxton, ikkinchisi esa vohaning janubi-g‘arbida joylashgan kelib chiqishi yuechji ittifoqi tarkibiga kirgan ko‘chmanchilardan bo‘lgan[5]. III–VIII asr tangalarini o‘rgangan A.Musakayeva bir maqolasida Buxoro vohasi (G‘arbiy So‘g‘d) tangalari ikonografiyasida Choch ta’siri mavjud bo‘lganini ta’kidlagan[6]. Choch azaldan ko‘chmanchilarning boshqa vohalarga harakat qiluvchi markazlaridan biri bo‘lgan[8]. Shuningdek, ushbu fikrni G‘.Boboyorov va A. Kubatinlar ham tasdiqlagan. Sh.Kamoliddinov Buxoro toponimining uncha qadimiy emasligi va ilk o‘rta asrlarga taalluqli bo‘lishi mumkinligiga e’tibor qaratadi. VI asrda paydo bo‘lgani va bu nomni Buxoroning Eltegin ismli hukmdori qurdirgan budda monastiri bilan (pvxr so‘zi so‘g‘diychaga sanskritcha vihara orqali o‘tgan) bog‘laydi[9]. Bu fikrni A.Muhammadjanov ham o‘z tadqiqotida ilgari surgan[10].

Narshaxiy “Tarixi Buxoro” asarida Buxoroning shahar sifatida shakllanishi haqida: “Samarqand tarafda bir katta daryo borki, uni “Rudi Mosaf” – “Mosaf daryosi” deb ataydilar. Bu daryoga ko‘p suv yig‘ilgan, u bir talay yerlarni yuvib-o‘pirib ko‘p loyqalarni surib kelgan va natijada botqoqliklar to‘lib qolgan... So‘ng suv oqib kelishi to‘xtadi... Bu loyqalar bilan to‘lgan mavze Buxoro bo‘lib qoldi...odamlar Turkiston tomondan kelar edilar. Bu viloyatlarda suv va daraxtlar ov qilinadigan jonivorlar ko‘p bo‘lganidan kishilarga bu viloyat xush kelib shu yerga joylashdilar. Ular avval chodir va o‘tovlarda yashar edilar, so‘ng vaqt o‘tishi bilan odamlar yig‘ilib imoratlar qurdilar. Xalq ko‘paygach, bir kishini saylab amir qildilar: uning nomi Abro‘y edi. Hali Buxoro shahri vujudga kelmagan: lekin qishloqlardan ba’zilari paydo bo‘lgan edi: Nur, Harqonrud, Vardona... shular jumlasidandir. Podshoh turadigan katta qishloq Boykand – Poykand edi”[11] deb yozgan. Uning bu ma’lumotlaridan ko‘rish mumkinki, Buxoro vohasiga odamlar Turkistondan kelishi natijasida aholi zichlashgan va chodirlarda yashagan qatlam asta-sekin o‘troqlasha boshlagan, yirik qishloq-shaharlar qad ko‘targan. Ular yuechjilar/toharlar, ulardan keyin eftaliylar konfederatsiyasi tarkibidagi turli urug‘lar bo‘lishi mumkin.

Y.Markvart Narshaxiy keltirgan Abro‘y bilan bog‘liq voqealarni VI asrning 60-yillari bilan bog‘lagan va Abro‘y ismini shaxs nomi “Wariz” Poykentda hukm surgan eftaliylarning oxirgi noibi unvoni bilan aloqali deb xulosa qilgan[12] va shundan beri tadqiqotchilar orasida bu fikr tortishib kelinadi. Biroq, Abro‘yning eftaliylarga aloqador bo‘lgani ko‘proq ishonchliroq ko‘rinadi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, Abro‘y hikoyasi Narshaxiyning asarida keltirilgan original ma’lumot emas, Abul Hasan Abdurahman ibn Muhammad Nishopuriyning bizgacha yetib kelmagan “Hazoyin al-ulum” nomli asaridan olingan al-Qubaviy (?) tomonidan qo‘shilgan matn degan qarash bor[14]. Bu masalaga ko‘p bora murojaat qilgan A.Naymark esa Abro‘y hikoyasi Poykentning kelib chiqishi haqidagi mahalliy og‘zaki tarixdagi rivoyatlar doirasidan kelib chiqqanligini yozgan. “Shohnoma”da keltirilgan forslar va eftaliylar o‘rtasidagi kurash voqealari tarixiy kontekstlarga ishora qiladi, biroq ayrim tadqiqotchilar fikricha albatta, bu ularning faktik ma’noda “tarixiy” ekanligini anglatmaydi[15]. Abro‘y hikoyasi taxminan eftal-turk-fors urushi paytida va undan keyin sodir bo‘lgan voqealarni aks ettirish uchun talqin qilingan. Nima bo‘lgan taqdirda ham, Abro‘y hikoyasi eftaliylarning Buxoroda bir muddat hukm surganiga ishora qiladi.

VI asrda ro‘y bergan Abro‘y qo‘zg‘olonidan so‘ng (tiraniya) ko‘plab buxoroliklar Yettisuvga ko‘chgan, bu yerda ular Hamukat (Jamukent) shahriga asos soldilar. Jamuklar xitoy manbalaridagi “chjaovu”lar bilan identikligi aytiladi. Tarixshunoslikda ularni II-I asrlardan boshlab So‘g‘dda ketma-ket hukmronlik qilgan chjaovular xonadoni yuechjilardan bo‘lgani haqidagi qarash ustuvordir. So‘g‘dshunos olima O.I.Smirnova O‘rta Osiyolik hukmdorlar unvonidagi hamuk – حموك yoki jamuk – جموك atamasiga e’tibor berib, uning buxoroliklar shevasidagi “qimmatbaho tosh”, “buyuk”, “katta” hamda “mohiyat” va “mansublik” ma’nolariga bog‘laydi. “Jamuk”lar Toharistonning o‘troq aholisi tarkibiga kirgan qadimgi turkiy oilaning nomi, degan fikrlar mavjud[16]. Xitoy manbalarida bu xalq chu-mu-gen shaklida beshta sharqiy turklar urug‘ini boshqargan urug‘ sifatida tilga olinadi. Bu urug‘larning eng kuchlilari Samarqand,

Buxoro va Xorazmda hukmronlik qilgan. 627-yilda Buxoro hukmdori Xa-ling-ga Xitoy imperatoriga uning xonadoni 22 avloddan beri, ya'ni taxminan 400 yildan buyon hukmronlik qilgani haqida xabar beradi. Bu ma'lumot jamuk aslzodalarning Abro'ydan qochib to'liq ko'chib ketmaganini va bir qismi qolganini anglatadi. Biroz keyinroq Tabariy ham "jamuklar", ya'ni "chjaovu"lar "turklarning urug'laridan" deb yozib, 119/737-yil voqealarida turk xoqoni Kursulning o'ldirilishi va uning dafn marosimida xoqon xonadoni vakillari – ahli bayt al-jamukiyn (al-xamakiyn), ya'ni al-jamuk (al-xamuk) xonadoni ahli ishtiroki qayd etilgan. Shuni taxmin qilish mumkinki, "jamuklar", ya'ni "chjaovu" xonadonining vakillari O'rta Osiyo ikki daryo oralig'iga kelishidan oldin allaqachon kuchli turkiylashgan edilar. Biroq, G'arbiy So'g'dda ular eftaliylar bilan yaxshi kelisholmagan edilar.

Buxorxudotlarning saroyi – Varaxsha qasrining qayta tiklanishi va yangi bosqichning boshlanishi V.A. Shishkin fikricha eftaliylar davri bilan bog'liqdir[17]. Shuningdek, Varaxsha atrofidagi tashlab ketilgan qator manzilgohlarning tiklanishi, sug'orish inshootlarining tiklanishi ham ular bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Narshaxiy Varaxsha haqida yozarkan, "Uni Buxorxudot bino qilgan bo'lib, qurilganiga ming yildan ortiqroq vaqt o'tgan. Bu qasr ko'p yillardan beri vayron bo'lgan va qarovsiz qolib ketgan edi Xunukxudot (Khnk Khudah) uni qaytadan tuzatdi" deydi[18]. Mavjud ma'lumotlar saroyni "ming yildan ko'proq vaqt oldin" qurgan anonim Buxorxudotni aniqlash uchun yetarli emas. Ammo, bu hikoyaning ikkinchi timsoli Xunukxudot (Khnk Khudah), albatta, tarixiy shaxsdir. U "Tarix-i Buxoro" matnida yana bir bor 88/707-yili antiarab koalitsiyasining Buxorodagi yetakchilaridan biri sifatida namoyon bo'ladi[19]. Tadqiqotchi A.Naymark ham uning kimligini aniqlashtirishga harakat qilgan, "Tarix-i Buxoro"da Xunukxudot (Khnk Khudah) haqidagi ikkita eslatma ham bu sirli odamning shaxsini aniqlashga yordam bera olmaydi. Ismda khudah komponentining mavjudligi bu shaxs Markaziy Osiyoning boshqa kichik voha hukmdorlari – Buxorxudot, Vardanxudot, Chag'onxudot, Xuttalxudot, Samanxudot va boshqalar birga tilga olingan. Biroq uning ismi Xunuk (Khnk) nomi bilan o'sha davr manbalarida na bir uzel, na bir qishloq borligi eslatilmaganini yozadi. Uning arablarga qarshi koalitsiyada ishtirok etishi va Varaxsha saroyini qayta tiklaganiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bu uning o'sha davr uchun yirik qo'mondon va oliy shahzodalardan biri bo'lganini ko'rsatadi. Bu shaxsning "Tarix-i Buxoro" muallifi tomonidan berilgan unvoni "shubhali" ko'rinadi".

A.Naymark Xunuk ismini "Xunak/Xanuk" (Khunak/Khanuk) sifatida o'qigan, Likoshin esa Xunuk-xudot deb o'qigan[20]. Xunuk/Xunak/Xanuk ismli mahalliy hukmdor (?) Ya'qubiyning "Ta'rix" asarida keltirilgan "...Xunuk (Khnk) Abu Shukr Buxorxudot Kurmagxanun (khatun?) an-Nufasiy[21] turklar boshiga keldi"[22]. Tadqiqotchi uni Narshaxiydan farqli o'laroq, Xunuk (Khnk) ismi unvon emas, shaxs nomi ekanini ta'kidlagan. Bizning fikrimizcha, Buxorxudot Xunuk (Khnk) ismida "xun" etnosi bilan bog'liqlikni ko'rish mumkin. Shuningdek, Varaxshani tiklagan hukmdor Xunukxudot (Khnk Khudah) va arablarga qarshi ittifoqda qatnashgan Xunukxudot ikkita alohida shaxs bo'lishi mumkin. Yoki Xunukxudot (Khnk Khudah) atamasiga kelib chiqishi chjaovu (tohar/yuechji), xun (oq xun/eftaliy yoki khn/sharqiy turklar(?))unvon deb qarash kerak. Xunukxudotni aynan mahalliy hukmdor deb qabul qilish kerak emas, xudot unvoni qabul qilgan tashqi unsur deb tushunish mantiqliroq, masalan, Qutaybaga qarshi chiqqan Vardanxudot ham VIII boshlarida Turkistondan kelgani aytiladi[23]. C. Shtark ham VI-VIII asrlarda Poykent, Vardana, Panj kabi kabi tumanlarda turklardan bo'lgan kichik voha shahzodalari hukm surganini yozadi[24]. Chunki Ya'qubiy keltirgan uning turklar yo'lboshchisi ekani aniq ko'rinadi. "Xun" etnonimi So'g'dda V asrdan boshlab uchrashini Samarqandda kidariylar tomonidan yaratilgan baqtriycha "o'g'lar xun" so'zi bitilgan muhr ham tasdiqlaydi[25]. Buxorxudotlar tanga guruhida pwx'r xwâ xn/wn/wk – Buxoroning Khunak yoki Khanuk hukmdori degan so'g'dcha yozuv bor. Buni A. Naymark Narshaxiy va Ya'qubiyda keltirilgan Xunuk/Xunak(707 y.) Abu Shukrning (722 y.) otasiga tegishli tangalar deb hisoblaydi[26]. Faqat ayrim tadqiqotchilar so'g'diy hujjatlardagi γwn (xun) so'zini Sharqiy turklarga nisbatan qo'llanilgan, deb izohlaydilar[27].

Arxeologlar vohaning g'arbiy qismi suvsizlikdan deyarli qurib qolgani va aholisi tomonidan tashlab ketilgani IV–V asrda Buxoro vohasining g'arbiy chegarasi ancha-muncha

torayib, u Varaxshadan 10-12 km sharqdan o‘tganini yozadi. Vayronalikdan so‘ng V asr oxirlari va VI asr boshlarida bu qadimgi vohaning sug‘orish tarmoqlari qayta tiklanib, vohaning g‘arbiy qismida hayot yana tiklangan. Shofirkon va Abumuslim kabi yirik sug‘orish kanallari chiqarilib, Buxoro vohasining shimoliy va sharqiy qismlari sug‘orilib o‘zlashtirilgan[28].

Nega eftaliylar Buxoro vohasida uzoq hukmronlik qila olmadi? Mahalliy aholi tomonidan qo‘llab-quvvatlanmasligi albatta ularning inqirozini tezlashtirdi, bu holat nafaqat shu davrga, hatto Somoniylar davriga ham tegishli bo‘lib, mahalliy aholi qo‘llab-quvvatlashining yo‘qolishi ushbu sulolaning ham inqirozini tezlashtirgan omillardan biri edi[29]. Zotan, Buxoroda buxorxudotlar mavqei juda kuchli bo‘lganini ko‘rish mumkin.

Eftaliylardan oldin bu yerda yuechji/toharlar boshqaruvi mavjud bo‘lgan. Varaxsha vohasi irrigatsiya sistemalarining ishdan chiqib, Buxorodagi qadimgi sug‘orilgan yerlarining qurib qolishi, shubhasiz, IV-V asrlarda O‘rta Osiyoda sodir bo‘lgan iqtisodiy va siyosiy tushkunlik bilan bog‘liq bo‘lgan[30]. Quyi Zarafshon vodiysining sug‘orilish tarixini o‘rgangan olim A. Muhammadjanov fikricha, arxeologik tekshirishlar uzoq vaqt davom etgan vayronalikdan so‘ng V asr oxirlari va VI asr boshlarida bu qadimgi vohaning sug‘orish tarmoqlari qayta ishga solinib, Varaxsha atroflari yana obod etilganini yozgan. U V.A. Shishkinning tadqiqotlariga tayanib bu davrda Varaxsha atrofida yangidan mustahkam shahar devori barpo etilib, uning janubiy qismida esa ark va qasrlar bino qilingani va shu davrdan boshlab Varaxsha Buxoroning feodal hokimlari - buxorxudotlarning qarorgohiga aylangan, degan xulosaga kelgan[31].

Buxoroni o‘rab turgan Kampirak devorining barpo etilishini ham unga ishlatilgan xom-ashyo tarkibi, qurilish texnikasiga qarab arxeologlar VI asrning o‘rtalari bilan belgilaydilar[32]. Sh.T. Adilov fikricha, mazkur devorni eftaliylar shimoldan bo‘lgan turklar hujumini qaytarish uchun qurgan. Biroq bu devorning kim tomonidan va qachon qurilishi yuzasidan yakdil fikr yo‘q[33].

Eftaliylar davlati tarkibiga kirgan mahalliy hukmdorliklar ichida Buxoro vohasi eng qudratlilaridan biri edi. Tadqiqotlarda Buxoro vohasi, xususan Poykentning bir muddat Eftaliylar davlati ma’muriy markazi – poytaxti vazifasini bajargan bo‘lishi mumkin, degan fikrlar mavjud[34]. Biroq bu tadqiqotchilar tomonidan keyinchalik qo‘llab-quvvatlanmagan. V. Tomashek xitoy manbalarida keltirilgan Patiyen/Badiyan (拔底延) nomini garchi bu shahar bilan bog‘lasa-da, uni Toharistondagi (Bag‘lon, Balx va Badg‘is) bilan aynanlashtirganlar[35]. Poykent ilk o‘rta asrlarda Markaziy Osiyoda eng muhim yuk tashish punktlaridan biri bo‘lgani, va bu yerdan yo‘l Xuroson orqali Ray va Hamadonga hamda Suriya va Vizantiyaga borgan[36]. A. Naymark fikricha, ko‘chmanchilar qishda Poykent atroflari yovvoyi qushlar va baliqlarga boy bo‘lgani uchun ham bu hududlarni qishlov uchun tanlagan. Poykent nafaqat harbiy to‘qnashuvlar hududi, balki savdo almashinuvi joyi ham bo‘lgan[37]. Poykent eftaliylardan keyin ham unga sharqdan kirib kelgan turklarning markazi bo‘lganini ko‘rish mumkin. Unda To‘n Yabg‘u-xoqonning jiyani shahzoda Nishu Kan hukmronlik qilgan[38]. Firdavsiyning “Shohnoma” asaridan ma’lumki (eftaliy hukmdori Gatfar haqida boshqa manbalarda ma’lumot uchramaydi[39]), Turk xoqoni va Eftaliylar to‘qnashgan paytda eftaliylar hukmdorining ismi Vaxshunvar/Xushnavazning nevarasi(?) Gatfar (Gatifar) bo‘lgan. Tadqiqotchilar Buxoro vohasidagi Vobkentdaryoning bir irmog‘i Govxitfarning kelib chiqishini ham ushbu Gatfar ismi bilan bog‘lashgan[40]. E.V.Rtveladze Buxoro hududidan topilgan ayrim tangalarni eftaliylar shohi Gatfarga tegishli bo‘lishi mumkin deb taxmin qilgan. Biroq, M.Fedorov bu tangalarda Kavad ismini o‘qigan[41]. Biroq so‘g‘d tilidagi toponimlar bo‘yicha yirik mutaxassis P.Lurye bu gidronimning kelib chiqishi qadimgi eroniycha *xvati-bara-so‘g‘diycha *xutβar “o‘zi oqadigan, o‘zi tortar suv inshooti, oyoq suvi yoki tabiiy kanal” degan ma’noni anglatuvchi o‘zak bilan aloqali ekanini yozadi: Buxoroda Najjar-Xitfar, Xutfar, Xitfarin, Xutfari Ko‘bna kabi boshqa gidronimlar ham mavjud bo‘lgan[42].

Firdavsiy o‘z asarida yozishicha, eftaliylar hukmdori Gatfarning Katulf[43] ismli maslahatchisi bo‘lgan va u turklarga qarshi hujum qilmaslikka undagan[44]. Turk xoqoni tomonidan Xusrav I Anushervon saroyiga jo‘natilgan elchilar Sug‘d hududida Eftaliylar

hukmdorining buyrug‘iga ko‘ra hamlaga uchraydi, faqat bitta suvoriy omon qolib[45], qonli voqealarni o‘z hukmdoriga yetkazadi[46]. Xoqon katta qo‘shin bilan “xaytallar”ga qarshi jang boshlaydi. Choch va Chirchiq egallanib, Gulzorriyun (Sirdaryo) degan joygacha yetib boradi[47]. Eftaliylar hukmdori Gatfar qo‘shin to‘plashga harakat qiladi. Buxoro hududlarida Balx, Shug‘non, Xuttalon, Vashgird (Janubiy Tojikiston hududidagi viloyat), Termiz, Amul, Zammdan kelgan askarlar to‘planib, turklarga qarshi jangga keladi[48]. Bu holat eftaliylarning mahalliy aholi yoki qo‘shni vohalar tomonidan qo‘llab-quvvatlanmagani haqidagi fikrlarni rad etadi. Sosoniylar shohi Xusrav Anushervonning Balx yaqinida 562/563-yilda eftaliylarga zarba berishi bilan urush boshlanib ketgan. Eftaliylar va turk qo‘shinlari o‘rtasidagi hal qiluvchi jang 565-yilda Naxshab yaqinida bo‘lib o‘tgan. Sakkiz kunlik jangda turklar g‘alaba qozonadi[49]. Ikki yildan so‘ng eftaliylar Buxoro yaqinida tor-mor etiladi[50].

Ko‘rib turganimizdek, yuqorida yozma hamda arxeologik manbalarda, shuningdek ular asosidagi olib borilgan tadqiqotlardagi ma’lumotlar eftaliylarning G‘arbiy So‘g‘d – Buxoro vohasidagi bir muddat faoliyatini aniqlashga yordam beradi. Hozirgacha ushbu davlatning O‘rta Osiyoda ikki daryo oralig‘i hududidagi yadrosi bo‘lgan vohalar masalasi tortishuvli. Ammo, shunga qaramay, ushbu ulkan mintaqaning boshqa hududlarga qiyosan, asosan Xorazm, Buxoro, Turkmaniston hududlarida VI asrning boshlarida Eftaliylar omili mavjud bo‘lgani, ularning boshqaruv, san’at va iqtisodiy-ijtimoiy hayotda o‘ziga xos o‘rin tutgani ko‘rinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Отахўжаев А. Илк ўрта асрларда Марказий Осиё цивилизациясида турк-суғд муносабатлари. – Т.: ART-FLEX, 2010. – С. 40.
2. Якубовский А.Ю. К вопросу об этногенезе узбекского народа. Изд-во Уз ФАН. – Ташкент, 1941. –С.5; Адылов Ш.Т. Из политической истории Западного Согда (в свете проблемы «тирании Абруя» и тюрко-сасанидского конфликта) //Ўзбекистоннинг моддий маданияти тарихи. – Самарқанд: 2012. – №37. –103-112.
3. Шишкин *В.А.* Варахша. М., 1963. – С. 21.
4. Культура древнебухарского оазиса III –VI вв. н. э. –Ташкент, Фан. – С. 114.
5. Ртвеладзе Э.В. К истории домусульманской Бухары//Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. 9-10-11-сонлар. –Тошкент: Фан,1997. – С. 16.
6. Мусакаева А. О денежном обращение Бухарского Согда// Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. 9-10-11-сонлар. –Тошкент: Фан,1997. – С. 30.
7. Мусакаева А. О денежном обращение Бухарского Согда// Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. 9-10-11-сонлар. –Тошкент: Фан,1997. – С. 30.
8. Бабаяров Б, Кубатин А. К вопросу о династических связах Чача и Бухары в эпоху раннего средневековье// Древние цивилизации на Среднем Востоке Археология, история, культура (Материалы международной научной конференции, посвященной 80-летию Г.В. Шишкиной). –Москва. 2010. –С. 14-16.
9. Камолиддин Ш.С. К вопросу о происхождении топонима Бухара//-С. 103.
10. Муҳаммаджонов А. Қадимги Бухоро(археологик лавҳалар ва тарих). –Тошкент: Фан, 1991. – Б. 36.
11. Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар Наршахий. Бухоро тарихи. –Тошкент: Фан, 1966. – Б. 16.
12. Markwart 1938, 147-148.
13. Stark S. The Earliest Attestation of Paykand// Journal Asiatique. 309/1 (2021) – p. 98.
14. Naymark A. Sogdiana, its Christians and Byzantium. A study of artistic and cultural connections in Late Antiquity and Early Middle Ages (PhD Thesis Indiana University). Bloomington, 2000. – p. 277.
15. Stark S. The Earliest Attestation... – p. 98.

16. Исхаков М., Камолиддин Ш., Бабаяров Г. Титулатура доисламских правителей Чача. –Т.: ТашГИВ, 2009. –С. 9; Бабаяров Б, Кубатин А. К вопросу о династических связах Чача и Бухары... . – С. 16.
17. Шишкин *В.А.* Варахша. М., 1963. - С. 223-224.
18. Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар Наршахий. Бухоро тарихи. –Б. 24.
19. Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар Наршахий. Бухоро тарихи. –Б.
20. Мухаммад Наршахи. История Бухары. Ташкент. 1897 (*пер.* Н. Лыкошина). – С.26.
21. Тадқиқотчилар уни *al-trqshi* сифатида ҳам ўқиганлар. (В.В. Бартольд, Р. Фрай ва б.). Naymark A. Sogdiana, its Christians and Byzantium... – p.273.
22. Тадқиқотчилар уни *al-trqshi* сифатида ҳам ўқиганлар. (В.В. Бартольд, Р. Фрай ва б.). Naymark A. Sogdiana, its Christians and Byzantium... – p.273.
23. Шишкин В.А. Варахша... – С. 237.
24. Stark S. Mercenaries and City Rulers: Early Turks in pre-Muslim Mawarannahr// tark, S. (2007), “Mercenaries and City Rulers: Early Turks in Pre-Muslim Mawarannahr”, In Popova, L., Hartley, Ch. and Smith, A.T. (eds.), Social Orders and Social Landscapes: Proceedings of the 2005 University of Chicago Conference on Eurasian Archaeology, Newcastle. -p. 315.
25. Маликов А. Тюрко-согдийские связи и взаимовлияния... –С. 75.
26. Naymark A. Returning to Varakhsha." - The Silk Road, volume 1, no. 2 (2003)// (99+) "Returning to Varakhsha." - The Silk Road, volume 1, no. 2 (2003) | Aleksandr Naymark - Academia.edu
27. Согдийские документы... II. – С. 120.
28. Муҳаммаджонов А. Р. Қуйи Зарафшон водийсининг суғорилиш тарихи (Қадимги даврдан то XX аср бошларигача). –Тошкент: Фан, 1992. –С. 354.
29. Наймарк А.И. Когда был разрушен Варахшинский дворец Бухархудатов//Бухарский оазис и его соседы в древности и средневековье. –Санкт-Петербург: Изд-во Государсвенного Эрмитажа, 2015. –С. 169.
30. Муҳаммаджонов А. Р. Қуйи Зарафшон водийсининг суғорилиш тарихи (Қадимги даврдан то XX аср бошларигача). –Тошкент: Фан, 1992. –С. 102.
31. Муҳаммаджонов А. Р. Қуйи Зарафшон водийсининг суғорилиш тарихи (Қадимги даврдан то XX аср бошларигача). –Тошкент: Фан, 1992. –С. 102.
32. Адылов Ш.Т. О датировке стены “Кампирак” и некоторых вопросах политической истории Западного Согда//Генезиси и пути развития процессов урбанизации Центральной Азии(тезиси докладов международной конференции, посвященной 25-летию образования Института археологии АН РУз и 60-летию академика А.А. Аскарова. г.Самарканд. 20-21 сентября 1995 года). – С. 45-47.
33. Stark S. "The New Garden of the Amīr: Sāmānid Land-Development at the Fringes of the Bukhārā Oasis," in: M. Inaba / D. Tor (eds.), Iran and Central Asia in the First Millenium: Continuity and Change from the Pre-Islamic to the Islamic Period, University of Notre Dame Press, Notre Dame 2022. -С. 230; Мирзаахмедов С.Д., Штарк С, Мирзаахмедов Д.К. Археологические исследования оазисной стены Бухары Кампырдевор у крепости Кызылтепа. Археологические исследования в Узбекистане 2015-2017 года. Выпуск 11. – Самарканд, 2018. –С. 112.
34. Kurbanov A. The Hephthalites: Archaeological and historical analysis. Phd thesis submitted to the Department of History and Cultural Studies of the Free University. – Berlin, 2010. – P. 218.
35. Stark S. The Earliest Attestation of Paykand... – P. 98; Chavannes 1903, 224; Kuwayama 1989, 128-130; Sims-Williams 2016, 278 n. 32; notes by E. de la Vaissière and F. Grenet in Ching and Galambos 2020, 49-50).
36. Гумилёв Л.Н. Древние тюрки. М.: Наука, 1967. С. 47.
37. Наймарк А. И. Географические фактор в истории Пайкенда//Социально-пространтсвенные структуры в стадиальной характеристике культурно-

исторического процесса. Тезисы межрегиональной конференции. –Москва. 1992. –С. 176; Stark, Sören: "The Earliest Attestation of Paykand," Journal Asiatique 309/1 (2021), 97-105.
38. Маликов А. Тюрко-согдийские связи и взаимовлияния в оазисах Центральной Азии // Согдийский сборник. Выпуск 2. Новейшие исследования по истории культуры Согда в Узбекистане. LAP Lambert Academic publishing, 2015. – С. 77.
39. Фирдоуси. Шахнаме. Т.6. От начала царствования Йездгерда... – С. 612.
40. Адылов Ш.Т. О датировке стены “Кампирак” ... – С.47; Культура древнебухарского оазиса... – С. 122.
41. Kurbanov A. The Hephthalites: Archaeological and historical analysis... – С. 108.
42. Лурье П. Топономические данные о бухарском диалекте содийского языка// Бухарский оазис и его соседы в древности и средневековье. –Санкт-Петербург: Изд-во Государсвенного Эрмитажа, 2015. –С. 132.
43. Гумилев Л.Н. Қадимги турклар. – Тошкент: Фан, 2007. –Б. 46.
44. Гафуров Б.Г. Таджики. Древнейшая, древняя и средневековая история. Книга первая. – 2-е изд., – Душанбе: Ирфон, 1989. – С. 216.
45. Фирдоуси. Шахнаме. Т.6. От начала царствования Йездгерда, сына Бахрама Гура, до конца книги. Том VI. Перевод Ц.Б. Бану-Лахути и В.Г. Берзнева. – Москва: Наука, 1989. – С.118.
46. Mokrynin, V.P. On the Issue of Turkic-Sughdian Integration Referring to the Period of the VI-th – the VIII-th Centuries. / V.P. Mokrynin // From the History of pre-revolutionary Kyrgyzstan. - Frunze: Science, 1985. – pp. 152 – 164.
47. Гафуров Б.Г. Таджики… Книга первая. – С. 216.
48. Гафуров Б.Г. Таджики… Книга первая. – С. 217; Фирдоуси. Шахнаме. Т.6. От начала царствования Йездгерда... . – С. 118-119.
49. Chavannes E. Documents sur les Toukiue (Turks) occidentaux // Сборник трудов Орхонской экспедиции. Вып. 6. – СПб., 1903. – С. 229.
50. Аюбов А.Р. Особенности эволюции согдо-тюркских взаимоотношений в раннем средневековье// особенности эволюции согдо-тюркских взаимоотношений в раннем средневековье – тема научной статьи по истории и археологии читайте бесплатно текст научно-исследовательской работы в электронной библиотеке киберленинка (cyberleninka.ru)

TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTI A'ZOLARINING MUSTAQILLIKKA ERISHUVI VA O'ZARO HAMKORLIGI

Dostonjon TOJIYEV
O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Turkiy Davlatlar Tashkilotining asosini tashkil etgan turkiy mamlakatlarning mustaqillikka erishuvlari jarayoni bayon etilgan. Shu qatorda Turkiya va sobiq Ittifoq Respublikalarining istiqlolga erishishi, dastlabki yillardagi o'zaro aloqalarning shakllanishi, ijtimoiy-iqtisodiy hamkorliklar asosida dastlab, Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi, so'ngra Turkiy Davlatlar Tashkilotining tuzilishi, tashkilot ramzlarining qabul qilinishi tarixiga doir qarashlar ham keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar. *Turkiy Davlatlar Tashkiloti, Turkiya, Ozarbayjon, Markaziy Osiyo, Sovet Ittifoqi, Istanbul sammiti, Turkiy Kengash, "Naxichevan kelishuvi", Vengriya, Bag'dod Amreyev, Cho'lponota sammiti, Afg'oniston masalasi.*

Аннотация. В данной статье описывается процесс независимости тюркских стран, составивших основу Организации тюркских государств. Кроме того, взгляды на историю достижения Турцией и бывшими союзными республиками независимости, становление взаимных отношений в первые годы, создание Совета сотрудничества тюркоязычных стран, а затем Организации тюркских государств, как а также принятие символики организации, основанной на социально-экономическом сотрудничестве.

Ключевые слова. *Организация тюркских государств, Турция, Азербайджан, Средняя Азия, Советский Союз, Стамбульский саммит, Турецкий совет, «Нахичеванское соглашение», Венгрия, Багдад Амреев, Чолпонотский саммит, афганский вопрос.*

Abstract: This article describes the process of independence of the Turkic countries that formed the basis of the Organization of Turkic States. In addition, views on the history of Turkey and the former Union Republics achievement of independence, the formation of mutual relations in the early years, the establishment of the Cooperation Council of Turkic-speaking countries, and then the Organization of Turkic States raised, as well as the adoption of the organization's symbols, based on socio-economic cooperation.

Keywords. *Organization of Turkic States, Turkey, Azerbaijan, Central Asia, Soviet Union, Istanbul summit, Turkish Council, "Nakhichevan Agreement", Hungary, Baghdad Amreev, Chulponota summit, Afghanistan issue.*

Mustaqillik – har bir xalq o'z xohish-irodasini namoyon qiladigan, mamlakatni erkin tasarruf etadigan, hamda jahon afkor ommasi oldida huquqlarga ega bo'ladigan jarayondir. Markaziy Osiyoning erkinlikka erishishi, yuz yillardan ziyoda davom etgan mustamlaka asoratidan qutulishi oson kechmadi. Turkiy dunyo XXI asrga kelib birlashish, birlik g'oyalari asosida umumturkiy mintaqani yaratishga har doimgidan ham yaqinroq. Mintaqaviy va lisoniy yaqinlik asosida hamkorlik aloqalari Turkiy Davlatlar Tashkiloti doirasida aniq yo'nalish olib, davom etib bormoqda. Turkiya, Ozarbayjon va Markaziy Osiyo mamlakatlarining o'tgan 30 yildan oshiqroq davrdagi hamkorliklari XX asr so'nggida dastlab kuchli, yangi asr boshlarida biroz sust va XXI asr 2-dekadasi oxirlaridan boshlab barcha vaqtlarga nisbatan kuchliroq hamda birdamroq holatga chiqib bordi.

Turk millati harbiy yo'l ila sultonlik tuzumidan butkul voz kechgan holatda yakka respublika tizimi va milliy davlat tizimini barpo etish orqali istiqlolga erishdi. Sovet Ittifoqi qulagach, undan mustaqillikka erishgan Markaziy Osiyo va Ozarbayjon esa Turkiyadan farqli

o‘laroq og‘ir bir boshlang‘ich davr ostonasida o‘z rivojlanish yo‘llarini qurishga kirishdilar. Bu vaziyatda farqli joylashuv va ichki xususiyatlari sababidan rivojlanish darajalari ham turlicha ko‘rinish oldi [1].

O‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgan Markaziy Osiyo respublikalari kommunizmdan voz kechib, mustaqillikka, ozodlikka, milliy suverenitetga, qonun ustuvorligiga, mantiqiylikka asoslangan tizimga hamda erkin, liberal iqtisodiyotga va plyuralizmga asoslangan demokratik tizimga o‘tishga harakat qildilar [2].

SSSRdan mustaqillikka erishgan yoki mustaqillikni Rossiya Federatsiyasi tarkibidan saqlab qolishga harakat qilgan turkiy respublikalar va 1920-yillardagi Turkiya Respublikasi, ko‘rinib turibdiki, turli nuqtalarda, turli vaziyatlarda harakat qilgan bo‘lsalar ham, bir xil maqsadlarga intilgan edilar. Turkiya Respublikasi monarxiyadan bugungi umuminsoniy qadriyatlarga o‘tish uchun kurash olib borgan bo‘lsa, boshqa turkiy respublikalar esa kommunizmdan bir xil umuminsoniy qadriyatlarga erishishga harakat qilishdi.

Ikki mintaqani taqqoslaganda yana bir muhim farq Turkiyaning istiqloli salkam 70 yil avval qo‘lga kiritilganligidir.

Turkiya bilan SSSRdan mustaqillikka erishgan turkiy respublikalar o‘rtasida bugungi kunda paydo bo‘lgan va katta ahamiyatga ega bo‘lgan maqsad birligi bilan birga fikr va e’tiqod rishtalarida mushtarak nuqtalar mavjud. Ikki eng muhim mushtarak nuqta – turkiy dunyo birligiga intilish va islomdir. Ushbu ikki manba boshqa madaniy elementlarning uyg‘unligini amalga oshirish orqali umumiy madaniy muhitni mustahkamlashni tezlashtirayotgan omildir [3].

Bir ildizdan, madaniyatdan, dindan kelib chiqqan va tarixan bog‘liq bo‘lgan turkiy davlatlarning o‘zaro hamkorligi zamon talabi deyish o‘rinlidir. Turkiya, Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va O‘zbekiston a’zo sifatida, Vengriya va Turkmaniston esa kuzatuvchi davlatlar bo‘lgan holatda tashkilotning ravnaqiga, taraqqiyotiga xizmat qilishga bel bog‘lashgan.

2021-yil noyabr oyida Istanbulda bo‘lib o‘tgan sammitda Turkiy kengash nomi “Turkiy Davlatlar Tashkiloti” deya o‘zgartirildi [4]. Tashkilot bu nomni olganidan so‘ng G‘arb va Sharq matbuotida ko‘plab tahlil va baholashlar qilindi. Turk Davlatlari Tashkilotining o‘tmishi, buguni va kelajagini umumiy holatda hisoblab, birlashtirgan holatda Xitoy nashrlari Turk Davlatlari Tashkiloti (TDT) tahlilini o‘tkazishdi. Ushbu tahlilda TDT jahon geosiyosatining markazida o‘sib borayotgan kuch ekanligi ta’kidlangan. Boshqa davlatlarning ushbu tashkilotga nisbatan istiqbollari ham muhokama qilingan [5]. Bunday tahlil o‘tgan 2 yilda o‘nlab amalga oshirilganini kuzatish mumkin.

Turkiy Davlatlar Tashkiloti nomiga o‘zgarish va ilk sammit endi bo‘lib o‘tganiga qaramay, ildizlar birligi tufayli rishtalar bugun jiddiy bog‘landi. XX asr 90-yillaridan beri Turkiylar birligi nomidan ko‘p qadamlar tashlandi. Natijada, siyosiy va xalqaro miqyosda Turkiy Davlatlar Tashkiloti ittifoq asnosida tuzildi hamda bu tashkilot olishi mumkin bo‘lgan eng munosib nomdir [6]. Ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ilmiy-madaniy va harbiy nuqtayi nazardan, Tashkilotga a’zo va kuzatuvchi davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikni yuqori darajaga ko‘tarish borasidagi ishlar boshlab yuborilgan. Yevropa Ittifoqiga o‘xshash tuzilma va kelishuvlar mavjud bo‘lgan holatlar oldinga o‘ringa chiqishi kerak.

Turkiya XXI asrdagi geosiyosiy jarayonlarda faollashib, o‘zi uchun yangi imkoniyatlar hosil qilishni ko‘zlagani bejiz emas. Ma’lumki, Usmoniylar davridan keyin Turkiya rahbariyati qanday tashqi siyosat olib borishidan qat’i nazar, hamisha Yaqin Sharq, Bolqon, Qora dengiz va O‘rta yer dengizidagi siyosiy voqeliklarga nisbatan e’tiborli bo‘lish bilan birga, bu hududlarda o‘z manfaatlarini himoyalab keldi. Markaziy Osiyoga kelsak, u Turkiya uchun nisbatan yangi yo‘nalish hisoblanadi. Garchi, hech qachon Usmoniylar imperiyasi tarkibiga kirmagan bo‘lsa-da, Markaziy Osiyo Turkiya bilan etnik, lisoniy va diniy-madaniy mushtarakligi tufayli alohida qiziqishga sabab bo‘lgan. Turkiya va boshqa turkiy davlatlar yangi mintaqalararo tuzilma tashkil qilish va shu orqali jahondagi kuchli davlatlar birligini vujudga keltirishni ko‘zlashgan edi. Va albatta, Saudiya Arabistoni, Eron, Rossiya va Yevropa Ittifoqi oldida kuchli obro‘ orttirish maqsadi ham bor bo‘lgan. Shu bois ham, Turkiya mustaqil Markaziy Osiyo davlatlarida faol tashqi siyosatni yo‘lga qo‘yishga intildi. Dastlabki yillarda uning mintaqadagi tashqi siyosatini Yevropa

Ittifoqi va AQSH qo‘llab-quvvatladi. Biroq 1991 – 1996-yillarda bu siyosat tizimli tashkil qilinmagani, ilgari surayotgan tashabbuslarining moliyaviy ta’minoti yo‘qligi, shuningdek, G‘arb davlatlari xavotirlanganidek, mintaqadagi musulmon davlatlar Eron yoki Saudiya Arabistoni ta’sirida emas, balki dunyoviylik tamoyillari asosida rivojlangani bois, Turkiyaning yangi turkiy tilli respublikalar shakllanishidagi ishtiroki pasaydi [7].

1996-yildan keyin Turkiya turkiy tilli respublikalar bilan munosabatni qayta tashkil qila boshladi. Endi bu siyosat real siyosiy vositalar va uzoq muddatli hisob-kitoblar bilan ta’minlangan edi. Munosabatlarning ikkinchi bosqichida panturkizm singari pafosli g‘oyalardan voz kechilgan bo‘lsa-da, mintaqa davlatlari bilan ko‘p qirrali munosabatlarni o‘ziga xos etno-lingvistik asosda rivojlantirish tamoyili saqlab qolindi. Buning yorqin isboti – turkiy tilli davlatlar Kengashining ta’sis etilganligidir.

Tarixan olib qaraganda, Turkiy Kengash 1991-yilda sobiq Sovet Ittifoqi parchalanishi natijasida forum sifatida “Turkiy tilli davlatlar rahbarlari” uchrashuvlari jarayoni orqali vujudga kelib, turkiyzabon davlatlar o‘rtasidagi aloqalarni eng yuqori darajada rivojlantirishni maqsad qilgan sammitlar 1992-2010 yillar orasida davom etdi va 10 marotaba sammitlar o‘tkazildi. Ushbu tashkilotga asos solinishidan avval, 1992-yilda Qozog‘istonning o‘sha paytdagi poytaxti bo‘lgan Olmaota shahrida “Birlashgan turkiylar tili va san’ati ma’muriyati”ga asos solingan va 1998-yilda Ozarbayjonning Boku shahrida “Turkiyzabon davlatlar parlament assambleyasi” tashkil qilingandi. Turkiy Kengashni tashkil etgan “Naxichevan kelishuvi” 2009-yilda Turkiya, Ozarbayjon, Qozog‘iston va Qirg‘iziston tomonidan aynan Naxichevanda imzolandi.

Turkiy Davlatlar Tashkiloti (o‘sha paytda Turkiy Kengash deb atalgan) turkiy tilli davlatlar rahbarlarining sammitlari jarayonidan kelib chiqadigan umumiy siyosiy irodani aks ettiradi. Bu jarayon 1992-yili Anqara shahrida bo‘lib o‘tgan Turkiy tilli davlatlar rahbarlarining birinchi sammitida boshlangan va unda mustaqillikka erishgan Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston, O‘zbekiston hamda Turkiya rahbarlari ishtirok etishgan [8]. Sammitlar jarayoni 1992-yilda Markaziy Osiyodagi Turkiy Respublikalar mustaqillikka erishganidan so‘ng boshlangan va 2010-yilgacha Turk Davlatlari Tashkiloti (sobiq Turkiy Kengash) Kotibiyati tashkil etilguniga qadar davom etgan. Aynan shu jarayon Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, O‘zbekiston, Turkiya va Turkmaniston prezidentlarining 10 ta sammit uchrashuvini o‘z ichiga oladi.

1992-yilgi sammit Turkiya mezbonligida Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, O‘zbekiston va Turkmaniston ishtirokida Anqarada bo‘lib o‘tdi. Sammit yakunida Anqara deklaratsiyasi imzolandi.

Turkiya Prezidenti Turgut O‘zal turkiy respublikalar o‘rtasida bojxona qonunchiligini uyg‘unlashtirish, shaxslar, tovarlar va xizmatlarning erkin harakatlanishiga imkon beruvchi erkin savdo tartibini o‘rnatish, qo‘shma sarmoya va taraqqiyot bankini tashkil etish, temir yo‘l, avtomobil va havo aloqalari hamda telekommunikatsiya imkoniyatlarini rivojlantirish, iqtisodiy masalalarda muvofiqlashtirish va hamkorlik imkoniyatlarini rivojlantirishga e’tibor qaratdi.

1994-yilgi sammit yana Turkiya mezbonligida, faqat bu safar Istanbul shahrida Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, O‘zbekiston va Turkmaniston davlat rahbarlari ishtirokida bo‘lib o‘tdi. Sammit yakunida Istanbul deklaratsiyasi imzolangan.

1995-yilgi sammit Qirg‘iziston mezbonligida Bishkek shahrida Ozarbayjon, Qozog‘iston, O‘zbekiston, Turkiya va Turkmaniston prezidentlari ishtirokida bo‘lib o‘tib, yakunda Bishkek deklaratsiyasi imzolangan.

1996-yilgi sammit O‘zbekiston mezbonligida Toshkentda Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkiya va Turkmaniston davlat rahbarlari ishtirokida o‘tkazilib, sammit yakunida Toshkent deklaratsiyasi imzolandi. Sammitda Doimiy Kotibiyat obyekti borasida kelishib olindi.

Ushbu Toshkent sammitida muntazam ravishda ko‘p tomonlama maslahatlashuvlar va texnik uchrashuvlar o‘tkazish zarurligi, shuningdek, qarorlarni izchil amalga oshirish zarurligi e’tirof etildi. Shunga ko‘ra Turkiy tilli davlatlar sammiti Kotibiyatini tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qilindi.

1998-yilgi sammit Qozog‘iston mezbonligida Astana shahrida Ozarbayjon, Qirg‘iziston, O‘zbekiston, Turkiya va Turkmaniston ishtirokida bo‘lib o‘tdi. Sammit yakunida Astana deklaratsiyasi imzolanib, doimiy kotibiyat Nizomi qabul qilindi.

Astana sammitida Kotibiyat nizomi qabul qilingan va 2000-yil Boku sammitida Turkiyada Doimiy kotibiyat tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qilingan. Biroq keyingi sammitlarda O‘zbekistonning pastroq darajada ishtirok etishi va Turkmanistonning ayrim masalalarda e’tiroz bildirishi tufayli Kotibiyatni tashkil etish bo‘yicha aniq qadamlar qo‘yilmadi.

2000-yilgi sammit Ozarbayjon mezbonligida Qozog‘iston, Qirg‘iziston, O‘zbekiston, Turkiya va Turkmaniston ishtirokida Boku shahrida bo‘lib o‘tdi. Sammit so‘ngida Boku deklaratsiyasi imzolangan. Deklaratsiyada qayd etilganidek, Turkiyada Doimiy kotibiyat tashkil etishga qaror qilindi.

2001-yilgi sammit Istanbulda Turkiya mezbonligida Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston davlat rahbarlari va O‘zbekiston Oliy Majlisi Spikeri ishtirokida bo‘lib o‘tgan. Sammit yakunida Istanbul deklaratsiyasi imzolandi. Qozog‘iston Prezidenti Nursulton Nazarboyev sammitlar jarayoni doirasida Oqsoqollar kengashini, shuningdek, Turkiy tilli davlatlar parlament assambleyasi tashkil etilishini taklif qildi. Qirg‘iziston Respublikasi Prezidenti Asqar Akayev sammitning doimiy kotibiyatini tashkil etishni taklif qildi.

2006-yilgi sammit besh yarim yildan so‘ng Turkiyaning tashabbuslari natijasida Turkiya mezbonligida Antaliya shahrida davlat rahbarlari qayta to‘planishdi. Qozog‘iston, Ozarbayjon va Qirg‘iziston prezidentlari darajasidagi sammitda Turkmaniston nomidan Anqaradagi mamlakat elchisi ishtirok etdi. O‘zbekiston sammitda ishtirok etmadi. Sammitda Qozog‘iston Prezidenti Nazarboyev 2001-yilda aytilgan tavsiyalarni takrorladi.

2009-yilgi sammit 2-3 oktabr kunlari Naxichevan shahrida Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyev mezbonligida bo‘lib o‘tdi. Sammitda Turkiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston davlat rahbarlari ishtirok etishdi. O‘zbekiston yana ishtirok etmagan ushbu sammitda Turkmanistondan mamlakat vitse-prezidenti ishtirok etgan.

Mazkur sammit chog‘ida Turkiya, Ozarbayjon, Qozog‘iston va Qirg‘iziston o‘rtasida Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashini tashkil etish bo‘yicha Naxichevan kelishuvi imzolandi. Turkiya, Qozog‘iston va Ozarbayjon tomonidan ratifikatsiya qilingan Bitim 2010-yil 17-noyabrda kuchga kirdi. Bu davrda Turkmaniston Bitim tarafdori bo‘lmagan.

2010-yilgi sammit 15 – 16-sentabr kunlari Istanbulda Turkiya mezbonligida bo‘lib o‘tdi. Sammitda Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Turkmaniston prezidentlari ishtirok etgan. O‘zbekiston bu safar ham sammitda ishtirok etmagan. Yuqorida qayd etilgan sammitda Naxichevan kelishuvi bilan tashkil etilishiga qaror qilingan va tarkibiga Davlat rahbarlari kengashi, Tashqi ishlar vazirlari kengashi, Oliy mansabdor shaxslar qo‘mitasi, Oqsoqollar qo‘mitasi va Kotibiyati kirgan hamda rasman amaliyotga joriy etilgan.

Naxichevan sammitida Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashini tashkil etish to‘g‘risidagi Naxichevan kelishuvi imzolangan va 2010-yil noyabr oyida kuchga kirgan [9]. Shuningdek, Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashining 2010-yilda Istanbul shahrida bo‘lib o‘tgan 10-sammitida ham u kuchga kirdi va Turkiya elchisi Halil Akinji Prezidentlar tomonidan qarorgohi Istanbulda joylashgan Kotibiyatning Bosh kotibi etib tayinlandi.

2010-yil 23-25-noyabr kunlari Anqara shahrida Turkiy Kengash Oliy mansabdor shaxslar qo‘mitasining 1-yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi, unda Turkiy Hamkorlik Kengashi Kotibiyati Nizomi, Oqsoqollar Kengashi Nizomi va Moliyaviy tamoyillar to‘g‘risidagi Bitim hamda byudjetga oid masalalar muhokama qilingan. Hamkorlik kengashining kotibiyati faoliyatiga ham baho berilgan.

Turkiy Kengash Kotibiyati tuzilgach, 2011-yilda Almati; 2012-yilda Bishkek; 2013-yilda Gebele; 2014-yilda Bodrum; 2015-yilda Astana; 2018-yilda Cho‘lpon-Ota; 2019-yilda Boku; 2021-yilda Istanbul va 2022-yilda Samarqandda jami 9 ta Sammit o‘tkazildi. Davlat rahbarlari 2020-yil aprel oyida navbatdan tashqari sammitda va 2021-yil mart oyida norasmiy Turkiston [10] sammitida onlayn tarzda uchrashgan. Shu qatorda, davlat rahbarlari 2023-yil mart oyida Anqarada [11] bo‘lib o‘tgan 2-favqulodda sammitda ham to‘planishgan edi.

Tashkilot tashkil etilganidan buyon Olmaota, Bishkek, Gebeli, Bodrum, Astana, Cho‘lpon-Ota, Boku, Istanbul va Samarqandda to‘qqizta sammit o‘tkazildi. Har yili o‘tkaziladigan ushbu yirik tadbir a’zo davlatlar prezidentlari, tashqi ishlar vazirlari va tegishli ravishda boshqa vazirlar ishtirokida chaqiriladi.

2010-yilning 15 – 16-sentabr kunlari Istanbulda bo‘lib o‘tgan Turkiy tilli mamlakatlar Davlat rahbarlarining 10-sammitidan so‘ng “Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi” rasman va oddiygina aytganda “Turkiy kengash” nomi bilan qayta tashkil etildi [12]. Ushbu qayta nomlanish Tashkilot asoslarida hech bir jiddiy o‘zgarishni yuzaga keltirmas va qaytaga, yanada taraqqiylashuv manbalari ko‘payishiga turtki beradigan jarayon bo‘ldi.

Turkiy kengashning 2018-yilda o‘tkazilgan 6-sammitida Vengriya kuzatuvchi a’zo sifatida Tashkilotga qabul qilingan edi [13]. 2019-yil Bokuda bo‘lib o‘tgan 7-sammitda esa turkiy dunyoni bir butun qilgan holda O‘zbekiston Kengashning to‘laqonli a’zosiga aylandi. Bugungi kunda Shimoliy Qibris Turk Respublikasining ham Tashkilot kuzatuvchisi maqomini olishi borasidagi ishlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonlar 2019-yilga qadar davom etgan o‘zaro hamkorlik aloqalarining yangi davrini boshlab berdi. Boshlanganda ham shiddatli tarzda o‘sish, har tomonlama aloqalarning mustahkamlanishi, Turkiy dunyoning azaliy birligini qayta tiklanishi (2021-yilgi Istanbul sammitida O‘zbekiston Prezidenti Turkmanistonga Turkiy Davlatlar Tashkilotining kuzatuvchisi maqomi berilganligini qo‘llab-quvvatladi) sifatida jahon hamjamiyati ko‘z o‘ngida tashkilotning nufuzini oshirdi [14]. Turkmaniston Xalq maslahati raisi Gurbanguli Berdimuhamedov Turkiy Davlatlar Tashkilotining 2023-yil martida Anqara shahrida bo‘lib o‘tgan navbatdan tashqari sammitida Turkmaniston tez orada Turkiy Davlatlar Tashkilotiga to‘laqonli a’zo bo‘lishini aytib, tashkilotga a’zo va kuzatuvchi davlatlar rahbarlarini Ashxobodga taklif qilgani ham ahamiyatli voqea sifatida tarixga muhrlandi [15].

“Agar qonunchiligimiz takomillashtirilsa, Turkmaniston turkiy oila qatoriga qo‘shilishi mumkinligiga ishonaman”, – deya ta’kidladi sobiq prezident. Neytralitet sababidan Turkmaniston hech bir tashkilotning rasmiy a’zosi emas va barcha sammitlarning faxriy mehmoni sifatida qatnashadi. Agarda haqiqatdan qonunlarga o‘zgartirish kiritilsa, unda TDTning rasmiy a’zolari soni bittaga ko‘payadi. XXI asrning 2-dekadasi tom ma’noda Turkiy dunyo uchun foydali va ma’lum ma’noda yangi bosqichga ko‘tarilganlik belgisiga aylandi.

Turkiy dunyoni birlashtirish bosh maqsadi bo‘lgan tashkilotning rasmiy tasdiqlangan bayrog‘i ham qadim an’analar ta’sirida, mamlakatlarning milliyligi va ramzlari ifodasi asosida bunyod qilingan. Tashkilotga a’zo turkiy davlatlarining davlat bayroqlaridagi elementlar tanlanib, birlashtirilgan va umumlashtirilgan holda yangi umumturkiy bayroqni vujudga keltirishdi. 2012-yil 22-avgust kuni Qirg‘izistonning Bishkek shahrida bo‘lib o‘tgan Kengashning 2-sammiti doirasida, Tashqi ishlar vazirlari kengashining 2-yig‘ilishi oldidan o‘tkazilgan matbuot anjumanida Turkiy Kengashning logotipi va bayrog‘i jamoatchilikka taqdim etildi.

Logotip va bayroqda a’zo davlatlarning davlat bayroqlaridan ma’lum bir elementlar mavjud bo‘lib, shunga ko‘ra, Turkiy Davlatlari Tashkilotining logotipi va bayrog‘i o‘zaro uyg‘unlik asosida yaratilishi maqsad qilingan edi.

Bayroqda Ozarbayjon Respublikasi bayrog‘ining yulduzi, Qozog‘iston Respublikasi bayrog‘ining ko‘k rangi, Qirg‘iziston Respublikasi bayrog‘ining quyoshi va Turkiya Respublikasi bayrog‘ining yarim oyi birlikda tasvirlangan hamda ma’qullangan. Turkiy Davlatlar Tashkiloti bayrog‘i a’zo davlatlar bayroqlari bilan birgalikda 2012-yil 12-oktabr kuni Istanbul shahrida, Qozog‘iston Respublikasining asoschisi sanaladigan Nursulton Nazarboyev va Turkiya Respublikasining o‘sha paytdagi, 11-prezidenti bo‘lgan Abdulla Gul tomonidan tantanali ravishda bayroq ustuniga ko‘tarildi.

Har bir yirik va kichik darajali tashkilotlarda bo‘lgani kabi TDTning ham har yillik raislik davri bor. Turkiy Davlatlar Tashkilotiga raislik a’zo davlat tomonidan (ingliz tilida alifbo tartibida belgilanadi) bir kalendar yili davomida amalga oshiriladi. Raislik vazifasini zimmasiga olgan mamlakat Prezidenti Turkiy Davlatlar Tashkilotining bir yillik barcha tadbirlarini tashkillashtirishda bosh bo‘ladi. Tashkilotning amaldagi raisligi 2021-yilning noyabr oyida Turkiyada bo‘lib o‘tgan Istanbul sammitida Ozarbayjon Respublikasidan Turkiya Respublikasiga

o‘tgandi va Turkiya tomonidan 2022-yilda O‘zbekistonda bo‘lib o‘tgan navbatdagi sammitgacha davom etdi. Tashkilotning amaldagi raisligi 2022-yil noyabr oyida Samarqandda bo‘lib o‘tgan sammitda Turkiya Respublikasidan O‘zbekiston Respublikasiga o‘tdi va 2023-yilda Qozog‘istonda bo‘lib o‘tadigan navbatdagi sammitga qadar O‘zbekiston tomonidan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi hozirda Tashkilotning raisi hisoblanadi.

Tashkilot raisidan tashqari bosh kotib lavozimi ham mavjud bo‘lib, uning vazifalari raislikdan ko‘ra ko‘proq. “Naxichevan kelishuvi” yakunlariga ko‘ra yangilangan tashkilotning ilk bosh kotibi Turkiyalik Halil Akinji bo‘ldi. U 2009 – 2014-yillar davomida ushbu lavozimda faoliyat ko‘rsatgan. Akinjidan keyin Ozarbayjonlik Ramil Hasanov 2014 – 2018-yillarda bosh kotiblikda ishladi. 2018-yilning 3-sentabr kuni Cho‘lponota shahrida bo‘lib o‘tgan Turkiy Kengashning 6-sammitida Qozog‘istonlik Bag‘dod Amreyev Davlat rahbarlari kengashi tomonidan 3 yillik muddatga Turkiy Davlatlar Tashkiloti Kotibiyati Bosh kotibi etib tayinlangandi.[16] Istisno tarzida Amreyevning vakolat muddati Davlat rahbarlari kengashi tomonidan 2021-yil noyabrida 1 yilga, qo‘shimcha muddatga uzaytirilgan edi. 2022-yilning noyabrida bo‘lib o‘tgan Samarqand sammitidan so‘ng yangi bosh kotib – Qirg‘izistonlik Kubanichbek Omuraliyev bosh kotibga aylandi. Agarda ketma-ketlik shu ko‘rinishda davom etsa, navbatdagi bosh kotib O‘zbekiston vakili bo‘lishiga hech bir shubha yo‘q.

2021-yilgi Istanbul sammiti Turkiy tilli davlatlari hamkorlik kengashining so‘nggi yig‘ilishi sifatida hamda Turkiy Davlatlar Tashkilotining rasman tuzilganligi bilan tarixda qoldi. Yana bir muhim ta’kid – Afg‘oniston bo‘ldi. O‘zbekiston Prezidenti tomonidan O‘zbekiston va Turkmanistonga bevosita chegaradosh bo‘lgan, Turkiy tilli davlatlar bilan tarixan yaqin bo‘lgan mamlakatning bugungi og‘ir ahvoliga to‘xtalib o‘tib, uning gumanitar inqirozga tushishidan, xalqaro maydonda yakkalanib terroristik o‘choqqa aylanib qolmasligi, hamda Turkiy Davlatlar Tashkiloti a’zolari ushbu mamlakat hukumati bilan yakdil muloqotda bo‘lishiga chaqirdi.

Jahon mamlakatlarida siyosiy-iqtisodiy, madaniy-ijtimoiy jabhalarda integratsiya va globallashuv jarayonlari kuchayib borayotgan bir davrda dunyo mamlakatlarining asosiy rivojlanish tendensiya hamda yo‘nalishlarini aniqlab olish muhim ahamiyat kasb etadi. Jahon siyosati va iqtisodiyotida integratsion jarayonlarning rivojlanish alomatlari o‘zgarib borayotgan bir davrda TDTning jahon hamjamiyatiga chuqur integratsiyalashib, qator mamlakatlar bilan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalardagi munosabatlarni tobora kengaytirib borish harakati jadallashdi.

Bugungi kunda Turkiy Davlatlar Tashkiloti a’zolarining o‘zaro hamkorlik aloqalari ham yuqori bosqichli rivojlanishga o‘tdi. Ushbu tashkilotning barcha a’zo davlatlari o‘zaro qardosh xalqlar sifatida azaliy do‘stlik aloqalarini yanada yuqori pog‘onaga ko‘tarish strategiyalari mintaqa va jahonda tinchlik, barqarorlik hamda hamkorlikni ta’minlash yo‘lida muhim ahamiyat kasb etishini dunyo afkor ommasiga namoyon etib kelmoqdalar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dr. Ramazan Şeşen. İslam coğrafyacılarına göre türkler ve türk ülkeleri. Türk kültürünü araştırma enstitüsü yayınları: 157. Serı: VII. Sayı: A.8. Ankara – 1998. S. 22.
2. Suat İlhan. Türkiye’nin ve Türk dünyasının jeopolitiği. Türk kültürünü araştırma enstitüsü yayınları: 153. Serı: VIII. Sayı: A.2. Ankara – 1997. S. 183-184.
3. Türk dünyası el kıtabı. Bırıncı cilt: Coğrafiya – tarih. Türk kültürünü araştırma esntitüsü yayınları:163, Seri: I, Sayı: A-32. Ankara – 2001. S. 845.
4. Cumhurbaşkanı Erdoğan: Konseyimizin adı artık Türk Devletleri Teşkilatı'dır. 12.11.2021. https://www.trthaber.com/haber/gundem/cumhurbaskani-erdogan-konseyimizin-adi-artik-turk-devletleri-teskilatidir-625584.html
5. Dünyanın yükselen gücü: Türk Devletleri Teşkilatı. 13.01.2022. https://www.trthaber.com/haber/dunya/dunyanin-yukselen-gucu-turk-devletleri-teskilati-644709.html

6. “Birileri kızacak diye Türk Devletleri Teşkilatı’ndan vazgeçecek değiliz”. 13.01.2022. https://www.trthaber.com/haber/dunya/dunyanin-yukselen-gucu-turk-devletleri-teskilati-644709.html
7. Туркий Кенгаш – туркий халқларни бирлаштирувчи платформа бўла оладими? 10.11.2020. https://www.uzanalytics.com/siyosat/8405/
8. Zirveler. https://www.turkicstates.org/tr/zirveler.
9. https://www.turkicstates.org/assets/pdf/temel_belgeler/Nahcivan_Anlasmasi_Turkce_20140417_193951.pdf.
10. TÜRK DİLİ KONUŞAN ÜLKELER İŞBİRLİĞİ KONSEYİ TÜRKİSTAN GAYRİRESMİ ZİRVESİ BİLDİRİSİ. 31.03.2021. https://www.turkicstates.org/assets/pdf/temel_belgeler/gayri-resmi-turkistan-zirve-bildirisi-2021-18-tr.pdf
11. TÜRK DEVLETLERİ TEŞKİLATI OLAĞANÜSTÜ ZİRVESİ ANKARA BİLDİRİSİ. 16.03.2023. https://www.turkicstates.org/assets/pdf/temel_belgeler/2-olaganustu-zirve-ankara-bidirisi-2023-20-tr.pdf.
12. Назарова Г., Халилов Х. ва бошқ. Халқаро иқтисодий интеграция. Тошкент: Тафаккур, 2010. С. 91.
13. Macaristan Büyükelçisi Matis: Türk kökenli olduğumuz net bir şekilde ifade edildi. 19.02.2021. https://www.trthaber.com/haber/dunya/macaristan-buyukelcisi-matis-turk-kokenli-oldugumuz-net-bir-sekilde-ifade-edildi-557788.html
14. Special Edition of World of Diplomacy Journal of the Ministry of Foreign Affairs of Azerbaijan dedicated to the Turkic Council. Baku – 2021. P. 42.
15. Gurbanguli Berdimuhamedov Erdog‘anni Nobel mukofotiga ko‘rsatishni taklif qildi. 17.03.2023. https://xabardor.uz/uz/post/gurbanguli-berdimuhamedov-erdoganni-nobel-mukofotiga-korsatishni-taklif-qildi.
16. SPECIAL PUBLICATION – Turkic Council: 10th Anniversary of the Nakhchivan Agreement. Baku – 2019. P. 66

O‘RTA OSIYODAGI MADRASALAR TARIXIDAN

Tamara NURIDINOVA
O‘zbekiston davlat san’at muzeyi,
t.f.n., katta ilmiy xodim.
Faxriddin ERNAZAROV
Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti
katta o‘qituvchisi
Yorqin NURMATOV
Oriental universiteti,
katta o‘qituvchi

Annotatsiya: Maqolada O‘rta Osiyodagi madrasalar tarixi o‘rganiladi. Buxoro, Samarqand, Toshkent, Xiva, Qo‘qon madrasalari nafaqat O‘rta Osiyoda, balki musulmon olamida ham ilm manbai bo‘lgan.

Kalit so‘zlar: *madrasa, ta’lim, arab tili, fors tili, olim, o‘qigan yili, ilmiy va diniy bilimlar.*

Аннотация: В статье рассмотрена истории медресе Центральной Азии. Медресе Бухары, Самарканда, Ташкента, Хивы и Коканда были источником знаний не только в Средней Азии, но и в мусульманском мире.

Ключевые слова: *медресе, обучение, арабский язык, персидский язык, ученый, учебный год, научные и религиозные знания.*

Annotation: In this article the history of madrassahs of Central Asia are studied. The madrassahs of Bukhara, Samarkand, Tashkent, Khiva and Kokand were the source of knowledge not only in Central Asia, but also in the Muslim world.

Key words: *a madrassah, education, Arabic language, Persian language, scholar, scientific and religious knowledge, the year of study.*

Milliy qadriyatlarimiz, ma’naviy boy merosimizni tiklash va ularni o‘rganish, uning mazmuni, mohiyati va ahamiyatini xalqimizga targ‘ib etish, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Abu Mansur Moturidiy, Burxoniddin Marg‘inoniy, Bahouddin Naqshbandiy, Mahmud Zamaxshariy va yurtimizda yetishib chiqqan boshqa buyuk allomalar merosini o‘rganish, yuksak insoniy g‘oyalar va muqaddas qadriyatlarimizni o‘zida saqlagan manbalar ustida ijod etish, ulardan diniy ta’lim, ma’naviy-axloqiy tarbiya ishlarida foydalanish, diniy xodimlarning malakasi, bilim va tajribasini rivojlantirish bo‘yicha o‘quv-uslubiy ishlarni amalga oshirish, yosh avlodning ruhiy va ma’naviy olamini boyitish, qadimiy milliy qadriyatlarimizni saqlash, ulug‘lash, faxrlanish va Vatanimiz tarixi zarvaraqlariga oltin harflar bilan yozilgan nodir qo‘lyozmalarni kelajak avlodlarga yetkazish va ular qalbida bobolarimiz qoldirgan merosga hurmat, e’zoz, muhabbatni shakllantirish, diyorimizning Buxoro, Toshkent, Samarqand, Urganch, Axsikent, Xiva, Marg‘ilon va boshqa shaharlardagi ma’rifat maskanlaridagi madrasalar va hozirgi kunda yurtimiz O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan madrasalar haqida tolibi ilmlarga kerakli ma’lumotlar berib borish bugungi kunning eng dolzarb mavzusidir.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti muhtaram Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek: “Bizning qanday buyuk va shonli o‘tmishimiz, qanday ulug‘ ajdodlarimiz borligini yaxshi bilamiz va bu bilan hamisha faxrlanamiz. Biz ham yurtimizni, uning o‘ziga xos tarixi, madaniyati, ulug‘ olim-u ulamolarini, bebaho ma’naviy merosimizni to‘liq o‘rganganimiz yo‘q”[1].

Qadim zamonlarda ajdodlarimizdan yirik ilm shaydolari, ulamolar, imomlar, qozilar va eshonlar yetishib chiqqan. Ular qoldirgan yaxshi nom va ma’naviy-ma’rifiy meros avloddan avlodga o‘tib xalqimiz xotirasidan o‘chmay kelmoqda, ayrimlari esa hozirgi kungacha o‘z

faoliyatini tiklab, jamiyatimizdagi ilm-fan rivojiga o‘z hissasini qo‘shib kelayotgan madrasalardir. Ular Yaqin va O‘rta Sharq davlatlarida alohida nufuzga ega bo‘lgan o‘quv maskanlari hisoblanadi. Madrasa arabcha “darasa” (“o‘rganmoq”) so‘zidan olingan bo‘lib, “o‘rganadigan joy” degan ma’noni anglatadi.

Movarounnahrga islom dini kirib kelishi bilan diniy ta’lim va u bilan bog‘liq ilmlar ham rivojlana boshladi. Ma’naviyatda hurfikrlilik, ilm-fanga e’tibor va uning qadrini yuksak baholash rivojlanib bordi. Shu davrdan hududlarda maktablar va madrasalar paydo bo‘la boshladi. Ammo madrasalarning aniq paydo bo‘lgan vaqti noma’lum. Lekin IX-XII asrlarda islom dinidagi mamlakatlarda, jumladan O‘rta Osiyoda madrasalar faoliyat olib borgan. Tarixchi Narshaxiyning yozishicha, 937 yilgi yong‘indan zararlangan “Farjak” madrasasi Markaziy Osiyodagi ilk madrasalardandir. Ammo, K.Katayevning fikricha, Imom Moturidiy va Abulqosim Hakim Samarqandagi qadimiy Raboti G‘oziyon madrasasida mudarris bo‘lgan Muhammad ibn Fazl Balhiydan (vaf. 931) dars olganlar. Ammo Abu Hafs Kabir Buxoriy (150-216/217hij., 768-832 mil. yy.) ham Buxoroda ilmiy va diniy bilimlarning rivojlanishiga hissa qo‘shgani ushbu madrasa ham boshqa madrasalar bilan bir vaqtda yoki ulardan ham qadimiyroq ekanligini anglatadi. [2].

XVII asrda yashab o‘tgan Mahmud ibn Vali “Buxoroni olimlarning ko‘pligidan, uni olimlar va ilm-fan bulog‘i deb ataydilar”[3]. Rus sayyohi N.Xanikov o‘z esdaliklarida Buxoroni yirik ilm-fan va ma’rifat, diniy bilimlar markazi sifatida ta’riflaydi. O‘rta asrlarda Buxoro madrasalari ilm maskani sifatida Markaziy Osiyodagina emas, balki musulmonlar sharqida ham mashhur bo‘lgan.

Amir Temur va temuriylar davrida madrasalar oliy ma’lumot beruvchi markaz vazifasini o‘tagan. Madrasalar Movarounnahr va Xurosonda davlat va boylarning mablag‘lari hisobiga qurilgan. Madrasalar soni ko‘payib, oliy o‘quv dargohi sifatida diniy soha vakillari, siyosiy arboblar va olimlarni tayyorlovchi oliy o‘quv yurtiga aylana boshlagan.

O‘rta Osiyo madrasalarining turlari ko‘p bo‘lgan, jumladan, xon madrasalari, eshon madrasalari, xususiy madrasalar va boshqalar bo‘lgan. Madrasa muassislari madrasani ta’minlash uchun maxsus vaqf ajratgan va bu mulkni boshqaruvchi mutavallini tayinlashgan. Madrasalarning vaqf daromadlaridan bir qismi vaqf mulkini saqlab turish, madrasa binosini ta’mirlash uchun ajratilgan, ma’lum qismi mutavalli, mudarrislar, talabalar, masjid imomi, muazzin, sartarosh, farrosh va boshqa xizmatchilarga berilgan. Madrasalarga bolalar maktabda savod chiqargandan so‘ng, biror bir mutaxassislikni egallash uchun kirganlar. Talabalar odatda o‘ndan qirq yoshgacha bo‘lgan. Ular madrasa yotoqxonalarida yashash huquqiga ega bo‘lgan. Talabalar kunduzgi bo‘lim darslariga erkin qatnovchi va sirtqi bo‘lim toifalariga ajratilgan.

Madrasa o‘quv dasturining umumiy jihatlari X-XII asrlarda ishlab chiqilgan va so‘ng takomillashtirib borilgan. Mashg‘ulotlar sentyabr oyidan boshlanib, martgacha davom etgan. Yoz oylarida va ramazon oyida ta’tilga chiqilgan. O‘rta Osiyoni Rossiya imperiyasi bosib olgach, ta’lim tizimida maktab va madrasalar faoliyati davom ettiriladi, chunki mahalliy aholining manfaatlariga zid bo‘lgan mustamlakachilik qoidalarini birdan joriy qilinishi mahalliy aholini qarshiligiga olib kelishini Rossiya imperiyasi yaxshi bilar edi.

Madrasalarda shanba, yakshanba, dushanba va seshanba kunlari darslar o‘tilgan. Chorshanba, payshanba va juma kunlari ta’til kunlari sanalgan. Darslar bomdod namozdan keyin boshlangan. Madrasada ta’lim uch bosqichda: boshlang‘ich (adno), o‘rta (avsat) va yuqori (a’lo) guruhlarda olib borilgan. Adno bosqichi “Aqoid” kitobini o‘qishga o‘tguncha davom etgan, avsat bosqichi “Aqoid” kitobini o‘qishdan boshlanib, “Sharhi mulla” kitobini o‘rganguncha davom etgan va undan keyingi murakkab qo‘llanmalarni o‘rganuvchilar a’lo bosqich talabalari hisoblangan. Madrasada o‘qish talabalarning iqtidoriga qarab, o‘rtacha 7-12 yil davom etgan. Madrasani bitirganlar turli lavozimlarda ishlagan va ziyolilar qatlamini tashkil qilgan.

O‘rta Osiyo madrasalarida kitoblar arab va fors tilida bo‘lgan hamda ular talabalarga mudarris tomonidan turkiy tildagi o‘quv qo‘llanmasini o‘zlashtirishi bilan boshlangan. Keyinroq o‘rta asrlarning ilmiy tili hisoblangan arab tili grammatikasi o‘qitilgan. Arab tili grammatikasidan keyin o‘quv kursi ikki bo‘limga: umumta’lim kursi – mashg‘ulot va fiqh kursi-masala bo‘limlariga ajratilgan. Madrasalarda fiqh kursining faroiz-meros huquqi qismi bilan birga matematika fani

ham majburiy o‘quv kursiga kiritilgan. Talabalar o‘z xohish-istaklari va qobiliyatlariga qarab mushkulot yoki masala bo‘limlaridan birini, agar xohlasalar har ikki bo‘limini o‘qib tamomlashlari mumkin bo‘lgan. Madrasalarda to‘liq kursni tamomlashga talabalardan falsafa va huquq fanlariga oid taxminan 137 ta darslik-qo‘llanmani o‘zlashtirish talab etilgan. Bu darsliklarning ko‘pi Imom Buxoriy va Iso Termiziylarning hadis to‘plamlari, Abu Mansur Moturidiyning “Kitob at-tavhid”, Burhoniddin Marg‘iloniyning “Al-hidoya fi sharh al-bidoya”, Umar Qazviniyning “Ar-risola ash-shamsiya fil kavoid al-mantiqiya”, Abdurahmon Jomiyning “Al-favoid ad-diyoiya”, Mahmud ibn Ahmad Mahbubiyning “Viqoyat ar-rivoya fi masoil”, Ubaydulloh ibn Mas’ud Mahbubiyning “An - nuqoya” kabi asarlari tashkil etgan.

Madrasalarda talabalarning qiziqishlari va mudarrislarining mavjudligiga qarab, falakiyot, handasa, tibbiyot, kimyo, jug‘rofiya, tarix, adabiyot, aruz ilmi, me’morlik asoslari, xattotlik, musiqa, axloq va notiqlik kabi fanlar ham o‘qitilgan.

O‘rta Osiyoning Samarqand, Buxoro, Toshkent, Qo‘qon va Xiva shaharlarining madrasalari ta’lim tizimining bir- biridan farq qilishi bilan ajralib turgan. Samarqand O‘rta Osiyoning yirik ilm-fan va ma’rifat markazlaridan bo‘lgan, ammo ularning birortasi ham saqlanmagan. Temuriylar davrida qurilgan madrasalar ham hozirgacha saqlanib, o‘z ko‘rkini yo‘qotmagan, chunki Amir Temur Samarqandni poytaxt sifatida tanlangan va har jihatdan namunali bo‘lishiga alohida e’tibor bergan. Bu hol ta’lim tizimi muassasalaridan bo‘lmish madrasa va madrasai oliyalarni ko‘rish, ularni yetuk alloma mudarrislar bilan ta’minlash ishida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. O‘sha davrda Amir Temurning amirlaridan Idigu Temur, Shohmalik, Firuzshohlar hamda Bibixonim va nabiralari Muhammad Sultonlar tomonidan qator madrasalar va madrasai oliyalar qurilgan (hozirgi kunda ular saqlanmagan).

Amir Temur boshlagan bu faoliyatni nabiralari Mirzo Ulug‘bek keng ko‘lamda rivojlantirib, jahonga mashhur ilmiy kashfiyotlarni maydonga keltirgan madrasai oliyalar va rasadxona majmuasini bunyod etgan. Ulug‘bek madrasasi 1424-yilda qurilgan. Madrasaning imorati bitgandan keyin Ulug‘bek Mirzo u yerda Qozizoda Rumiyni mudarrislikka belgiladi. Ba’zi vaqtlarda Mirzo Ulug‘bekning o‘zi ham dars o‘tgan.

Madrasai oliyani bitirganlarga dars o‘tish uchun ijozatnoma-diplomlar berilgan. Ana shunday diplomlarning biriga Qozizoda Rumiy imzo qo‘ygan. Bu tarixiy hujjat hozirgi kunda O‘zFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanadi. Mazkur ijozaning o‘zbek tiliga o‘girilgan matni akademik Bo‘riboy Axmedov tomonidan “Ulug‘bek” essesida nashr etilgan [4].

Samarqand madrasalarida xorijiy yurtlardan kelgan ilmga tashna toliblarni ko‘plab uchratish mumkin edi. Bu holatni turli asrlarga oid ma’lumotlar orqali kuzatish mumkin. Jumladan, XVI asrda yashagan olim Zayniddin Vosifiy 1504-yili Samarqandda sodir bo‘lgan qahraton qish voqealari bayonida o‘nta xurosonlik talaba haqida ma’lumot beradi.

Buxoro ham O‘rta Osiyoning yirik ilm-fan va ma’rifat, diniy bilimlar markazi sifatida mashhur bo‘lgan. Rus sayyohi N.Xanikov o‘z esdaliklarida “Buxoro ilm tarqatuvchi markaz hisoblangan va hisoblanadi”, -deb aytgan edi. Buxoroning diniy maktablarida 7 yildan to 20 yilgacha xat-savod chiqarganlar va undan keyin xohishlariga qarab madrasaga borib o‘qiganlar. Talabalar madrasada 20 yil bo‘lib, yiliga 6 oydan o‘qiganlar va qolgan 6 oy davomida qishloqlarga borib, imomlik qilib, pul topganlar. Talabalar tahsilning birinchi va ikkinchi yillarida o‘qilishi lozim bo‘lgan kitoblardan dars boshlamoq uchun, har kim qurbi yetgancha, masalan, 20 tangadan 500 tangagacha pul to‘plab, muallimga yetkazganlar.

Madrasadagi birinchi darajali oxund 25 ming tanga maosh olgan, agar u yaxshi olim bo‘lsa, yana 10 ming tanga maosh olgan. Madrasa mudarrisi sharafli kasb bo‘lib, uni amir yoki qozikalon tayinlagan.

Buxoro madrasalarida talabalar 20 yil tahsil olganlar.

Birinchi yili - “Avvali ilm”, “Bidon”.

Ikkinchi yili – “Mo‘ziy Zanjoniy”.

Uchinchi yili – “Kofiya”.

To‘rtinchi yili – “Sharhi Jomiy”dan “Al-marfu’ot”.

Beshinchi yili – “Al-majrurot”.
Oltinchi yili - “Al-mansubot”.
Yettinchi yili – “Al-mabniyyot”.
Sakkizinchi yili – “Hamd” va “Bahsi ism”.
To‘qqizinchi yili – “Qutbiy” hoshiyasi hamda “Va rot-tabtuhu ala muqaddima”.
O‘ninchi yili – “Hamdi aqoid”.
O‘n birinchi yili – “Ba’d”, “Aqoid” dan.
O‘n ikkinchi yili – “Samava”, ”Aqoid” dan.
O‘n uchinchi – “Haqoyiq ul-ashya”, “Aqoid”dan.
O‘n to‘rtinchi yili – “Hamdi tahzib”.
O‘n beshinchi yili – “Ta’rifi ilm”, “Tahzib”dan.
O‘n oltinchi yili – “Hikmat ul-ayn”dan “Al-hikmatu istikmal un -nafsi”.
O‘n yettinchi yili - “Hikmat ul-ayn” dan “Al-vujudi badihiyun”.
O‘n sakkizinchi yili – “Mulla Jalol” dan “Yaman vaffaqana”.
O‘n to‘qqizinchi yili – “Mulla Jalol” dan “Sataftariqu”.

O‘n to‘qqizinchi yili oxirida “Sahih Buxoriy” dan, “Innamal-amalu bin niyyat” ni, “Tafsiri Bayzoviy”dan “Muavvazatayn” o‘qilib, xatmi tahsil qilinadi.

Buxoro madrasalarida ayollar o‘qimaganlar. Tahsil 37 yoshda tamom bo‘lgan. Buxoroda 200 ga yaqin madrasa bo‘lib, ular 3 toifaga bo‘lingan: oliy, o‘rta, quyi.

Oliy toifaga quyidagilar kirgan:

Madrasalarning nomi va yillik vaqfi

1. Ko‘kaldosh, 150 000 tanga
2. Ja’farxo‘ja, 250 000 tanga
3. Jo‘ybor, 130 000 tanga
4. Miri Arab, 150 000 tanga
5. Muhammad Ali Hoji 150 000 tanga
6. Tursunjon, 140 000 tanga
7. Devonbegi, 150 000 tanga
8. Govkushon, 190 000 tanga
9. Abdulazizxon (ikki madrasa), 120 000 tanga
10. Mirzo Ulug‘bek, 60 000 tanga
11. Kalobod, 80 000 tanga
12. Xoja Porso, 50 000 tanga
13. Ibrohim Oxund, 40 000 tanga
14. Fathulloh Qushbegi, 80 000 tanga
15. Bibi Xalifa, 50 000 tanga
16. Xalifa Niyozqul, 55 000 tanga
17. Mulla Muhammad Sharif, 60 000 tanga
18. G‘aribiya, 40 000 tanga
19. Hiyobon, 60 000 tanga
20. Jo‘yborcha, 60 000 tanga
21. Abdulloh, 50 000 tanga
22. Modarixon, 40 000 tanga
23. Asiriy, 40 000 tanga
24. Xojanihol, 50 000 tanga
25. Shodimbiy, 40 000 tanga
26. Dorushshifo, 40 000 tanga
27. Chorbakr, 70 000 tanga
28. Badalbek, 40 000 tanga
29. Xoja Davlat, 120 000 tanga
30. Miskin, 60 000 tanga
31. Domullo Sher, 40 000 tanga

32. Do‘stchehra Okosi, 40 000 tanga
33. Naqib, 120 000 tanga
Jami: 2 815 000 tanga
O‘rta toifaga quyidagilar kiradi:
Madrasalarning nomi va yillik vaqfi
1. Hizr, 25 000 tanga
2. Afg‘on, 15 000 tanga
3. Rahmonqul, 30 000 tanga
4. O‘tkur Qushbegi, 25 000 tanga
5. Husanboy, 30 000 tanga
6. Olimjon, 20 000 tanga
7. Atoliq, 25 000 tanga
8. Ismoilxo‘ja, 30 000 tanga
9. Modari xoni xurd, 30 000 tanga
10. Rashid, 25 000 tanga
11. G‘oziyon, 25 000 tanga
12. G‘ariboni choq, 30 000 tanga
13. Chuchuk oyim, 25 000 tanga
14. Sharofatbonu, 30 000 tanga
15. Naqibi xurd, 25 000 tanga
16. Chubini kalon, 30 000 tanga
17. Boloi havz, 30 000 tanga
18. Mirjon Ali, 30 000 tanga
19. Askarbiy, 30 000 tanga
20. Sadrbiy, 25 000 tanga
21. Eski Badalbek, 25 000 tanga
22. Qo‘ng‘irot hofizi, 35 000 tanga
23. Iskandarxon, 35 000 tanga
24. Chorbaqqoliy, 22 000 tanga
25. Sartarosh, 30 000 tanga
26. Mirzo Fuzayl, 25 000 tanga
27. To‘pchiboshi, 20 000 tanga
28. Sayid Kamol, 22 000 tanga
29. Abdushukurboy, 20 000 tanga
30. Karbos, 24 000 tanga
31. Chuqur, 30 000 tanga
32. Qozi Latif, 18 000 tanga
33. Badriddin, 16 000 tanga
34. Pushayman, 22 000 tanga
35. Ernazar, 35 000 tanga
36. Domullo Hasan, 15 000 tanga
37. Eshoni pir, 16 000 tanga
38. Mirkamol, 14 000 tanga
39. Jo‘rabek, 12 000 tanga
Jami: 961 000 tanga

Quyi toifaga mansub madrasalar yuzdan ortiq bo‘lib, ularning vaqfi ming tangadan o‘n ming tangagachadir. Bu madrasalarning umumiy vaqf miqdori 500 ming tangaga yetadi. Buxoroda 300 ta maktab va 11 ta kutubxona bo‘lgan.

Kutubxonaning nomi va yillik vaqfi
1. Ja’farxo‘ja, 18 000 tanga
2. Govkushon, 5 000 tanga
3. Xojanihol, 8 000 tanga

4. Ko‘kaldosh, 1 000 tanga
5. Abdulazizxon, 2 000 tanga
6. Mirzo Ulug‘bek, 800 tanga
7. Badalbek, 800 tanga
8. Dor ush-shifo, 3 000 tanga
9. Bozori go‘sfand, 1 500 tanga
10. Boloi havz, 1 600 tang
11. Juybor, 1 400 tanga

Jami: 43 100 tanga.

XVI asrda yashagan Hasanxoja Nisoriyning ko‘rsatishicha, sayful-ulamo Kamoliddin Ibrohim Shirvoniy “Bir necha vaqt shaharlar faxri bo‘lgan” va uning yetuk shogirdlaridan barchasi mavlonolik darajasiga erishganlar. Buxoro madrasalari mana shunday buyuk mudarrislarni yetkazib beruvchi ilm o‘choqlari hisoblanadi.

XIX asrning 40 yillarida, N.Xanikovning yozishicha, Buxoroda amir ro‘yxatida ko‘rsatilgan 103 ta madrasa bo‘lgan va ulardan 60 tasi eng yirik madrasalar hisoblangan (Ko‘kaldosh, Ulug‘bek, Zargarlar, Xiyobon madrasalari va boshqalar).

XIX asrning 20-yillariga oid ma’lumotlarga ko‘ra, Buxoroda Rossiya fuqarolaridan 300 ga yaqin tatarlar, ularning 300 tasi islom asoslaridan ta’lim olish uchun Buxoroga kelganlar. Buxoroda XIX asrning oxirida 170 ta katta va kichik madrasalar bo‘lib, ularda 10 ming mullavachcha, mudarrislar, imomlar va ulamolar – amirning istagan harakati ustidan fatvo berishga haqli qonunshunos olimlar xizmat qilganlar. Madrasalar iqtisodiy jihatdan mustaqil bo‘lgan va ularning daromadi 5 million tanga beruvchi ulkan vaqf mulklariga ega edi. Undan tushgan foydadan mudarrislarga maosh va ilm toliblariga nafaqa (stipendiya) to‘langan. Mudarrislardan biri tushgan foydaning xarajatini nazorat qilgan. Madrasadagi har yilgi imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirgan din xizmatchisi umr bo‘yi beriladigan nafaqa (stipendiya)-dehak olar edi. Bunday maxsus nafaqa oluvchi talabalar soni o‘sha davrda 9 -10 mingga yetgan.

Toshkent Qo‘qon xonligining yirik markazlaridan biri bo‘lib, undagi madrasalar Movarounnahrdagina emas, hatto Sharq mamlakatlari uchun ham ilm-fan markazi bo‘lgan. Turli manbalarda Toshkent o‘quv muassasalari haqida o‘tkazilgan izlanishlar saqlangan.

Jumladan, A.P.Xoroshxin Toshkent o‘quv dargohlarining tarixi, o‘quv uslubi va darsliklari haqida ma’lumotlar bergan[5].

Shayxontohur yodgorlik majmuasiga katta darvoza orqali kirilgan. Darvozaxona 1892-yili toshkentlik mashhur ustaning o‘g‘li Abdurahim usta tomonidan pishiq g‘ishtdan qurilgan. Uning yonida bir qavatli Eshonqul dodhoh madrasasi bo‘lib, u hujralardan iborat bilim dargohi edi. Madrasada bir masjid va bir boshlang‘ich maktab bo‘lib, 70 nafar talaba o‘qigan. Bu yerda 1884-yilda rus tuzem maktabi, sho‘ro davrida kinostudiya joylashgan. Madrasa 1964-yili buzib tashlangan. Baroqxon madrasasi XVI asrning ikkinchi yarmida qurilgan. Dastlabki binoning burchagida kichik madrasa qad ko‘targan. 1530-yillarda Toshkent hokimi Suyunchxo‘jaxon madrasasi qurilgan va uning qo‘shqavat gumbazi bo‘lgan. Tashqi tomoni diniy muassasalar qatoriga davlatdan ajratilib, “xurofot o‘choqlari” tamg‘asi bilan tugatilgan.

O‘zbekiston Respublikasida ayrim madrasalar diniy ishlar bo‘yicha kadrlar tayyorlaydigan o‘rta va oliy diniy o‘quv yurtlari qatoriga kiritilgan.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistondagi jarayonlar tarixi bo‘yicha izlanishlar olib borgan Y.Abdullayev “Eski maktabda xat-savod o‘rganish” nomli asarida e’tiborini kommunistik mafkura ta’siri bilan o‘rganilayotgan davrdagi mahalliy maktab va madrasalarning “qoloq” holatiga qaratsa-da, davrning ta’lim dargohlari faoliyati haqida ham qiziqarli tafsilotlarni ulashadi. Muallif O‘rta Osiyoda Rossiya imperiyasi istilosidan avval ta’lim maktablari, madrasalar va qorixonalar bo‘lganligini yozadi [6]. A. Atayev “Madrasalar tarixiga bir nazar” nomli maqolasida O‘rta Osiyo madrasalariga tegishli ma’lumotlarni beradi [7]. Madrasalar G‘arb universitetlarining Sharqdagi ko‘rinishi hisoblanadi. Demak, madrasalar jamiyatga turli sohalar bo‘yicha mutaxassislarini yetkazib beruvchi ta’lim o‘chog‘i bo‘lgan va xalqimiz qadimdan ilm-ma’rifatni

egallash, ta’limning uzluksizligini ta’minlash, ajdodlardan qolgan an’anaviy ta’lim-tarbiya va fan yutuqlarini kelajak avlodga o‘rgatishda o‘ziga xos tajribaga ega bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Олий Мажлисга Мурожаатнома. 2018 йил.
2. Амирсаидхон Усмонхўжаев. Динимиз фидойилари (тарих, хотиралар, сабоқлар). – Тошкент, 2021. – Б.3.
3. Асророва Л.Қ. Бухоро мадрасалари тарихидан (Аҳмаджон ибн Исмоилхон мероси). “Бухоро амирлигида таълим тизими”. – Тошкент, - Б.2.
4. Хорошхин А. Очерки Ташкента /Туркестанский сборник. –Ташкент, 1876 . – С.116.
5. Тангиров О.Э. XIX аср охири - XX аср бошларида Тошкент шаҳрининг маҳаллий ўқув муассасалари тарихи. – Тошкент: Abu Matbuot-Consult, 2017 .
6. Атаев А. Мадрасалар тарихига бир назар // Мозийдан садо. –Тошкент, 2008. №3.
7. Абдуллаев Й. Эски мактабда хат савод ўргатиш. “Ўрта ва олий мактаб”, – Тошкент, 1960 .

IMLO QOIDALARINI TAKOMILLASHTIRISHGA DOIR

Shohruh ABDIRAIMOV
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta’limi kafedrasi dotsent v.b. ped.f.f.d.(PhD)
www.samshab@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada milliy alifbo islohoti bilan bog‘liq muammolari yoritilgan bo‘lib, kirill alifbosidagi ц harfining lotin alifbosida ifodalanishi, alifboga mustaqil harf sifatida kiritilishi haqidagi qarashlar aks etgan. Alifbo milliy fonetikaga asoslanishi ochib berilgan. Maqolada kuzatish, tekshirish, sintez qilish, umumlashtirish tadqiqot metodlaridan foydalanilgan.

Kalit so‘zlar. *Alifbo, milliy alifbo, milliy fonetika, s(ц) harfi, talaffuz va imlo, kirill alifbosi, lotin alifbosi*.

Аннотация. В данной статье освещены проблемы, связанные с реформированием национального алфавита, отражены взгляды на представление буквы ц в кириллице в латинице, включение ее в алфавит как самостоятельной буквы. Выявлено, что алфавит основан на национальной фонетике. В статье используются исследовательские методы наблюдения, проверки, синтеза и обобщения.

Ключевые слова. *Алфавит, национальный алфавит, национальная фонетика, буква с(ц), произношение и написание, кириллица, латиница*.

Abstract. This article highlights the problems related to the reform of the national alphabet, reflects views on the representation of the letter ts in the Cyrillic alphabet in the Latin alphabet, and its inclusion in the alphabet as an independent letter. It is revealed that the alphabet is based on national phonetics. The research methods of observation, verification, synthesis, and generalization are used in the article.

Keywords. *Alphabet, national alphabet, national phonetics, letter s(ts), pronunciation and spelling, Cyrillic alphabet, Latin alphabet.*

Yan-gi, den-giz, ko‘n-gil (*bo‘g‘inga ajratilishi*); **aktsiya, kompetentsiya, bılan, qornım; O‘zbeksiton, g‘oz; hoxlamoq, xarom, buxton** kabi so‘zlar yozilishidagi imloviy xatoliklarga duch kelganimda negadir **“***Shunchalik savodsizlashib qoldikmi? Yoki boshqa sababi bormi?”,* – deb o‘ylab qolaman. Bu xatoliklarning barchasiga pedagogik tajribam davomida ko‘p bor duch kelganman. Turli kasb egalaridan, o‘quvchilardan diktant, yozma imtihon olganimizda, xuddi shunga o‘xshash xatoliklarni “xato qilding” deb belgilayotganimda negadir to‘g‘ri qildimikan, deb ikkilanib ham qolaman. Bu “imloviy savodsizlik”ni xato deyishimiz, qay darajada to‘g‘ri ekan? Yo xalq shunchalik savodsizmi? Yo ona tilini o‘qitish to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmaganmi? Yo ayb Alifbo siyosatidami? Yoki bo‘lmasa alifbo tuzilganda xalqning milliy tovush xususiyatlari va grafik tamoyillar yetarli darajada hisobga olinmaganmikan?!

Har bir til davlat tili maqomini olganidan keyin birinchi qilinadigan ish — milliy tovush tizimi xususiyatlaridan kelib chiqib milliy alifbo yaratishdir. Bizning ona tilimiz – o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganiga qariyb 33 yil to‘lmoqda. Ammo hali-hamon xalq yaxlit umumiy alifbodan foydalanmaydi. Kimdir kirill alifbosiga asoslangan o‘zbek alifbosidan, yana kimdir lotin alifbosiga asoslangan yangi o‘zbek alifbosidan foydalanadi. Ba’zilarning esa har ikki yozuvni aralashtirib foydalanayotganiga ham duch kelamiz. Eng achinarlisi, bu qachongacha davom etadi?! Yana qancha avlod arosatda o‘tadi?! Alifbo islohoti kun tartibiga necha martalab qo‘yildi, yana o‘z-o‘zidan unutildi, esdan chiqarildi. Milliy alifbo islohini oxiriga yetkazmasdan boshqa islohotlarni amalga oshira olmaymiz.

Jamiyat yakdilligini ta’minlovchi, millatning ruhini ifoda etuvchi vosita tildir. Ana shu tilning umumiyligini, yaxlitligini aks ettiruvchi manba – bog‘ich bu alifbodir. Uning istilohiy ma’nosi esa ilmiy adabiyotlarda quyidagicha ifodalanadi. “Alifbo. Yozuv shakllarining (harf va belgilarning) majmuyi, ma’lum tartibda joylashgan holati”[1]. Ya’ni, harflarning muayyan tartibda joylashtirilgan tizimidir. Harf esa fonema(nutq tovushi)ning yozuvdagi ifodasidir. Fonemalar nutqda ba’zan bitta nutq tovushi bilan ifodalanishi ham mumkin, ba’zan aynan, bir-biriga juda yaqin birdan ortiq nutq tovushi bilan ifodalanishi ham mumkin. Tildagi yozma manbalar muayyan yozuvlar – alifbolar bilan ifodalanadi. Ma’lumki, yozma manbalarimiz, asosan, arab alifbosiga asoslangan eski o‘zbek yozuvi, kirill alifbosiga asoslangan o‘zbek alifbosi va lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida ifodalangan va saqlanib qolgan.

Xalqimiz foydalangan va foydalanayotgan ana shu alifbolarni taqqoslab shunga amin bo‘lamizki, O‘zbek tili fonetika-fonologiyasida o‘zaro aniq farqlanib turadigan 25 ta fonema bor. Ular *Aa, Bb, Dd, Ee, Ff, Gg, Ii, Kk, Ll, Mm, Nn, Oo, Pp, Qq, Rr, Ss, Tt, Uu, Vv, Yy, Zz, O‘o‘, G‘g‘, Shsh, Chch* harflaridir. Shu bilan birga, bir-biriga juda yaqin talaffuz qilinadigan ikkita nutq tovushlari juftligi borligini ham farqlaymiz: *Jj(jo‘j) va Jj(jurnal)* hamda *Xx(axloq, xalq) va Hh(buhton, handalak)*. Bulardan tashqari, ikki nutq tovushining talaffuzda o‘zaro uyg‘unlashib ketishidan hosil bo‘lgan tovushlar qorishmasini ifodalovchi ikkita harf va harflar birikmasi ham uchraydi. Ular Цц *(цирк, лицей)* hamda *Ngng (dengiz, ko‘ngil)* harflaridir. Yana shuni ham ta’kidlashimiz kerakki, Цц harfi o‘tgan asrning boshlarida rus tilidagi manbalar ta’sirida o‘zbek tili fonetika-fonologiyasida qo‘llanila boshlagan. U dastlab 1940-yilda qabul qilingan kirill yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida harf sifatida kiritilgan. Yozma manbalarda tilimizga kirib kelayotgan xorijiy so‘zlarda uchraydi. Mustaqillikdan so‘ng 1993-yilda qabul qilingan Lotin yozuviga asoslangan yangi o‘zbek alifbosida mustaqil grafema sifatida uchramaydi.

Alifboni isloh qilish yuzasidan takliflar berila boshlandi, mutaxassislar tomonidan “Цц harfini qayta tiklash kerak” degan takliflar ham o‘rtaga tashlana boshlandi. Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini isloh qilish yuzasidan ishchi guruhning so‘nggi xulosasida Цц harfi lotin alifbosida Cc shaklida ifodalanishi keltirilgan[2].

Bir qaraganda bu mantiq ham o‘zining yetarlicha asosiga egadek tuyuladi. Masalan, *цанга – ombur, цех – kichik fabrika*. Bu so‘zlarni amaldagi imlo qoidalariga asosan lotin alifbosida yozilsa, *цанга – sanga; цех – sex* shaklini oladi. Bu esa ko‘pchiligimizga ma’qul bo‘lmagan holatni keltirib chiqaradi. Aslida bu – tabiiy holat. Tilda shakldoshlik qonuniyati mavjud. Bunaqangi shakliy o‘xshashlik barcha tillarda uchraydi. Har ikki so‘zning ham ma’nosini beradigan boshqa so‘zlardan foydalansa ham bo‘ladi. Bu esa atamashunosligimiz oldidagi yechimini kutayotgan masalalardan biridir.

Bizningcha, Цц (Cc) nutq tovushini alifboga mustaqil harf sifatida olib kirish shart emas.

Birinchidan, Цц (Cc) o‘zbek tilining milliy fonetika-fonologiyasi uchun xos bo‘lmagan nutq tovushi hisoblanadi. Shuning uchun ham o‘zbek tili leksikasidagi so‘zlarning fonetik tarkibida uchramaydi. O‘zbek tilining izohli lug‘atini tekshirib chiqdik, Цц(Cc) harfi bilan boshlanuvchi 63 ta so‘z mavjud bo‘lib, shulardan 10 dan ortig‘ining o‘zbek tilida varianti mavjud (*цанга – ombur, qisqich*), 10 dan ortig‘i bir asosdan hosil qilingan (*цемент – цементламоқ*) so‘zlardir. Ya’ni 40 ga yaqin so‘z uchun biz alifbomizga yangi harf kiritishimiz shart emas[3].

Ikkinchidan, amaldagi lotin alifbosiga asoslangan imlo qoidalarida bu nutq tovushining talaffuzi va imlosiga muayyan yechim keltirilgan. Xususan, taniqli olim Sh.Rahmatullayev quyidagilarni yozadi: “O‘zbek kirill alifbosidagi ц harfi o‘rniga o‘zbek lotin alifbosida:

a) so‘z oxirida, so‘z boshida, old qo‘shimchadan keyin, undoshdan keyin s harfi yoziladi: кварц – kvars, шприц – shpris, целлофан – sellofan, цилиндр – silindr, антициклон – antisiklon, конструкция – konstruksiya каби;

b) boshqa hollarda unlidan keyin ts yoziladi: глицирин – glitsirin (тўғриси: glitserin), гербицит – gerbitsit (тўғриси: gerbitsid), конституция – konstitutsiya каби.[4].

Y.Abdullayev esa bu masalaga quyidagicha yondashadi:

«Kirill alifbosidagi ц harfi yangi o‘zbek imlosida quyidagicha beriladi:

– so‘z boshida, oxirida va so‘zning o‘rtasida undosh tovushdan keyin kelganda s harfi bilan: цех – sex, цирк – sirk, акция – aksiya

– so‘z o‘rtasida unli tovushdan keyin kelsa, ts harflari bilan ifodalanadi: лицей – litsey, офицер – ofitser, доцент – dotsent[5].

Shuni ham ta’kidlashimiz kerakki, alifboga Цц (Cc)ning mustaqil harf sifatida kiritilishi ko‘plab muammolarni keltirib chiqaradi:

– boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bu harfni o‘zlashtirishga, farqlashga qiynalishadi: avvalo, alifboda Цц (Cc) harfi Ss va Tt harflaridan oldin joylashtirilishi mumkin, bu harf talaffuzini idrok qilishda muammoni keltirib chiqaradi, qolaversa, tilimizda Tt va Ss harflari yonma-yon kelgan so‘zlar mavjud (*adolatsiz, yotsiramoq*). Natijada Цц (Cc) hamda Ss va Tt harflarini o‘quvchilar farqlay olmasligi mumkin;

– tahrir jarayonida Цц (Cc) harfi ishtirok etgan so‘zlarning bo‘g‘inga ajratishda muammo yuzaga keladi: akatsiya(*akaciya*), litsey(*licey*) kabi. *Li-cey* yoki *lic-ey*. Har ikki holatda ham sun’iy bo‘g‘inga ajratiladi;

– Цц (Cc) harfi sifatida kiritilayotgan belgi hozirgi alifbodagi ***Chch*** harf birikmasining bir qismi hisoblanadi. Bu harf birikmasi o‘zbek tili leksikasidagi so‘zlarning fonetik tarkibida ko‘plab uchrashini hisobga olganimizda, amaldagi alifboda yozilgan matnlar chiqarib tashlangunga qadar yangi alifboni o‘rganayotgan yosh avlod *Chch* harfi birikmasi ishtirok etgan so‘zlarda Ch ni Цц (Cc) dan farqlashda qiyinchilikka duch kelishadi.

Bir so‘z bilan aytganda, Цц (Cc) harfi hamda **Ss** va **Tt** harflarini so‘zlarda aniq chegara qo‘yib ajratish, farqlash bahsli mavzuga aylanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuni aytishimiz mumkinki, Цц (Cc) harfini mustaqil harf sifatida alifboga kiritish maqsadga muvofiq emas. Imloda esa bu harfni quyidagicha ifodalashni to‘g‘ri deb hisoblaymiz:

1) Цц (Cc) *harfi* so‘z boshida kelsa, **Ss** harfi shaklida yoziladi: **цирк** – *sirk,* **Си Цзиньпин** – *Si Szinpin (atoqli ot);*

2) so‘z o‘rtasida ikki unli orasida kelsa, **ts** shaklida yoziladi: **механизация** – *mexanizatsiya;*

3) so‘z o‘rtasida undoshdan keyin kelsa, **s** shaklida yoziladi: **гидроэлектростанция** – *gidroelektrostansiya;*

4) so‘z oxiri unlidan keyin kelsa, **ts** shaklida yoziladi: **ненец (***xalq nomi***) –** *nenets;* **блиц** – *blits,* **броненосец (***harbiy kema***) –** *bronenosets;*

5) so‘z oxiri undoshdan keyin kelsa, ***s*** harfi shaklida yoziladi: **кварц** – *kvars,* **герц (***o‘lchov birligi***)** – *gers.*

Bu o‘rinlardan boshqa farqli holatlar fonetik yozuv asosida imlo lug‘atda aks etishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Shulardan kelib chiqib shuni xulosa qilishimiz mumkinki, Цц (Cc) harfi o‘zbek tili leksikasi uchun xos bo‘lmagan nutq tovushi hisoblanadi. Shu bilan birga, Bu harfni alifboga kiritish shart emas, balki matnni kirilldan lotinga va lotindan kirillga transliteratsiya qiladigan dasturlarni takomillashtirish kerak. Ya’ni sifatli transliteratsiya qiladigan dasturiy ta’minot yaratish kerak. Eng muhimi alifbo milliy fonetikaga asoslanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: ЎзМЭ Давлат илмий нашриёти, 2002, 12-бет.

2. Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi haqida ishchi guruhning so‘nggi xulosasi. http://darakchi.uz/oz/06.11.2018

3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 4-том. – Тошкент: ЎзМЭ Давлат илмий нашриёти, 2020, 439-443-бетлар.

4. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг янги алифбоси ва имлоси. – Тошкент: Университет, 2002, 16 – 17-betlar.

5. Абдуллаев Й. Ҳамроҳим. Янги алифбо ва имлодан қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996, 48-bet.

SHEKSPIR VA NAVOIY: MUSHTARAKLIK VA O‘ZIGA XOSLIK

Maxsuda BERDIMURATOVA
Termiz davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Navoiy va Shekspir ijodidagi tutash nuqtalar, mushtarak g‘oyalar, folklorning har ikki ijodkor ijodiga ko‘rsatgan ta’siri, xalq qarashlarining aks etishi va realistik tasvir uslubiga nazar tashlashga urinilgan.
Kalit so‘zlar: *Shekspir va Navoiy, sharq va g‘arb, xalq irim-sirimlari, xalq og‘zaki ijodi, kenja farzand, pantamimo, tomosha san’ati, realistik tasvir.*

Аннотация: В этой статье делается попытка взглянут на смежные точки в творчестве Навои и Шекспира, общие идеи, влияние фолклора на творчество обоих авторов, отражение народных взглядов и реалистический стил изображения.
Ключевые слова: *Шекспир и Навои, Восток и Запад, народные тайны, устное творчество, младший ребенок, пантамимо, зрелищное искусство, реалистический образ.*

Annotation: This article makes an attempt to consider related issues in the works of Navoi and Shakespeare, general ideas, the influence of folklore on the works of both authors, reflection of people’s views and realistic style of depiction.
Key words: *Shakespeare and Navoi, East and West, folk superstitions, folklore art, youngest child, pantamimo, visual arts, realistic image.*

Shekspir nafaqat ingliz yoki g‘arb, balki dunyo adabiyotining titanlaridan biridir. G‘arb adabiyotiga xos bo‘lgan eng yaxshi adabiy an’analar va tendensiyalarni o‘zida jamlagan uning ijod namunalari hamon kitobxonlarni o‘ylashga, u haqda mushohada yuritishga, shuningdek, turfa qarashlarni yuzaga keltirishga zamin yaratadi.

Chinakam badiiy asar hamisha yakdil xulosa chiqarishga emas, balki turfa fikrlar, bir-biriga zid qarashlarni yuzaga chiqarish imkonini beradi. Shekspir ijodi xalq og‘zaki ijodi va xalqning ishonch-e’tiqodlaridan oziqlangan ijoddir. Uning asarlari g‘oyasida qadimiy kelt qabilalarining turmush tarzi va qarashlari yotadi.

Nafaqat Shekspir ijodida, balki g‘arb adabiyotida bir an’ana, adabiy hodisa mavjudki, asar bosh qahramoni o‘zi bilgan biror sirli hodisani so‘z bilan emas, balki harakat, ya’ni pantamimo bilan ko‘rsatishga intiladi. Bunda obyekt kuzatiladi va undagi ruhiy holatlarning, yuzidagi ifodalarning o‘zgarishiga qarab o‘z shubhalari, to‘g‘rirog‘i, o‘zi bilgan haqiqatni yana bir bor tasdiqdan o‘tkazib oladi. “Ming bor eshitgandan bir bor ko‘rgan afzal”, degan maqol ingliz, xususan Shekspir asarlarida qanchalik singdirib yuborilgani diqqatga sazovordir.

Ingliz xalq og‘zaki ijodi murakkab, sintetik san’atdir. Ko‘pincha unda turli xil san’at turlarining elementlari birlashadi. Bular – so‘z (og‘zaki), musiqa va teatr. Uni turli fanlar – tarix, psixologiya, sotsiologiya va etnologiya (etnografiya) o‘rganadi. U xalq hayoti va marosimlari bilan chambarchas bog‘liq [1].

Hammamizga ma’lum va mashhur bo‘lgan Aleksandr Dyumaning «Graf Monte Kristo» asari bosh qahramoni o‘zi bilgan haqiqatlarni raqiblariga so‘z orqali bildirmaydi. Balki bog‘da bir tomosha uyushtirib, sahna harakati orqali bu sirni hammaga oshkor qiladi. O‘z qilmishlarini sahnada ko‘rgan odamlar bundan qattiq tashvish va iztirobga tushadilar, yashirgan sirlari oshkor bo‘ladi.

Shekspirning «Hamlet» tragediyasi ham shohona asar sifatida necha asrlardan buyon kitobxon qalbini larzaga solib keladi. Asar boshidanoq kulminatsiya bilan boshlanadi. Qirol arvohining ko‘rinishi bu kutilmagan bir boshlamadir. Birinchi ko‘rinishda u endi gapirmoqchi bo‘lganda, birdan xo‘roz qichqirib qoladi va u ko‘zdan g‘oyib bo‘ladi. Xo‘rozning qichqirib

qolishi bu bir shartlilik bo‘lib, hali Hamlet saroyga yetib kelmagan edi. Xo‘roz qichqirishi ikki vazifani bajaradi: birinchidan, Hamletni kutish uchun bir topilma bo‘lsa, ikkinchidan, qadimiy kelt qabilalarining irim-sirimlari va e’tiqodlari bilan bog‘liq. Ayniqsa, qirol arvohining maxsus jang kiyimida qurollangan holda ko‘rinishi ham bir timsol bo‘lib, arvohning tengsiz va shafqatsiz bir ishtiyoq bilan so‘nggi kurashga otlanganiga ishoradir.

“Falsafiy g‘oyalar arvohlar haqidagi umumiy g‘oyaga ham hissa qo‘shgan. Arvohlarni yovuzlik timsoli deb hisoblab, ularning inson qalbiga zararli ta’sirini ta’kidladilar. Shubhasiz, ularning bu mavzu bo‘yicha mulohazalari boshqa e’tiqodga olib keldi. Odamlar olimlar ruhlarni sehrlashga qodir ekanligiga ishonishni boshladilar.” Bu g‘oyalarning barchasi «Hamlet»da o‘z aksini topgan va bu fojiada o‘ziga xos tarzda rivojlangan. Keksa qirol obrazini yaratishda Shekspir xalq e’tiqodlariga juda qattiq amal qiladi. Podshoh yarim tundan keyin, «o‘lik jodugar» soatida (I, 1, 65; III, 2, 361) keladi, birinchi xo‘rozning qichqirishida yo‘qoladi (I, 1, 147, 157; 2, 218) [2].

Misol uchun, «Hamlet»da Goratsiy qirol arvohiga qarab: “Ketma! So‘zla! Javob ber! Avrayman seni!” - deganda o‘sha g‘oyalar aks etgan.

Xristian xalqlari adabiyotida, folklorida, hatto bolalar uchun ishlangan ertak va animatsion filmlarida badiiy tasvir xo‘roz qichqirishi bilan boshlanib, shu bilan tugaydi. Bu ruhlar, yovuz kuchlar, sehr-jodu kabilarni haydash uchun ularning ishonch-e’tiqodlari mahsuli ekanligi bugungi ma’rifatli kitobxon uchun yangilik emas.

G‘arb adabiyotida xo‘rozning birinchi qichqirishi xosiyatli hodisa bo‘lib, u yovuz kuchlarni haydashga xizmat qiladi. Misol uchun «Qirol Lir» tragediyasida ham yozuvchi Edgar tilidan shunday deydi:

Bu Flibertidjibet degan ajina,
Xonadonlarda chiroqlar o‘chishi bilan sayohatga chiqadi-da,
Birinchi xo‘roz qichqirguncha yuradi.
U ko‘zlarga oq tushiradi, g‘ilay qiladi, lablarni qiyshaytirib ketadi.

Bug‘doylarga kuya tushiradigan ham o‘sha, ishqilib, yerdagi bor narsalarga ziyon-zahmat yetkazib yuradi. [3].

Sharq xalqlarida ham garchi xo‘roz qichqirig‘i yo‘q bo‘lsa-da, yovuz kuchlar shom payti harakatga keladi, shuning uchun bolalarni shu paytda ko‘chaga yolg‘iz chiqarmaslik kerak, degan qarashlar mavjud. Bu bizning adabiyotimizda ham aks etgan. Qur’oni karimda ham «Jin» surasi mavjud bo‘lib, u 28 oyatdan iborat.

Shekspirshunos ingliz olimi Mendlning fikricha, Hamletning hammamizga tanish gaplari shayton uni vasvasaga solish uchun kelganmi yoki yo‘qmi, hanuzgacha shubhalanish bilan bog‘liq teatr an’analariga borib bog‘lanadi, o‘rta asr teatr an’analariga ko‘ra, iblislar bilan past ovozda gaplashilgan. Ammo Hamlet avvaliga uning oldida «halol ruh» borligiga ishonch hosil qilmagan, unga mutlaqo boshqacha ohangda murojaat qilgan. Bizningcha, buning sababi Hamletning arvohga ishonchsizligida emas, balki qahramonning umumiy hayoti va harakatidadir. Hamlet ruh bilan yolg‘iz qolgandan keyin u keskin o‘zgaradi. Do‘stlari so‘rashganda, u g‘alati va mantiqsiz javob beradi:

“Daniya qirolligida harom yo‘q.” [4].

Hamlet kelgach, qirol arvohi yana bir ko‘rinish beradi va o‘g‘liga bor sirni yetkazadi. Yosh shahzoda bundan qattiq iztirobga tushadi, qotil amakisidan o‘ch olishni diliga tugadi. Bu haqiqatni yuzaga chiqarish uchun u ham xuddi Graf Monte Kristoga o‘xshab, aktyorlar yordamida mazkur qotillik sahnasini uyushtiradi. O‘gay otasini kuzatishni buyuradi. Amaki qirol bu tomoshadan o‘zini juda lohas his qilib, uni erta tark etadi. Hammasi ayon. Qotil u ekanligi aniq bo‘ldi. Ammo Hamlet qancha imkoniyat bo‘lishidan qat’i nazar amakisini o‘ldirmadi. Fojia shunda. Agar u o‘gay otasini o‘ldirganida, hammasi joyiga tushardi. Taxtni egallardi. Otasining o‘chini olardi. Shu bilan mazkur asarning fojeiy shuhrati ham bo‘lmasdi. Birgina Hamletning jur’atsizligi (uni jur’atsiz ham deb bo‘lmaydi, chunki u qilich sanchib Poloniyni o‘ldirganligini eslang) otasi qotilini o‘ldirolmasligi yoki o‘ldirishni istamasligi o‘zi, onasi, mahbubasi, donishmand Poloniy va bir qancha odamlarning hayoti fojia bilan tugashiga olib keladi.

Mazkur asarda kitobxon e’tiborini tortadigan bir jihat bor. Bu uning bizdagi kabi sharqona qarashlaridir. Sharqona odob bilan tutashtiradigan jihat shundaki, donishmand Poloniy qizi Ofeliyaga o‘z nomusini asrashi, o‘zini juda yaxshi tutishi kerakligi haqidagi ota nasihati keltiriladi:

A, shundaymi? Juda soz, men eshitdim-ki,
Go‘yo tez-tez kelarmish senikiga u
Sen ham unga, deydilar, ko‘p iltifotli.
Ko‘rganlaring yetkazgan menga odamlar.
Bu rost bo‘lsa, demakki, sen iffatingni,
O‘z qizlik nomusingni xato anglaysan,
Orangizda ne sir bor? Ochiq ayt menga [5].

Mazkur satrlar tasavvurimizdagi g‘arbona axloqsizlikni, bizning sho‘ro mafkurasi bo‘yicha shakllangan qarashlarimizni yo‘qqa chiqaradi. Demak, Shekspir davrida g‘arbda ham oila, qizlarning or-nomusi, umuman farzand tarbiyasi muqaddas hisoblangan ekan. Jumladan, ruslarda ham oila muqaddas bo‘lgan. Pushkinning ayoliga ola qaragan kiborni duelga chaqirishi bunga misol. Insoniyatning aynishi keyin yuz bergan hodisadir.

Shekspir ijodi ham xalq og‘zaki ijodi bilan sug‘orilgan adabiyotdir. Masalan, sharq adabiyotiga mansub ertak va xalq dostonlarida hamisha akalar eplolmagan ishni kenja o‘g‘il uddalaydi. Bu biz sharq kitobxonlari uchun odatiy va tabiiy holdek tuyuladi. Bu hodisa bizning zamonaviy adabiyotimizga ham kirib kelgan. Misol uchun Xurshid Davronning «Ota qabri» she’rida ham ota qabrini ketmon olib buzishga kelgan akalarni kenja uka qo‘lida tig‘ bilan kutib oladi va padari buzrukvorining abadiy oromini merosdan voz kechish evaziga saqlab qoladi.

Shekspirning «Qirol Lir» tragediyasi mohiyati to‘lig‘icha sharq adabiyoti an’analaridan oziq olgan va ta’sirlangan desak xato bo‘lmaydi. Ikkita ko‘rnamak opalaridan kenja qiz o‘z halokati evaziga ota uchun shafqatsiz o‘ch oladi. Shekspir sharq adabiyotidan yaxshigina ta’sirlangani mazkur asaridan sezilib turadi.

Mana, Shekspir ijodidan bir misol keltiraylik. «Qirol Lir» tragediyasida Kent kenja qizidan g‘azablangan qirolga qarata shunday deydi:

G‘azabingni tizginlab ol! Shu jonim kafil,
Kenja qizing seni haddan ziyoda sevar.
Til jimligi, dil bo‘shligin belgisi emas,
Qayta, ichi bo‘sh yerlarda shovqin ko‘p bo‘lur [6].

Mazkur satrlar ifoda etgan mohiyat va mazmun Jaloliddin Rumiyning qarashlaridan ildiz olgani endi sir emas. Umuman, Shekspir ijodidan sharq g‘oyalarini istagancha topish mumkin.

Sharq adabiyotidagi kenja farzand, kenja o‘g‘il motivi hali ilmda o‘rganilmagan. Bu ilmiy asosda o‘rganilishi lozim bo‘lgan bir mavzudir. Nega katta akalar eplolmagan ishni kenja o‘g‘il uddalaydi. Bu juda qiziq ma’lumotlarni taqdim etishi mumkin. Ehtimol, yosh ota-ona katta farzandlarini “Unday tarbiyalayman, bunday tarbiyalayman”, deb u yoq-bu yoqqa sudrab, undan hech narsa chiqmagach, hafsalalari pir bo‘lib, kenja o‘g‘ilni o‘z holiga tashlab qo‘yishar. Erkin o‘sgan bolakayning xayolot olami boy bo‘lib o‘sar. Yoki ehtimol, kenja farzandga kelib, ota-ona har jihatdan kamolotga erishar... bilmadim... yoki bu bir ilohiy sirli holatmi?

G‘arb, xususan Shekspir ijodiga xos bo‘lgan mazkur sahna tomoshasi va pantamimo kabi san’atlar og‘zaki adabiyot mahsulidir. Shekspir ijodini oziqlantirgan omillardan biri bu xalq og‘zaki adabiyoti desak, xato bo‘lmaydi.

Alisher Navoiy shaxsi va ijodi bilan turkiy xalqlar to qiyomatga qadar faxr-iftixor etsalar arziydi. Navoiy ijodi sharq she’riyatining eng yaxshi an’analarini o‘zida sintez qilgan, qayta ishlagan va an’analar bag‘rida yangilik yarata olgan. Shekspir ijodini o‘qigan odam g‘arb adabiyoti haqida to‘laqonli tasavvur hosil qilganidek, sharq adabiyotiga qiziqqan g‘arb kishisi ham Navoiy ijodini o‘qisa, kunchiqish adabiyoti haqida yetarlicha tasavvur hosil qiladi.

Sharq adabiyotida «Layli va Majnun», «Majnun va Layli» turkumidagi dostonlar yozish an’anasi bo‘lgan. Nizomiy, Navoiy va boshqa shu nomda doston yozganlar «Layli va Majnun» deb atagan bo‘lsalar, Xusrav Dehlaviy bu dostonni «Majnun va Layli» deb atagan. Akademik

I.Y.Krachkovskiy «Sharqda Layli va Majnun g‘arbdagi Romeo va Juliettadan ko‘ra mashhurroqdir», – degan fikrni aytadi. [7]

Alisher Navoiy ijodi to‘lig‘icha sharqda mashhur bo‘lgan tasavvuf ta’limoti bilan sug‘orilgan, albatta. Lekin Navoiy ijodidan faqat tasavvufiy g‘oyalar qidirmasdan, realistik tasvir elementlarini, maishiy hayot ikir-chikirlari, oddiy insoniy his-tuyg‘ular fonida o‘rgansak ham samarali natijalar beradi. Masalan, «Farhod va Shirin» dostonida Farhod Shirin siymosidagi muhabbatiga erisha olmadi. Shundan so‘ng Farhod o‘zidagi kuchli energiyani boshqa o‘zanga burib yubordi va tog‘ni teshib, suv chiqazdi. Bu bilan u o‘zini jismoniy va ruhiy halokatlardan saqlab qoldi.

«Layli va Majnun»da ham oshiq o‘z muhabbatiga erisha olmadi. Lekin u o‘z g‘amlari va qayg‘ulari bilan qoldi. Natijada u jinni bo‘ldi. Tashqariga chiqmagan o‘sha energiya, his-tuyg‘ular va visolga yetmaslik iztirobi Qaysni ruhiy muvozanatdan chiqardi.

Alisher Navoiy o‘z davrining eng yaxshi realist ijodkoridir. U badiiy ijodda nimagaki erishgan bo‘lsa, eng avvalo, Alloh bergan iste’dodi tufayli erishgan. Qolaversa, uni dunyoga bergan millatning badiiy tafakkuriga tayanib shu darajaga yetishdi. El adabiyotida farzand ko‘rishni istagan odam uni Xudodan tilab oladi, xalqqa sadaqalar qiladi, duo oladi. Qaysning otasi ham uni Xudodan tilab olgan. Yakka-yu yolg‘iz farzandni uzoq kutgan. Navoiy dostonda Qaysning otasi tilidan shunday yozadi:

Ul lahzaki yo‘q edi nishoning,
Qonim aro muzmar erdi qoning.
Aylab tilaringni muddaolar,
Sadqa berib-u, qilib duolar,
Och to‘yg‘azibon yalangni yoptim,
O‘ldum deganda seni topdim. [8]

Navoiy ijodida realizm elementlari shu darajada aniq tasvirlanganki, «Layli va Majnun» dostonidagi Qaysning jinnilik qiliqlari tasviri shunday deyishimizga imkon beradi:

Gahi tutub o‘lturur erdi mo‘r,
Gah tufroq ila yasar edi go‘r.
Gah shug‘li kesak toshurg‘a ta’jil,
Yasar edi ul kesak bila mil.
Gah sochar edi boshig‘a tufrog‘,
Gah tish bila olur edi tirnog‘.
Gah tomg‘a qo‘nub minar edi chust,
Har sori ayog‘larin etib rust.
Chimdir edi yenglarini har dam,
Chaynar edi yenglarini har dam [9].

Majnunlik ahvolini bundan ortiq tasvirlab bo‘lmaydi. Shekspir ijodiga nisbatan Alisher Navoiy ijodida badiiy tasvir quyuqroqqa o‘xshaydi. Lekin darhol bu fikrimdan qaytishga jur’at topaman. Chunki biz Shekspir ijodini asliyatda emas, tarjimada o‘qiymiz.

«Navoiyning buyukligi va mutafakkirligi shundaki, «Layli va Majnun»da garchi tasavvufga oid talqinlar bo‘lsa-da, voqealar zamirida kishi qalbini larzaga soluvchi fojiaviy-majoziy ishq qismati va ijtimoiy adolatsizlik tasviri shu qadar hayotiy tasvirlanganki, bundan shoirning o‘zi ham qattiq iztirobga tushadi va «yig‘lay-yig‘lay tugatdim oxir», - deb qissaga yakun yasaydi. «Layli va Majnun» dostoni dunyoviy adabiyotning eng go‘zal namunalaridan biri sanaladi» [10].

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Shekspir ijodi Angliyadagi qadimiy kelt qabilalarining ishonch-e’tiqodlari va ingliz folkloridan ildiz olgan. Shu bilan birgalikda, Shekspir ijodi sharq adabiyotidan ta’sirlangani ham biroz oydinlashadi. Ayniqsa, xalq tomosha san’ati hisoblangan pantamimodan Shekspir ustalik bilan foydalangan. Navoiy ijodi ham xalq og‘zaki ijodi va xalqona qarashlardan ildiz olgan. Qolaversa, folklor motivi va g‘oyalari stilizatsiyasi Navoiy ijodida kuchli aks etgan. Shu bilan birgalikda realistik tasvir elementlari Alisher Navoiy ijodida juda yorqin ifodalangani ham kuzatishlarimiz davomida ma’lum bo‘ldi.

G‘arb adabiyotida tragediya shohona janr hisoblanadi. Mana shu shohona janrda shoh asarlar yaratish Shekspirga nasib etgan. Shekspir tragediya – fojia yaratish ustasi bo‘lsa, Navoiy (o‘z davrida bunday maxsus fojiaviy janr bo‘lmasa ham) dostonda fojianing go‘zal namunalarini yaratgan. Agar chinakam iste’dod bo‘lsa, ijodkor uchun janrning ahamiyati yo‘q ekan-da.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Онлайн Библиотека/литература/Анализ произведений литература до 20 века для сочинений.
2. Онлайн Библиотека/литература/Анализ произведений литература до 20 века для сочинений.
3. Вилям Шекспир. Танланган асарлар. 5 жилдлик. 2-жилд. Қирол Лир. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1981. – Б. 108.
4. Онлайн Библиотека/литература/Анализ произведений литература до 20 века для сочинений.
5. Вилям Шекспир. Танланган асарлар. 5 жилдлик. 2-жилд. Қирол Лир. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1981. – Б. 34.
6. Вилям Шекспир. Танланган асарлар. 5 жилдлик. 2-жилд. Қирол Лир. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1981. – Б. 12.
7. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 9-жилд. Лайли ва Мажнун. – Тошкент: Фан, 1992. – Б. 331.
8. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 9-жилд. Лайли ва Мажнун. – Тошкент: Фан, 1992. – Б. 221.
9. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 9-жилд. Лайли ва Мажнун. – Тошкент: Фан, 1992. – Б. 219.
10. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 9-жилд. Лайли ва Мажнун. – Тошкент: Фан, 1992. – Б. 335.

«MAJMUAI SHOIRON»DA HAMD VA NA'TLAR TALQINI

Tojixon TOSHBOLTAYEVA
Qo'qon davlat pedagogika instituti dotsenti, falsafa doktori(PhD)
Muqaddas SAIDAKBAROVA
Qo'qon davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi, falsafa doktori(PhD)
Feruza QURBONOVA
Qo'qon davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada iste'dodli shoir va tazkiranavis Fazliy Namangoniyning «Majmuai shoiron» tazkirasida berilgan hamd, na't va qasidalari tadqiq qilingan. Bunda adabiyotdagi so'zning qudrati va malohati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: *«Majmuai shoiron», masnaviy, hamd, na't, qasida, darj, fazl.*

Резюме. Эта статья содержит обзор и описание похвал, наивностей и откровений талантливого поэта и комментатора Фазли Намангони в «Поэзии его величества». Раскрывает силу и достоинства слова в литературе.

Ключевые слова: *«Величественный поэт», маснави, хвала, качестве, поэма, дардж, добродетель.*

Annotation. This article provides an overview and description of the hamd, na't and the poems written by the talented poet and commentator Fazli Namangoni in his Majesty's Poetry. It reveals the power and merits of the word in literature.

Keywords: *«Majestic poet», masnawi, praise, na't, poems, darj, virtue*

Fazliy Namangoniyning «Majmuai shoiron» tazkirasi XIX asrning boshlaridagi adabiy jarayonlar, bu muhitda qalam tebratgan shoir-u fozillar – ahli suxanlar haqida muayyan xulosalar chiqarish imkonini beradi. Chunki undagi she'riy namunalar hamda darj va fazllarning badiiy saviyasi haqidagi mushohada va mulohazalar ayni bir davr she'riyati borasida bir to'xtamga kelish uchun zamin yaratadi. Bu davrda zullisonaynlik an'anasi yetakchi ekan, mazkur fikrlarni shoirlar tomonidan yaratilgan o'zbekcha va tojikcha she'rlarga baravar tatbiq etish to'g'ri bo'ladi. Chunki darj va fazllar bayon etilgan masnaviylar, tazkira muqaddimasi, qator qasidalar va boshqa lirik janrlardagi payrovlar, asosan, fors-tojikcha va o'zbekcha ekanligi bunga dalolat qiladi. Fazliy payrov namunalarini havola etar ekan, agar Amiriyning she'ri tojikcha bo'lsa, avval tojik tilida masnaviy berilgan; agar o'zbek tilida bo'lsa, darj va fazllar o'zbekcha bo'lgan.

Ko'rinib turibdiki, Fazliy tojikcha-o'zbekcha darj va fazllarni masnaviy yo'lida bitgan. Bu masnaviylarning barchasi (hatto tazkira muqaddimasidagi masnaviylar, qasida-masnaviylar ham) aruzning sakkizlik mutaqorib bahrida bitilgan: taqte'si *faulun faulun faulun faul* bo'lib, taqte'ning paradigmasi V– – V – – V – – V – .

Masnaviy shakllari tazkirada zikri kelgan shoirlarning biror hudud yoki shajaraga tegishliligi, adabiyot va badiiy ijodga daxldorligini ta'rif va tavsif qilishda birmuncha yengillik tug'diradi. Hazrat Alisher Navoiy masnaviy shaklini «vase' maydon» (keng maydon) deganlarida, shubhasiz, bu usulning tasvirlash imkoniyatlari bir qadar keng bo'lishi hamda ta'rif va tavsifda osonlik tug'dirishini nazarda tutgan. Shu sababli, mumtoz adabiyotda barcha epik asarlar masnaviy usulida bitilgan. Mazkur usulning yana bir afzalligi shundaki, bunday matnda badiiy tasvir usullarini iste'foda etish imkoniyati birmuncha kuchayadi. «Majmuai shoiron»dagi darj va fazllarda ham bir qator tasvir usullariga murojaat qilinganki, ular tazkira mualliflarining badiiy mahoratining ko'zgusi sifatida namoyon bo'ladi.

«Majmuai shoiron»ning muqaddima masnaviysi ko‘zdan kechirilsa, mualliflar mahorati ko‘zga aniq tashlanadi. Dastlab Allohga hamd keladi. Hamdda an’anaviylik bir qadar kuchli. Ayni paytda ayrim o‘ziga xosliklardan ham holi emas. Chunonchi, muqaddimaning dastlabki baytining toq misrasi arabcha bo‘lib, unda hamd aytiladi va shunday asar bunyod etilayotgani Allohning marhamati ekaniga shukrona qilinadi. Allohning shunday ta’rif-tavsiflarni yaratish uchun til berganiga shukr qilinadi (bu she’ru shakar usuli bir qator devonlarda, xususan, Nizomiy, Hofiz Sheroziyning devonlarida, Hazrat Alisher Navoiyning «Xazoyinu-l-ma’oniy» kulliyotining «G‘aroyibu-s-sig‘ar» devonining birinchi g‘azali «Ashraqat...»ning matla’ baytida ham istifoda etilgan) [1]:

Lakal hamd-u ash-shukr-u yo musta’on,
Bore bobi ma’no tu dodi zabon.

Keyingi baytda yana an’anaviy yo‘l tutilib, Allohga munojot qilinar ekan, o‘z nazar nuring bilan bizlarni bino etding, sening madhingni aytish uchun til ato etding, deb yozadi:

Nazarho bo nuri to‘ bino sho‘de,
Zabonho ba shukri to‘ go‘yo sho‘de [2].

Bu fikrlar masnaviyning keyingi satrlarida ham bardavom bo‘ladi. Ayni chog‘da, mazkur bo‘lgan satrlarda mumtoz adabiyotda an’ana bo‘lgan hamdlardan o‘zgacharoq yo‘l tutiladi. Ya’ni bevosita hamd usuli oldinda amalga oshirilajak vazifalar bilan chambarchas bog‘lanib ketadi. Shoir Fazliy masnaviyning shu baytidan boshlab, o‘zi yaratmoqda bo‘lgan kitob uchun fazli ilohiy sirlaridan ogoh bo‘ladigan bir aql bergan parvardigorga hamd-u sano aytadi. Bu Fazliydan oldingi manbalarda boshqacharoq tarzda namoyon bo‘lgan. Ularda niyatning paydo bo‘lishi yoki kitob yozishga undagan sabab birmuncha ochiq bayon qilingan. Fazliy ana shu ta’vilda ham yangicha usulni qo‘llashga urinadi:

Tu dodi bo xel xirad ogahi,
Zi mazmuni asrori fazli ilohi.
Ketobi jahon az tu dorad nizom,
Do‘ olam ba yek kofu nun sho‘d tamom.

Hazrat Navoiy «Hayrat ul-abror»ning hamd bobida bu kabi tavsifni qo‘llagan. Ya’ni olamdagi barcha maxluqot-u mavjudot Allohning «kun» kalimasi tufayli paydo bo‘lgan; maxluqot-u mavjudot «kof» va «nun» zodasi deb aytgan [3].

Fazliy yuqoridagi baytda «do‘ olam» deganida foniy va boqiy dunyoni nazarda tutayotgani sir emas. Bu ham shoirning mahorati mevasidir. Ayni paytda, xuddi Navoiyga o‘xshab kitobat san’atining o‘ziga xos yo‘llaridan istifoda etib, hamma narsa «kof» va «nun»dan paydo bo‘lgan deya xulosa chiqaradi.

Hamdning keyingi baytlariga nazar tashlaylik:

Ba ahli jahon az tu omad rasul,
Bud az janobi tu radu qabul.
Kitob az tu omad bo hamdu ayon,
Ki hastim mo jumle bar hukmi on.
Tu onike az fazl bid’atho,
So‘xan karda ersol bar anbiyo.
Ki jabroil ham az tu, ey zufunun,
Nayovardi chizi ba g‘ayri az so‘xan.
Ba hukmi kamoli tu az osmon,
So‘xan rixanad bar qalbi payg‘ambaron.
Xususan har du saroyi,
Ba oyati rahmat sho‘di rahnamoyi.
Ba on mohitobon avji kamol,
So‘xan omad az tu, ey zuljalol [4].

Mazmuni: Ahli jahonga sendan rasul keldi, sen janobdan rad va qabul otliq narsalar paydo bo‘ldi. Sendan hamd va barcha dunyo hodisalari haqida ayon beruvchi kitob keldi. Biz hammamiz Sening va Sening kaloming hukmidamiz. Barcha fazilatli yangiliklarni so‘zga aylantirib, nabiylar

orqali bizga jo‘natding. Ey zufunun, hatto sening elching bo‘lgan Jabroil ham muqaddas so‘zlardan boshqa hech narsa keltirmadi. Sening kamoli osmoniy hukming bilan payg‘ambarlarning qalbiga so‘zlar quyildi. Xususan, har ikki olamda oyati rahmating bilan rahnamolikni o‘z qo‘lingga olding. Ey zuljalol, o‘sha mohitobonlarning avji kamolida sendan doimiy so‘z kelib turdi.

Ko‘rinadiki, mazkur hamdda ham Alloh qudrati va sifatlari bir-bir sanab o‘tilib, asosiy e’tibor so‘zning ilohiyligiga qaratiladi. So‘z ta’rifida Yusuf Xos Hojib ham, Navoiy ham, Jomiy ham, Muhammad Solih ham va boshqa shoirlar ham ko‘p yozganlar. Fazliyda ham bu sifat yangicha tarzda namoyon bo‘lmay, an’anaviylik qobig‘ida beriladi. Lekin ayrim o‘rinlarda Fazliy keltirgan sifatlashlar, tashbih-u istioralar mazkur hamdning ta’sirchan va mukammal darajada shakllanishini ta’min etgan. Chunonchi, bir o‘rinda «rad» va «qabul» so‘zlarini ta’zod qilib fikrini dalillayotgan bo‘lsa, boshqa o‘rinda ikki olamni «ikki saroy» deb istiora qiladi. Yoki an’anaviy bo‘lgan «zuljalol», «zufunun» kabi arabiy so‘zlar Allohning sifatlarini birmuncha siqiq tarzda berish imkonini yaratgan. Shuningdek, Jabroil alayhissalom nomini talmeh qilib keltirilishi so‘zning yanada qudrat kasb etishini ta’minlagan deyish mumkin. Yana «Sening hukming bilan payg‘ambarlar qalbiga hikmat so‘zi yog‘ildi» tarzida kelgan fikr jonlantirishning o‘ziga xos ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi.

Hamddagina emas, Payg‘ambarimiz (s.a.v.)ga durudlari, chahoryorlar madhida ham Fazliy mahoratining bir qator xos jihatlari ko‘zga tashlanadi. Jumladan, Rasulullоh (s.a.v.)ning birinchi xalifasi Abu Bakr Siddiqni or-nomus, diyonat, fasohatning yori tarzida sifatlaydi. Yoki Umar ibn Hattobni mo‘minlarning adolatli amiri deb ulug‘laydi. Usmon ibn Affonni esa «bud poyayi din qavi», ya’ni dinning quvvatli oyoqlari bo‘ldi, deb istiora qiladi. Hazrat Ali ibn Abu Tolib haqida ham masnaviydan ana shunday sifatlashlarni topish mumkin.

Fazliyning yana bir mahorati hamd, na’t, bag‘ishlovlar orasida uzilishlar mavjud emasligidadir. Shoir masnaviyning baytlarini ustalik bilan bir-biriga ulab yuboradi. Natijada, hamd bilan na’t, na’t bilan bag‘ishlov bir-birini to‘ldirib boradi. Hattoki, ana shu qismlar ichida ham Sayyid Umarxonga ishora qilib ketilgan o‘rinlar uchraydi. Masalan:

Salotin zi imdodi to‘ tojdor,
Havoqin ba unvoni to‘ bo iqtidor.
Beshagar nayo‘ftad zi tu soyayi,
Ba shohi bino sho‘d uro poyayi.

Mazmuni: Har qanday sulton Sening imdoding bilan tojdor bo‘lgan, har qanday xoqon Sening iqtidoring bilan xoqonlik maqomiga erishgan. Ular Sening soyang panohida bo‘ladi va shohlikka sen tufayli erishdilar. Shundan keyin bevosita Sayyid Umarxon nomi keladi:

Hamonoki Sayyid Umar podshoh,
Az on soye bar sar nihodi kuloh.

Mazmuni: Xususan, podsho Sayyid Umarxon ham Sening soyang tufayli boshiga toj kiydi. Bu o‘rinda «toj» so‘zi ma’nosini «kuloh» so‘zi bajaryapti. Mazkur so‘z jonli so‘zlashuv tilida va ayrim yozma manbalarda oddiy bosh kiyimi ma’nosida ishlatiladi. Fazliy masnaviyda bu so‘z ustiga katta ma’noni yuklagan va bu ma’no sultonlar, xoqonlar haqidagi fikrlarni istioraviy usulda to‘ldira olgan. Navbatdagi baytlarda Allohning nazari tushgani uchun Sayyid Umarxon adolatli podsho, shariat rahnamosi bo‘la oldi, shuning uchun xalq undan iftixor qiladi, degan fikrlar yotadi. Qizig‘i shundaki, Fazliy ayni shariat rivojiga alohida e’tibor qaratgan podshoh fisq-u fujurlarni yo‘q qilishga ham alohida diqqat qildi, degan fikrga urg‘u berishga harakat qiladi. Bu o‘rinda ham yashirin tazod usulidan ustalik bilan foydalangan:

Rivoji shariat bagardun rasonad,
Zi fisqu, zi bid’at nishone namonad.

Sayyid Umarxon zikrida Fazliy tanosib usulidan mohirona foydalangan. Agar yuqoridagi bayt bilan tubanda keltirilgan baytlar muqoyasa qilinsa, ana shu tanosib ko‘zga yaqqol tashlanadi:

Jahon xushdil az xirman jude ust,

Rizoyi xudovandi maqsudi ust.
Zi ehsoni u bahrivar xosu om,
Xaloyiq hame xushdilu shodkom.
Ba har mulk az adle u guftigo‘st,
Ba har shahr ovozayi nomi ust.

Mazmuni: Ahli jahon (xonlikdagi kishilar) uning adolatidan bahra olganligi uchun Alloh roziligi tufayli undan rozi bo‘ladilar. Har qanday xos va om (barcha kishilar) uning ehsonidan bahramand bo‘lib, shod va xushdil yashadilar. Shuning uchun xonlikning hamma hududida uning adolatidan so‘zlaydilar. Hamma hududda uning ovozasi yangraydi. Ana shu baytdagi Sayyid Umarxon sifatlarini yuzaga keltirgan so‘zlar tanosibning alohida ko‘rinishi sifatida ko‘zga tashlanadi. Keyingi satrlarda ham Sayyid Umarxon sifatlarini ifodalovchi bu kabi tanosiblar anchagina uchraydi. Sayyid Umarxon o‘z so‘zida xuddi Aflotundek hikmataso, xuddi boshqa hakimlar singari xiradmand, uning so‘z sehridan ilm-u fan kamol topadi. Har majlis uning rag‘batidan surur oladi, degan mazmunda ham fikrimizga dalillar bisyor. Shu bilan bir qatorda, Sayyid Umarxon ta’rifida mubolag‘aviy tasvirlarga ham ko‘p o‘rin berilgan. Aslida, mubolag‘aviy tasvir shu va tazkira ichidagi she’rlardan oldin keltirilgan masnaviy baytlarda yetakchi unsurlardan hisoblanadi. Har bir shaxs haqida tavsif berilar ekan, mualliflar uning sifatini bo‘rttirib bayon qiladilar. Sayyid Umarxon koinot amiri, uning taxti bir quyosh yoki boshidagi toj taxti xurshidining quyoshi deb ulug‘lanadi:

Amiri falak taxti xurshidi toj,
Chunon dod bar ahli ma’ni rivoj.[T.B.3.]

Boshqa bir o‘rinda esa, Sayyid Umarxon uchun jahonning boshqa podsholari misoli askar bo‘ldilar. Eng baland yulduz bo‘lgani uchun, hatto unga chin xoqonining ham mehri tushdi, degan ta’riflar beriladi:

Shabixun baxoqon zade lashkarash,
Sho‘de Xisravone jahon chokarash.
Ba u omade az bo‘land axtari,
Zi xoqoni chin xatti farmonbari.[T.B.3.]

Shunday qilib, muqaddima masnaviydagi hamd, na’t, madh va bag‘ishlovlar o‘z mazmunidan qat’i nazar, mahorat bilan bunyod etilgan satrlar deyish imkonini beradi. Chunki Fazliy e’tiborda tutgan har bir zot yoki shaxsning sifatlari to‘laqonli tarzda bayon etiladiki, unda shoirning badiiy mahorati an’anaviylik va yangicha ko‘rinishlarda ko‘zga tashlanadi. Natijada, muqaddimada aytilishi zarur bo‘lgan har bir fikr ahli fasohat va boshqalarga tez hamda oson yetib boradi. Muqaddima masnaviylarning keyingi o‘rinlarda tazkirada zikr etilgan shoirlarning sifati, biror hududga tegishliligi xususida gap borar ekan, ularda ham Fazliy o‘zining shoirona salohiyatini teran namoyon qilishga harakat qilgan. Xususan, masnaviy muqaddimaning shoirlar nomlari zikr etilgan o‘rinlarida har bir qalam ahlining biror bir sifatini alohida tavsif qilishga erishadi. Bunda Fazliy tashbeh, tamsil, tanosib, sifatlash, husni ta’lil singari badiiy tasvir vositalarini shunday mahorat bilan ishlatadiki, u orqali muayyan bir shoirning ijodkorlik salohiyati haqida to‘liq tasavvur paydo bo‘ladi. Chunonchi, *Xoja Kalonni «oliynasab», «sarafrozi saodat», shoir Adoni «suxan bog‘ida bulbul», shoir Vazirni «sarnuqtai sinjoni olim», shoir Nolani «quddusi avliyo», shoir Mir Asadni «zubdai dahr», shoir Ma’yusni «bo‘zo‘rgi oliyjanob», «zarif va hushyor», shoir Mujrimni «xojai pokdil», shoir Ramziyni «xojai komkor», shoir G‘oziyni «g‘azalhoi shirinu dilkusho», shoir Mirzo Sharifni «xiradmand», shoir Xotifni «tab’i ravon», shoir Nusratni «bo viqor», shoir Nodirni «mardi sohibkamol», shoir Maxviyni «fozili nomvor», shoir Qalandar Kosoniyni «fardi ba sinoat», shoir Qori Qunduziyni «xushkalom», shoir Behjatni «qobilsuhbat», shoir Kasratni «fozil dilpazir», yana shoir Nodirni «bulbulta’b» degan ta’riflar bilan madh etadi.*

Хожа Калонни	***“олийнасаб”, “сарафрози саодат”***
шоир Адони	***“сухан богида булбул”***
шоир Вазирни	***“сарнуқтаи синжони олим”***
шоир Нолани	***“қуддуси авлиё”***
шоир Мир Асадни	***“зубдаи даҳр”***
шоир Маъюсни	***“бўзўрги олийжаноб”, “зариф ва хушёр”***
шоир Мужримни	***“хожаи покдил”***
шоир Рамзийни	***“хожаи комкор”***
шоир Ғозийни	***“ғазалҳои ширину дилкушо”***
шоир Мирзо Шарифни	***“хирадманд”***
шоир Хотифни	***“табъи равон”***
шоир Нусратни	***“бо виқор”***
шоир Нодирни	***“марди соҳибкамол”***
шоир Махвийни	***“фозили номвор”***
шоир Қаландар Косонийни	***“фарди ба синоат”***
шоир Қори Қундузийни	***“хушкалом”***
шоир Беҳжатни	***“қобилсуҳбат”***
шоир Касратни	***“фозили дилпазир”***
яна шоир Нодирни	***“булбултаъб”***

Fazliy o‘zi haqida so‘z borganida, masnaviy muqaddimada shu anjumanning bir xokisor bandasiman, o‘ziga, ya’ni Sayyid Umarxonga biror yaxshi so‘z aytolmayman. U zot ilm va yuksaklik qavmining qatorida tursa, men kim edimki, hisobga kirsam. Shunday bo‘lsa ham, ey nomdor zot, o‘zimning qadrimni Sayyid Umarxon nomiga bitgan «Zafarnoma» bilan sal bo‘lsa-da, ko‘taraman, deya qayd etadi. Tazkiraning boshqa bir joyida Fazliy o‘zining Amir Umarxonning «On sho‘xki...» deb boshlanadigan g‘azaliga payrov qilib yozgan bir g‘azalini keltirar ekan, mana bularni qayd etib o‘tadi:

Manam Fazlii nomvar dar zamin,
Nizomii asri xudam dar suxan.
Ba guftor doram zi Jomi nishon,
Ba ash’ori turki Navoi bayon.
Mazomini masturi rozi man ast,
Hamin yak g‘azal zi sozi man ast.
Ba qadri suxan yoftam iqtidor,
Shudam payravi hazrati shahriyor. [T.B.111]

Mazmuni: Men Fazliy shu zamonda nomi chiqqan bir shoirman. So‘zda o‘z asrimning Nizomiysiman. So‘zda Jomiydan nishonalarim bor. Turkiy she’rni xuddi Navoiydek bayon qila olaman. Yashiringan mazmunlar mening sirimdandur, bu bir g‘azal ham mening sozimdandur. So‘zda shunday kuch-qudrat topdimki, Shahriyor hazratlariga payrov qilishga jur’at etdim.

Masnaviy mazmunidan shu narsa ayon bo‘ladiki, Fazliy bu o‘rinda faxriya usulini qo‘llagan. Chunki oldingi fazllarda Fazliy o‘zini bir qadar past tutadi. Ayrim masnaviylarda esa, faxriya usulini e’tiborda tutib yoki shoirlar haqidagi maqtov baytlarning mohiyatidan kelib chiqib, o‘zini nokamtar tutsa ham, bularni boshqa faxriyalar qatorida qabul qilish adolatdan bo‘ladi.

Tazkira ichida har bir g‘azal yoki boshqa janrdagi she’rlar oldidan keladigan masnaviylarda ana shunday balandparvoz so‘zlar ko‘p ishlatilganini «Majmuai shoiron»ning muhim belgisi sifatida baholashga arziydi. «Majmuai shoiron»gacha yaratilgan boshqa tazkiralarda, xususan, Navoiyning «Majolis un-nafois» yoki Hasanxoja Nisoriyning «Muzakkiri ahbob» kabi tazkiralarida bunday holat deyarli kuzatilmaydi. Mualliflar zikr etilayotgan nomga real yondashadi, ularning sifatlarini ham, qusurlarini ham tilga olib o‘tadi. «Majmuai shoiron»da

maqtov birlamchi rejaga chiqqanligi uchun, shoirlar haqidagi masnaviylarda yangicha sifatlashlar, tashbehlar, tamsil va husni ta'lillar, talmeh va tajnislar, xullas, badiiy san'atlarning madh va bag'ishlovlardagi alohida bir majmuasi paydo bo'lganini kuzatish mumkin.

Masnaviy-ma'lumotlarning badiiy saviyasini aniqlashda muqaddima (buni debocha deyish ham maqsadga muvofiq hisoblanadi)da ishlatilgan badiiylik unsurlari alohida ahamiyat kasb etishi aytib o'tildi. Yana shuni qo'shimcha qilish lozimki, tazkiradagi shoirlarning tasniflarida xo'jasta guruhiga kiruvchilar deb Shayxulislom, Mavlaviylar nomini tilga oladi va ular haqida alohida tashbehlar ishlatadi:

Xo'jasta guruhi maloik misol,
Ki dorand ba hamdu haq ishtig'ol. [T.B.3]

Mazmuni: Xo'jasta guruhi – Xudo hamdi bilan mashg'ul shoirlar xuddi farishtalar misolidir.

Ko'rinib turibdiki, bu o'rinda ishlatilgan «maloikmisol» tashbehi mubolag'aviy tasvirni yuzaga keltirayotgan bo'lsa-da, shu toifa shoirlarning ish amal va sifatlarini to'laqonli tasvirini berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Boshqa bir guruhni payrovnavis shoirlar tashkil etadi. Bular mualliflar tilidan «ba ta'bi shoh» deb ta'riflanadi. Ular Amiriy she'rlariga payrovlar bitadilar va bularning barchasi Sayyid Umarxon didiga mos keluvchi asarlardir. Shu sababli, muqaddimada shoirlarning bu toifasi haqida shunday yozilgan:

Guruhi digar zumrash shoiron,
Buvad har yaki zufununi zamon.
Hama bar shohi farmonpazir,
Namakxȳri xoni atoi Amir. [T.B.11]

Mazmuni: Yana boshqa guruh shoirlar toifasi ham borki, ularning har biri ilm va fazilat sohibidir. Ularning barchasi shoh dargohida farmonbardor (buyruqni bajaruvchi) va Amirning xayru ehsonidan bahramanddurlar. Ana shu toifa shoirlar vasfida mualliflar turli xil tasvir usullari va badiiy vositalarga murojaat etib boradilar. Chunonchi, shoir Xotifning «ustindadur» radifli payrov g'azalini keltirish avvalida uni «ba ta'bi shoh» shoir ekanligini ta'riflab, tubandagicha masnaviyni keltiradi:

Erur Xotif ul shoiri dilpisand,
So'z ayturg'akim, iqtidori baland.
Xayoli aning har so'zga raso,
So'zida aning hech yo'qdir xato. [T.B.256]

Muallif xo'jandlik Xotifni «shoiri dilpisand» – dilni rom etguvchi shoir deyish barobarida yana bir sifatlashni butun bir misra davomida keltiradi: «So'z ayturg'akim iqtidori baland». Keyingi baytda uning shoirlik iqtidorini soddagina yo'l bilan yoritib beradi: Xotif so'z ayturda (she'r yozishda) xayoli raso shoirlar qatorida turadi va uning she'rlari badiiy jihatdan ancha mukammal, deyiladi. Navbatdagi satrda: «So'zida aning hech yo'qdur xato» ana shu sodda fikr Xotifning ijodiy salohiyatiga urg'u berish tarzida ko'rinadi.

Boshqa bir she'r taqdimotida yana Xotif haqida masnaviy darj qilinadi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, Xotif Xo'jandiy haqida samimiy madhiyalar, uning ijodiy mahorati haqida yuksak baholar tazkiraning bir necha o'rnida uchraydi. Tubandagi qo'shbaytda ishlatilgan badiiy so'zlar - *fozil, latif, pisanditar, arjumand, fozili nuktadon*- Xotifning siyrati va shoirlik iqtidorini anchayin keng yoritib beradi:

Buvad Xotif az foziloni Xo'jand,
Latifi pisandidavu arjumand.
Qasoyidu ba madhi shahi komron,
Basi gufta on fozili nuktadon.[T.B.130]

Tarjimasi: Xotif Xo'jandning aziz va latif fozillaridan edi, omadli shohning maqtovida chiroyli qasidalar aytgan.

Boshqa bir o'rinda xuddi shunga o'xshash tasvir yana takrorlanadi:

Zi ash'ori arbobu fazli hunar,
Buvad she'ri Xotif pisanditar.[T.B.30]

Tarjimasi: Arbobi fazllar (aql egalari) ash'orlari orasida Xotifning she'rlari eng e'zozlisi (hurmatlisidir).

Yana bir qo‘shbaytda esa Xotif siyrati va iqtidoridagi boshqa sifatlar xususida so‘z boradi:

Nazokat ado Xotifi nikrav,
Ba diqqat zi iqron rabudi garov.
Zaki ta'bu donou sohibkamol,
Gulafshon buvad zi bahor xayol. [T.B.169]

Yoki Xotifning bir g‘azalini keltirishdan oldin quyidagi o‘zbekcha fazlni keltiradi:

Man Xotif faslidin na deyin so‘xan,
Erur har she'ri misli durri Yaman.
Xayoli daqiqu barjasta erur,
Ko‘rgil bu g‘azalni nechuk xush bo‘lur. [T.B.219]

Baytdagi «*Har sheri misli durri Yaman*» tashbehi an'anaviy bo‘lib, ko‘proq ma'shuqa nazokatini, xususan, ma'shuqaning oppoq (dur singari) tishlarini tasvirida ishlatilgan. Fazliy baytida she'rni Yamanning porloq durlariga qiyos etish bilan yangicha tashbeh yaratgan deyish mumkin. Keyingi baytdagi «daqiq» (ma'nodor) va «barjasta» (mashhur) sifatlashlari ham ushbu tashbihni yanada to‘ldiradi.

Shunisi e'tiborliki, tazkira ijodkorlari qaysi o‘rinda muayyan bir shoirni darj va fazl etmasinlar, ularning tavsifida bir-biriga o‘xshamagan tashbeh va tamsillarni topadilar. Natijada, har bir shoir haqidagi darj va fazllar yangicha ko‘rinish kasb etib boradi. Masalan, Xijlat haqidagi debochada ham, «ustindadur» payrov she'ri keltirilishidan avval ushbu fazl beriladi:

Ado fazli xushgo‘y Xijlat erur,
So‘zi barcha donishg‘a hujjat erur.
Erur shabnami gulistoni hayo,
Kim ul so‘z quyoshiga erdi raso. [T.B.259]

Ana shu fazldagi *«fazli xushgo‘y»* izofasi Xijlatning shoir sifatidagi iqtidorini g‘oyat siqiqlik bilan bayon etadi. Keyingi ikki misra buni yanada to‘ldiradi; *«shabnami gulistoni hayo», «so‘z quyoshi»* istioralari fikrning yanada chiroyli chiqishini ta'minlagan. Yoxud Ma'dan haqida so‘z borganda xuddi Navoiy Nizomiy Ganjaviyni madh etgan kabi uning taxallusiga mos keladigan so‘zni topa biladi va o‘ziga xos tanosib usulini yuzaga keltiradi:

Buvad Ma'dan on koni ganji suxan,
Buvad qaryai Pang‘oz uro vatan. [T.B.153]

Mazmuni: Ma'dan so‘z xazinasining konidir, Pang‘oz qishlog‘i unga maskan hisoblanadi. Mazkur o‘rinda ishlatilgan «*ma'dan*» so‘zining lug‘aviy ma'nosi «*ganj»(kon)* so‘zi bilan uyg‘unlik hosil qilib, shoir Ma'dan haqidagi tasavvurni yanada kuchaytirgan.

Ziynat Xo‘jandiy ta'rifida esa o‘ziga xos ishtiqoq yaratadi:

Yaki Ziynat on ziynatfazoi nazm,
Zi nuri xirad mahfiloroi nazm. [T.B.134]

Mazmuni: Ziynat ham bir nazm ziynat fazosi erur. Nazmda nuri xirad mahfilorosi erur.

Bu holat, ayniqsa, shoir Mutrib fazlida yanada yorqinroq ko‘rinadi:

Digar Mutrib, on sozgari suxan,
Ki dar nozuki basta tori suxan.
Ba qonuni tavri jahon loubol,
Ba mashqi suxani neku nozikxayol. [T.B.259]

Mazmuni: Mutrib so‘zning sozandasi bo‘lib, uning nozik ijrosidan (yaralishlaridan) so‘z torlari jaranglaydi. Uning «qonuni» (musiqa asbobi)dan chiqqan mashqlardan ahli san'at kishilari lol-u hayron bo‘ladilar.

Yana Komil haqida so‘z borganida ham xuddi Mutribni kuy ijodkori degani kabi Komil so‘zini iyhom qilib ishlatadi:

Chi Komil xiradmand komili ayyor,
Bud mavludi u zi shahri Buxor. [T.B.359]

Mazmuni: Komil xuddi podsholardek komil va go‘zal bo‘lib, u Buxoro shahrida tavallud topgan.

Tazkirada shoir Rosih haqida gap borganida, masnaviy baytlar ayni taxallus sifatida tanlangan. «Rosih» so‘zining atash ma’nolaridan kelib chiqib fazl beriladi:

Haqiqatparvar Rosihi xushmand,
Ba arbobu fazli hunar arjumand.
Ba fiqhu ahodis nutqi kalom,
Zi ozodata’boni olimaqom.
Sunufu mazominu ilmu funun.
Nagardida az fikri safash birun. [T.B.182]

Mazmuni: G‘oyat xushchaqchaq bo‘lgan Rosih har bir narsaga haqiqat bilan qarar edi. U fazli hunarning hurmatli arboblaridan bo‘lib, fiqh va hadislar sharhida, kalom (Qur’oni karim) nutqida ozodata’b oliy maqomda bo‘lgan. Ilm-u fanning mazmuniy tabaqalari haqida gapirilsa, uning fikri har doim to‘g‘ri bo‘lib chiqardi.

Tazkirada Muhammad Sharif Gulxaniy haqida ikki xil qarash bor. Ushbu baytlarda dastlab Gulxaniyga dono shoir, nuktadon deb ijobiy baho beriladi:

Ko‘rub bu g‘azal vaznini Gulxani
Tatabbu’ bila qildi tazmin ani.
Erur ul bu dargohning bandasi
Duogo‘ylarning sarafkandasi. [T.B.250]

Shoirning «angushtam» radifli g‘azali oldidan quyidagi fazl beriladiki, unda Gulxaniy qattiq tanqid qilinadi:

Bu Jur’atki, avval edi Gulxaniy,
Erur barcha hindiyon demaklik fani.
Xayoli buzuq, diqqati beasos,
Ani fahmini qil bu so‘zdin qiyos.
Dedi bu g‘azalni qo‘ydi bino,
Na ma’nisi mahkam, na lafzi bajo. [T.B.142]

Xullas, debochadagi masnaviy darj va fazllarda, biror she’r oldidan keltirilgan tavsiflarda tazkira mualliflarining badiiy mahorati anchayin aniq ko‘rinadi. Fazllarda eng ko‘p qo‘llangan tasviriy vosita, bu sifatlashdir. Sifatlashlar barobarida istiora, tashbih, iyhom va boshqa badiiylik unsurlari keng istifoda etiladi.Yuqorida keltirilgan tasniflardan ko‘rinadiki, «Majmuai shoiron» tazkirasi o‘zbek adabiyotida so‘z san’atining yuksak namunasi sifatida baholanishga loyiq durdona asarlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ҳофиз Хоразмий. Девон. – Тошкент: Шарқ, 2018. – Б. 184.
2. «Мажмуаи шоирон». Тошбосма нусха. – Илъин матбааси, 1900. – Б. 5.
3. Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. Тўла асарлар тўплами. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 2011. – Б. 169.
4. Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. Тўла асарлар тўплами. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 2011. – Б. 2.

MAY TUSHUNCHASINING NAVOIY G‘AZALIDAGI TAVSIFI

Fayzullo MUSAYEV
Oriental universiteti
Arab filologiyasi kafedrasi o‘qituvchisi
musayevfayzullo76@gmail.com

Annotatsiya: Muallif o‘z maqolasida Alisher Navoiy she’riyatiga xos badiiy jihatlardan biri may obrazi haqida to‘xtaladi va uni Alisher Navoiy g‘azallari to‘plami “Xazoyin ul-ma’oniy”dagi bir necha g‘azallardan olingan baytlar asosida tahlil qilishga harakat qiladi.

Kalit so‘zlar: *may, mayi ishq, qadah, vahdat mayi, jom, sing‘on safol, dayr, ko‘ngil ko‘zgusi.*

Аннотация: Автор статьи останавливается в ней на образе “май-вино” в поэтическом творчестве А.Навои и старается раскрыть несколько сторон образа “май-вино” на основе некоторых бейтов, приведенных различных газелей из поэтического сборника А.Навои “Хазойин ул-маъоний”.

Ключевые слова: *май, майи ишк, чаша, вахдат майи, чаша, сингон сафол, дайр, зеркало сердца.*

Abstract: The author of the article dwells on the image of “may-wine” in the poetic work of A. Navoi and tries to reveal several sides of the image of “may-wine” on the basis of some beits, cited various ghazals from A. Navoi’s poetic collection “Khazoyinul-maoniy”.

Key words: *may, mayi ishk, bowl, vahdat mayi, bowl, singon safol, dayr, mirror of the heart.*

Islom olamida shariat hukmi bilan harom qilingan xamr (mast qiluvchi ichimlik) nima uchun yo‘q bo‘lmadi?! Aksincha, deyarli barcha musulmon shoirlar ijodida o‘z tabiati va mavqega nisbatan lozim va loyiq bo‘lganidan, har holda, ortiqroq maqom-u manzilatlarda kuylandi?! Kuylandi-yu, lekin o‘z giriftorini malomatlarga qo‘ydi. To‘g‘ri, turli sabablar bilan yuzaga keluvchi kishilar malomatidan, odatda, hech kim omon qolmaydi, jumladan, oshiqlar va, ayniqsa, mayxo‘rlar. Bu malomatdan omon qolishi uchun u, Navoiy ta’biricha, may jomini yuziga doimo qalqon qilishi kerak va bu may shu qadar qizil bo‘lishi kerakki, o‘z bo‘stonini sug‘orur mahalda dehqon o‘sha maydan bir tomchisini suvga qo‘shib yuborsa, ekkan sariq guli qizil bo‘lib chiqsin:

Bu fasl ichra malomat toshidin solim birav qolg‘ay,
Ki chekkay may simurmoqda yuzig‘a jomi qalqonin.
Mayikim, otashin chiqqay sariq gullar, agar dehqon
Tomuzsa qatrayi ondin sug‘orur chog‘da bo‘stonin.

Lekin bunday may bormi, bo‘lishi mumkinmi? Bo‘lsa qayerda?.. Kishini o‘ziga rom etib, mast qiluvchi omil, avvalo, faqat xamrgina emas, qolaversa, ishq va sevgi omilining shavqu zavqi ham maynikidan ortiq bo‘lsa bor, ammo undan kam emas. Shu sababli:

Ishq aro yuz ming malomat o‘qig‘a bo‘ldum nishon...
Mayi ishq chun Navoiyni jahonda qildi rasvo,
Bu qadahni, do‘stlar, emdi oning qoshidin oling.

deya shikoyat qilgan shoir boshqa o‘rinda:

Oshiq bo‘lurda bilmadim, men notavonu xastakim,
Hajr o‘lsa g‘am kuydurgusi, vasl o‘lsa yor o‘lturgusi.

deb zorlanadi va izlana-izlana boshqa o‘rinda

Jon base qildim fido, oromijone topmadim...

desa, yana bir o‘rinda hafsalasi pir bo‘lgan shoir:

Bir kamon abro‘da tuzlukdin nishone topmadim

deydi. Nihoyat, umidini uzmagan shoir, ma’shuqi haqiqiyni - DILDOR MA’BUDini topadi:

Meni bir noma birla dilbarim yod etmadi hargiz,
Qulin qayg‘udin ul xat birla ozod etmadi hargiz

Oshiq ko‘ngil endi Hofiz kabi o‘sha DILDORidan bir lahza ham g‘ofil bo‘lmaslikni o‘ziga shior etadi va bu yo‘lda jahondan kechadi:

Desang, Navoiy, jon aro mahbub o‘lg‘ay jilvagar,
Avval ko‘ngil ko‘zgusidin mahv ayla naqshi mosivo (undan o‘zga orzu) va, kerak bo‘lsa, jonini minnatdorlik ila taqdim qilishga tayyor:
Vasli aro gar o‘lturur, jonimg‘a yuz ming shukr erur,
Chun qolsam ondin bir zamon, hijroni zor o‘lturgusi...

Ishq mayi shavqu-zavqidan mastdek ko‘ringan shoir malomatchilarga qarata:

Sen gumon qilg‘ondin o‘zga jomu may mavjud erur,
Bilmayin nafy (inkor) etma bu mayxona ahlin, zohido...

deya ishq mayining vasfu ta’rifini “Xazoin ul ma’oniy”ning birinchi g‘azalida quyidagicha bayon etadi:

Ashraqat min aksi shamsil-ka’si anvorul-hudo,
Yor aksin mayda ko‘r, deb jomdin chiqti sado.

Kosadagi quyosh aksidan to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatuvchi nurlar chiqdi.

Yoring jamolini ko‘rmoqchi bo‘lsang, uni ishqing mayida ko‘r, deb dil jomidin sado chiqti.

G‘ayr naqshidin ko‘ngul jomida bo‘lsa zangi g‘am,
Yo‘qtur, ey soqiy, mayi vahdat masallik g‘amzudo.

Agar har qanday o‘zga orzudan ko‘ngul jomida g‘am zangi qoladigan bo‘lsa, vahdat mayi (yor bilan birga bo‘lish ishqi)dek o‘sha g‘amni arituvchi narsa yo‘q.

Ey xush ul maykim, anga zarf o‘lsa bir sing‘on safol,
Jom o‘lur getinamo, Jamshid ani ichgan gado.

Naqadar yaxshi ul ishq mayikim, uning idishi ishqdan ezilgan bir siniq ko‘ngil bo‘lsa, o‘sha mayga idish bo‘lgan dil jomi o‘zida jahonni ko‘rsata oladigan bo‘ladi, uni ichgan gado esa Jamshidga aylanadi.

Jomu may gar bo‘yladur, ul jom uchun qilmoq bo‘lur

Ko‘ngil jomi va ishq mayi agar bunday bo‘lsa, ul jom uchun qilsa bo‘lur

Yuz jahon har dam nisor, ul may uchun ming jon fido.

Dayr aro hush ahli rasvo bo‘lg‘ali, ey mug‘bacha,

Jomi may tutsang meni devonadin qil ibtido.

Bu mayxonada aqli rasolarni ahli rasvo qilish uchun, ey, may ulashuvchi yigitcha,

Jomi may tutsang, men - devonadan boshla.

Toki ul maydin ko‘ngul jomida bo‘lg‘ach jilvagar

Chehrayi maqsud, mahv o‘lg‘ay hamul dam moado.

Toki maqsud chehrasi ko‘ngil jomidagi o‘sha mayda

Ko‘rinib, jilva qilgach, undan boshqa orzu qolmaydi: o‘z-o‘zidan yo‘q bo‘ladi.

Vahdate bo‘lg‘ay muyassar may bila jom ichrakim,

Jomu may lafzin degan bir ism ila qilg‘ay ado,

Dildagi ishq aro shunday bir vasl birligi nasib bo‘ladiki,

(“sen”-“men”lik tugab), jom (dil), may (ishq) demoqchi bo‘lgan kishiga faqat “u” deyishgina qoladi.

Sen gumon qilg‘ondin o‘zga jomu may mavjud erur,

Bilmayin nafy etma bu mayxona ahlin, zohido...

Sen o‘ylaganingdan boshqa maykosa, boshqa may ham bor bu dunyoda, ey zohid,

Bilmasdan bunday mayxona kishilarini inkor etib, yaramasga chiqarma!

Tashnalab o‘lma, Navoiy, chun azal soqiysidin

«Ishrabu yo ayyuhal-atshon» (Ichinglar, ey tashnalar) kelur har dam nido.

Hazrat Alisher Navoiy o‘zining ushbu g‘azalini Hofiz Sheroziy kabi arabcha satr bilan boshlab, arabcha satr bilan tugatgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами.
2. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. I том. «Бадойиъ ул-бидоя», девон. – Тошкент. 1983.
3. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. II том. «Наводир ун-ниҳоя», девон.
4. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. III том. «Ғаройиб ус-сиғар», девон.
5. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. IV том. «Наводир уш-шабоб», девон.
6. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. V том. «Бадойиъ ул-васат», девон.
7. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. VI том. «Фавойид ул-кибар», девон.
8. Ҳофиз Шерозий девони.

“KITOB AL-QAND” ASARI IJTIMOIY-TARIXIY MANBA SIFATIDA

Nodira SADULLAEVA
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Mumtoz filologiya va adabiy manbashunoslik
kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Tafsir, fiqh, kalom, tarix va balog‘at sohalarida qalam tebratgan Abu Hafs an-Nasafiy zamonasining yetuk olimlaridan biri bo‘lib, bizgacha o‘zidan boy ma’naviy meros qoldirgan. Olimning bizgacha yetib kelgan «Kitob al-qand» asari Movarounnahr ijtimoiy hayoti haqida ma’lumot beruvchi qimmatli manbalardan biridir. Ushbu maqolada asarning topilishi, unda Samarqand ijtimoiy-ma’naviy hayotining yoritilishi masalasi xususida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *hadisshunoslik, fiqh, mufassir, muhaddis, mutakallim, ijtimoiy hayot.*

Аннотация. Абу Хафс ан-Насафи, работавший и создавший много книг в сфере юриспреденции и истории, одним из выдающихся ученых своего времени по науке балогат, калам и тафсир, оставил нам своё богатое духовное наследие. Книга ученого дошедшая до нас «Китаб ал-Канд» является одним из ценных источников информации о социальной жизни Моваруннахра. В данной статье рассказывается об открытие этой работы и о социально-духовной жизнь Самарканда.

Ключевые слова: *хадис, юриспруденция, толькователь, мухаддис, мутакаллим, социальная жизнь.*

Annotation. Abu Hafs al-Nasafi, who worked and created many books in the field of jurisprudence and history, as well as the science of balagat, kalam and tafseer, was one of the outstanding scientists of his time, and left us his rich spiritual heritage. The book «Kitab al-qand», which has come down to us, is one of the valuable sources of information about the social life of Movarunnahr. This article tells about the discovery of this work and about the social and spiritual life of Samarkand.

Key words: *hadis, jurisprudence, interpreter, muhaddis, mutakallim, social life.*

Abu Hafs an-Nasafiyning «Kitob al-qand» asari ijtimoiy soha bo‘yicha eng ko‘p ma’lumot beruvchi asardir. Bu manba XX asr boshlariga qadar yo‘qolgan asarlar qatorida sanalib kelinar edi. Uning topilishi Vatanimiz tarixini, xususan, Samarqand hadis ilmi tarixini yoritishda katta yangilik bo‘ldi.

«Kitob al-qand» asarining nodir qo‘lyozmasi 1967-yilda Istanbulning Sulaymoniya kutubxonasidan topildi. «Turhan Valde» fondida 70-raqam ostida saqlanayotgan bu qo‘lyozmani Fuod Sezgin, avvaliga, Abul Abbos Ja’far ibn Muhammad al-Mustag‘firiyning «Tarix Samarqand» nomli biografik qomusiga an-Nasafiy tomonidan «Zayl» (davom, qo‘shimcha) tarzida yozilgan «al-qand fi tarix ulamo Samarqand» nomli asarni nusxa deb taxmin qildi[1]. Ammo u al-Mustag‘firiy asarining zayli emas edi. Bunga turtki bo‘lgan vaj shu ediki, «Kitob al-qand» asarining bu nusxasida 169 yerda al-Mustag‘firiydan ma’lumot keltiriladi. Bundan ma’lum bo‘ladiki, aksincha, Abu Hafs o‘z asarini al-Mustag‘firiyga zayl tarzida yozmagan, balki uning asaridan manba sifatida foydalangan.

Mazkur qo‘lyozma haqida 1986 - yilda J.Weinberger maqola yozdi. U Parij va Istanbul nusxalarini solishtirib, «XII asr Transoksianaga tegishli ikki biografik lug‘atning muallifligi» nomli maqolasini e’lon qildi[2]. Tadqiqotchi Istanbul qo‘lyozmasini o‘rganib chiqib, muallif manba sifatida nafaqat al-Mustag‘firiydan (169 marta), balki Abu Sad al-Idrisiydan (421 marta) va boshqa biografik qomuslardan foydalanganligini aniqladi. Bu o‘z navbatida J.Weinbergerga mazkur qo‘lyozma biror asarning davomi emas, balki ilk islom davridan to XII asrgacha Samarqandda yashab ijod etgan muhaddis olimlar tarjimayi holini o‘zida jam etgan boshqa bir

asarning noto‘liq nusxasi ekanligi haqida xulosa chiqarishga asos berdi. Bu esa Abu Hafs an-Nasafiyning «Kitob al-qand fi ma’rifat ulamo Samarqand» asaridir.

2001- yilda «Kitob al-qand» Usmonxon Temurxon o‘g‘li va Baxtiyor Nabixon o‘g‘li tomonidan o‘zbek tiliga qisqartirgan holda tarjima qilinib, ommabop tarzda nashr etildi[3]. Natijada, faqat o‘zbek tilida o‘qiy oladigan keng kitobxonlar ommasi bu kitob bilan qisman bo‘lsa-da tanishish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Ammo bu tarjima «Kitob al-qand» Turkiya qo‘lyozmasining Nazar Muhammad al-Forobiy tomonidan amalga oshirilgan nashridan qilingan bo‘lib, mazkur nashrda yo‘l qo‘yilgan xatolar unda ham takrorlanadi. Boz ustiga tarjimada ilm uchun g‘oyat zarur hadis *isnodlari*[1] tashlab ketilgan. Bu qabildagi qisqartirish o‘zbekcha nashrning ilmiy ahamiyatini pasaytiradi. Nashrda yana ba’zi juz’iy kamchiliklar ham uchraydi. Masalan, Ahmad ibn Nasr al-Atakiyning nisbasi «al-Atkiy»[5] shaklida berilgan va boshqalar.

O‘zbekistonlik tadqiqotchilar «Kitob al-qand» asarini «Qand», «Qandiya» yoki «Qandiya-i xurd» («Kichik qandiya») nomi bilan ma’lum ekanligini ta’kidladilar[6].

«Kitob al-qand» hadis ilmining *ilmul-rijol*[2] sohasiga tegishli tarixiy-biografik janrda yaratilgan asardir. Tarixiy-biografik asarlar arab adabiyotida juda keng tarqalgan. Musulmon jamiyatining o‘rta asrlardagi diniy madaniyati tarixini o‘rganishda ular katta ahamiyatga ega. Bu janrdagi ilk asarlar VIII asr oxiri-IX asr boshlarida yozila boshladi. Ibn Sad o‘zining asarida sahobalar va tobeinlarning tarjimai hollarini batafsil bayon qilgan. Biografiyalarni tartibga solishda ulardan islomni birinchi qabul qilganlar va Payg‘ambarga yaqin bo‘lganlarning nomlarini birinchi o‘ringa qo‘yadi.

IX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, to‘plam shakliga keltirilgan olti hadis majmualari yaratilganidan so‘ng, biografiyachilarning e’tiborlari ko‘proq bu to‘plamlarda uchragan roviylarning nomlarini to‘plash, ularning to‘g‘ri o‘qilishini ta’minlash hamda ishonchli va ishonchsizga ajratib, muhaddislar haqidagi maxsus biografik to‘plamlarni tuzishga qaratildi. Bu olti to‘plamning tuzuvchilari bu turdagi asarlarning birinchi mualliflari bo‘lib qoldilar[8]. Bu o‘rinda misol tariqasida Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriyning «Kitob ad-duafo», Ahmad ibn Ali an-Nasoiyning «Kitob al-kuno», Abu Bishr ad-Dulobiyning «Kitob al-asmo val-kuno» asarlarini keltirish mumkin. Ishga yangicha yondashuv biografiyalarning joylashuv tartibini o‘zgartirishni talab etdi. Masalan, Imom al-Buxoriy o‘zining «Kitob at-tarix al-kabir» asarida hadis roviylarining tarjimayi hollarini alifbo tartibida joylashtirdi[9].

Musulmon jamiyati hayotida yuz bergan o‘zgarishlar *tabaqot* janridagi asarlarning tarkib va tuzilishiga ta’sir ko‘rsatdi. Xalifalik tarkibidagi shaharlarda hadisga oid ilmlarning rivojlanishi alohida shahar va tuman an’anachilari tabaqalarining paydo bo‘lishiga olib keldi. Bunday ro‘yxatlar o‘sha shaharga tegishli sahoba va tobeinlarning tarjimayi hollari bilan boshlanib, undan so‘ng shu joydan chiqqan hadis roviylarining tarjimayi hollari berilgan. Muhammad ibn Hibbon al-Bustiyning «Kitob at-tabaqot al-isbahoniya», Solih ibn Ahmad al-Hamadoniyning «Tabaqot al-hamadoniyin» asarlari shu tartibda tuzilgan. Keyinroq yozilgan «shaharlar tarixi» janridagi asarlarning anchagina qismini hadisshunos, ilohiyotchilarning tarjimayi hollari tashkil etadi. Ammo bu janrdagi al-Xatib al-Bag‘dodiyning «Tarix Bag‘dod», Ibn Asokirning «Tarix Dimashq» va boshqa asarlarda bu shaharlarning sharafini bezab turuvchi mashhur kishilarning tarjimayi hollari, foydalanishga qulay bo‘lsin uchun, alfavit tartibida joylashtirilgan.

Movarounnahrda eng avval yaratilgan mashhur tarixiy-biografik asarlardan biri Abu Sad Abd ar-Rahmon ibn Muhammad al-Idrisiyning «Kitob al-kamol fi ma’rifat ar-rijol min ulamo Samarqand» asaridir. Bu asar bizgacha yetib kelmagan hisoblanadi. Ja’far ibn Muhammad al-Mustag‘firiyning Nasaf tarixi bo‘yicha yozgan asari ham yuqorida zikr etilgan asar kabi bizgacha yetib kelmagan[10].

---

[1] Исноd – ҳадисни нақл қилган ривоятчилар занжири.

[2] Илму-л-рижол – ҳадис илми ривоятчиларнинг биографиялари ҳақида хабар берувчи бир соҳаси.

Abu Hafs an-Nasafiyning «Kitob al-qand» asarida ham ulamolarning ismlari o‘ziga xos tarzda alifbo tartibida joylashtirilgan. Unda ismlar bosh harfiga ko‘ra guruhlarga jamlab, guruhlar alifbo bo‘yicha tartiblangan. Masalan, Xolid, Xalaf va hokazo kabi ismlardan so‘ng Dovud, Zakvon ismlari keladi. Ammo guruhlar ichidagi bir xil harf bilan boshlanuvchi ismlar o‘zaro alifbo tartibida emas, balki shaxslarning islom tarixida egallagan mavqei darajalariga ko‘ra, yashab o‘tgan davri bo‘yicha yoki mazkur shaxslarga nomdosh bo‘lishiga ko‘ra tartibga solingan. Masalan, arab alifbosiga ko‘ra Qutayba ibn Muslim nomi Qusam ibn al-Abbos nomidan oldin kelishi kerak edi, ammo asarda aksincha, Qutaybaning tarjimai holi tarixiylikka ko‘ra Qusamdan keyin keladi. Bundan tashqari, Ali ismli ulamolarning nomlari, ilk xalifalarning tarixiga ko‘ra, Umar va Usmon ismli shaxslardan keyin joylashtirilgan va h.k. Asarda tartib ismlar bo‘yicha bo‘lsa-da, nomdan avval olimning *laqab* va *kunyasi* berilgan.

«Kitob al-qand»da nafaqat Samarqand shahriga aloqador ulamolar, balki So‘g‘d viloyatidagi qishloqlar, kichik shaharlar, jumladan, Nasafga tegishli bo‘lgan ulamolar ham o‘rin olganlar. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, Abu Hafs an-Nasafiy «Samarqand» nomi ostida o‘sha davrdagi «So‘g‘di Samarqand»ni nazarda tutgan.

«Kitob al-qand» asarining qimmatli tomonlaridan biri shundaki, u bir qator bizgacha yetib kelmagan manbalarda mavjud bo‘lgan ma’lumotlarni beradi. Masalan, Movarounnahrda eng avval yaratilgan mashhur tarixiy-biografik asarlardan biri Abu Sad Abd ar-Rahmon ibn Muhammad al-Idrisiyning «Kitob al-kamol fi ma’rifat ar-rijol min ulamo Samarqand» asaridir. Bu Samarqand ulamolari haqida yozilgan bebaho manba bizgacha yetib kelmagan bo‘lsa-da, undagi ma’lumotlar keyingi davr mualliflarining asarlarida, xususan, Abu Hafs an-Nasafiyning «Kitob al-qand» asarida saqlanib qolgan. Abu Hafs o‘z asarida bu manbadan 421 joyda foydalangan[11]. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, al-Idrisiy asarining asosiy qismi «Kitob al-qand»da saqlanib qolgan.

«Kitob al-qand» asari boshqa manbalarni o‘zida saqlab qolishi bilan birga boshqa manbalar ham mazkur asarning yo‘qolgan qismlarini o‘zlarida mujassam qilgan. Masalan, Abu Bakr Ahmad ibn Ali al-Xatib al-Bag‘dodiy «Tarix Bag‘dod» kitobini ta’lif etishda Abu Sad al-Idrisiydan al-Husayn ibn Muhammad al-Muaddib orqali 38 yerda iqtibos keltirgan [12]. Abu Hafs an-Nasafiy ham aynan al-Idrisiyning asaridan foydalangan. Shuning uchun «Tarix Bag‘dod»da mavjud bo‘lgan Samarqand ulamolariga tegishli ma’lumotlar «Kitob al-qand»da ham mavjud bo‘lgan. Demak, an-Nasafiy asarining yo‘qolgan qismlarini tiklashda al-Bag‘dodiyning kitobidan ham foydalanish mumkin.

Bundan tashqari «Kitob al-ansob» asarining muallifi Abu Sad Abdulkarim ibn Muhammad as-Samoniy Abu Hafs an-Nasafiyni o‘z ustozlari qatorida sanab, uning «Kitob al-qand» asaridan juda ko‘p joyda foydalangan. As-Samoniy o‘z asarida 27 joyda Abu Hafs an-Nasafiy nomini tilga olib, u haqda ma’lumotlar beradi. [13] Shuning uchun ham «Kitob al-ansob» asari, shubhasiz, «Kitob al-qand» ma’lumotlarini to‘ldirishda asosiy manbalardan biridir. Ibn an-Najjor nomi bilan mashhur Abu Abdulloh Muhammad ibn Mahmud al-Bag‘dodiy «Zayl Tarix Bag‘dod» asarida Abu Hafs an-Nasafiyning shogirdi as-Samoniyning ma’lumotlaridan foydalangan. [14] Ibn an-Najjorning asari ham Samarqanddagi hadis ilmi tarixini tadqiq etishda qo‘shimcha manbalar qatorida turadi.

Abu Hafs an-Nasafiyning «Kitob al-qand» va «Muntaxab» asarlarida 1232 ta movarounnahrlik ulamoning tarjimayi holi berilgan.[3] Ular VIII-XII asrlarda ma’naviyatning turli sohalarida faoliyat olib borishgan. Kitobga, asosan, Samarqand shahri bilan bog‘liq bo‘lgan – bu shaharda tug‘ilgan, yashagan, faoliyat olib borgan, vafot etgan yoki qaysidir jihatdan shahar ma’naviy hayotiga ta’sir ko‘rsatgan ulamolarning nomlari kiritilgan. Ammo asarda Samarqand shahridan tashqari Dabusiya, Kushoniya, Kesh hamda Nasaf kabi shahar va qishloqlar bilan bog‘liq ulamolarning tarjimayi hollari ham ko‘plab uchraydi. Chunki yuqorida qayd etilganidek,

[3] Бу “Китоб ал-қанд” ва “Мунтахаб” асарларининг ҳозирда мавжуд қисмидаги аржимаи ҳолларнинг умумий сонидир.

muallif o‘z oldiga nafaqat Samarqand shahri, balki So‘g‘di Samarqand viloyati muhaddislari biografik lug‘atini tuzish vazifasini qo‘ygan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, mazkur asarda keltirilgan 950 dan ortiq hadis Samarqand ma’naviy hayoti turli jabhalaridagi muhitni – ilohiyot, axloq, siyosat, qonunchilik, qadriyatlar sohalarini aks ettiradi.

«Kitob al-qand» asari VIII-XII asrlardagi Movarounnahr, xususan, Samarqand ma’naviy muhitini, jumladan, hadis ilmi taraqqiyotini o‘zida aks ettirgan muhim va qimmatbaho manbadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sezgin F. Geschichte des Arabischen Schrifttums. – T. I. – Лейден. – 1967. – S. 353.
2. Weinberger J. The Authorship of Two Twelfth Century Transoxanian Biografical Dictionaries // Arabica, 1986. – T. 33. – P. 369-382.
3. Абу Ҳафс Умар ибн Муҳаммад ибн Аҳмад ан-Насафий. Ал-Қанд фий зикри уламои Самарқанд. Арабчадан қисқартириб таржима қилувчилар: Усмонхон Темурхон ўғли ва Бахтиёр Набихон ўғли. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2001.
4. Абу Ҳафс Умар ибн Муҳаммад ибн Аҳмад ан-Насафий. Ал-Қанд фий зикри уламои Самарқанд. Арабчадан қисқартириб таржима қилувчилар: Усмонхон Темурхон ўғли ва Бахтиёр Набихон ўғли. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2001. – Б. 8.
5. Уватов У. Самарқанд уламолари // Донолардан сабоқлар. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1994. – б. 62-65.
6. Шмидт. А.Э. Рецензия на книгу: Ал-Хафиз Шемс ад-дин Мухаммед б. Ахмед аз-Захабий. Мизан ал-и‘тидал фи накд ар-риджал // Записки Восточного отделения Императорского Русского археологического общества. – Т. XIX. СПб. – 1909. – б. 197.
7. Муҳаммад ибн Исмоил ал-Бухорий. Китоб ат-та’рих ал-кабир. 9 жилдли. – Байрут: Дор ал-кутуб ал-‘илмийа (йили кўрсатилмаган).
8. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия // Бартольд В.В. Сочинения. – Т. I. – М.: Издательство восточной литературы, 1963. – С. 60-61.
9. Weinberger J. The Authorship of Two Twelfth Century Transoxanian Biografical Dictionaries // Arabica, 1986. – T. 33. – P. 371.
10. Акрам Дийо’ ал-Умари. Маворид ал-Хатиб ал-Бағдодий фи-Та’рих Бағдод. – Димашқ-Байрут: Дор ал-қалам, 1395/1975. – Б. 276.
11. Абдуллоҳ Умар ал-Борудий. Фаҳорис // Ансоб. – Т. VI. – Байрут: Дор ал-фикр, 1419/1998.
12. Ибн Нажжор ал-Бағдодий. Тариху-л-Бағдод. – Ж. 1. – Байрут: Дору-л-кутубу-л-илмия, 1973. – Б. 100.

AFG‘ONISTONDA NAVOIYSHUNOSLIK

Azizulla AROL
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Afg‘onistondagi navoiyshunos olimlar haqida qisqacha ma’lumot beriladi. Ular yozgan yoki nashr qilgan kitob hamda maqolalarga oid ba’zi fikrlar keltiriladi.
Kalit so`zlar: *Alisher Navoiy, Afg‘oniston, olimlar, navoiyshunoslik*

Аннотация. В аданной стате приводятся краткие сведения об ученых навоиведах Афганистана. Приводятся некоторые мнения об их исследованиях и опубликованных книг и статей.
Ключевые слова: *Алишер Навоий, Афғонистон, олимлар, навоиведение.*

Annotation. This article provides a brief overview of Nawai scholars in Afghanistan. Here are some ideas about the books and articles they have written or published in the past fifty years in Afghanistan.
Key words: *Alisher Navai, Afganistan, scholars, Hirat, Navai studies.*

Bashariyat olamida o‘chmas iz qoldirgan olamshumul adib Alisher Navoiy hayoti va ijodi Afg‘onistonda ham chuqur o‘rganildi. Buyuk mutafakkirning mislsiz g‘azallari, she’rlari uning hayoti va ijodiga oid maqolalar gazeta va jurnallar sahifalaridan munosib o‘rin olib keldi. joy olmoqda. Uning o‘lmas asarlari kitob tarzida qayta nashr etildi va unga bag‘ishlangan o‘nlab kitoblar chop etildi. Bu an’ana 1970-yillardan boshlab yo‘lga qo‘yilgan. Dastlab 1971-yili Qobulda chiqadigan “Juvandun” jurnalida O‘zbekiston adibi Oybekning “Navoiy” romani chop etildi. Ushbu romanning bir parchasi “Alisherning yoshligi” nomi bilan 1979-yili o‘zbek tilida Qobulda bosiladigan “Yulduz” gazetasida eski o‘zbek yozuvida nashr etildi.

“Oriyona” jurnalining 1945 - yil 1-sonida Fikriy Saljuqiyning “Amir Alisher Navoiy” nomli maqolasi bosilib chiqdi. Oradan bir yil o‘tib, ayni jurnalning 2-sonida bulg‘oristonlik sharqshunos Domosiyo “Buyuk mumtoz shoir Mir Alisher Navoiy” nomli maqolasi e’lon qilindi. “Oriyona” jurnalining 1981-yil 35-36-sonlarida esa Muhammad Umar Alim Bayotning “Ulug‘ shoir va mutafakkir Mir Alisher Navoiy” maqolasi bosilib chiqdi. Bu maqolada Alisher Navoiy asarlaridagi adolatparvarlik, insonparvarlik, do‘stlik va muhabbat g‘oyalari keng sharhlab berilgan. Alisher Navoiyning ijodi afg‘onistonlik shoirlar uchun she’riyat sirlarini o‘rganish maktabiga aylandi.

Ma’lumki, har qanday millat-u mamlakatning kuchi uning ma’rifiy va madaniy o‘sishida namoyon bo‘ladi. Buni, masalan, shu mamlakat va undagi millatlar tilida chop qilingan kitoblar orqali ko‘rish mumkin. Xuddi shunday gapni ilm haqida ham aytsa bo‘ladi. Ilmning rivoji ham uning muayyan sohasidagi tadqiqotlar nashr qilinishi orqali namoyon bo‘ladi. Xuddi shunday fikrlarni Alisher Navoiy hayoti va ijodi bilan shug‘ullanuvchi navoiyshunoslik sohasi haqida ham aytish mumkin. Bundan bir asr avval O‘zbekistonda navoiyshunoslik shakllanishga boshlab, XX asr ikkinchi yarmida o‘z ilmiy qiyofasiga ega bo‘ldi. O‘zbekistondagi Alisher Navoiy ijodini o‘rganishga qaratilgan navoiyshunoslik tarixi va mazkur soha bo‘yicha faoliyat olib borgan olimlar, ularning tadqiqotlari va nashrlari haqida ko‘p narsa yozilgan. Hozirda ham muttasil yozilmoqda. Alisher Navoiy – O‘zbekistonning va o‘zbek xalqining eng katta ma’naviy boyligi. Ayni vaqtda, Navoiy – insoniyat va butun dunyo o‘zbeklari mulki. Shu ma’noda, Afg‘oniston o‘lkasida yashayotgan o‘zbeklar ham Navoiyga alohida e’tibor qaratib keladilar. Buning sabablari bir nechta: bu o‘lka o‘zbeklari bilan O‘zbekiston o‘zbeklari bir millatning ikki mamlakatdagi vakillaridirlar. Navoiy maqbarasi Afg‘onistonning Hirot shahrida joylashgan. Alisher Navoiy

hayotining katta qismini Temuriylarning muhim shaharlaridan biri bo‘lgan Hirotda yashab o‘tgan. Hirotda joylashgan Temuriy Husayn Boyqaro saroyida katta mavqega ega bo‘lgan. Ayni shaharda hayotdan ko‘z yumgan. Shu bois Navoiy shaxsiyati va ijodiga e’tibor Afg‘oniston o‘zbeklari orasida Alisher Navoiy yashagan davrdan mavjud bo‘lib kelyapti.

So‘nggi yarim asrdan ko‘proq davrda Afg‘onistonda Alisher Navoiy shaxsiyati, asarlari va ular haqidagi tadqiqotlarga ega bir qator kitob, maqola, maqolalar to‘plamlari chop etildi. Alohida, ushbu mintaqaga xos bo‘lgan navoiyshunoslik shakllandi.

Afg‘onistonda Alisher Navoiy ijodi bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan va uning asarlarini nashr qilgan olimlar sirasida Said Muhammad Olim Labib, Abdul Ali Nur Ahroriy, Muhammad Yaqub Vohidiy Juzjoniy, Abdulhay Habibiy, Abdullo Ro‘hin, Said Tojuddin Toshqin Bahohiy, Muhammad Aslam Afzaliy, Nurulla Oltoy, Mir Husaynshoh, Abdulhakim Shar’iy Juzjoniy, Rahim Ibrohim kabi shaxslarni sanab o‘tish mumkin.

Shu o‘rinda yuqorida tilga olingan afg‘onistonlik navoiyshunos olimlaridan ayrimlari hayoti va ijodi haqida qisqacha to‘xtalib o‘tamiz:

1. Sayyid Muhammad Olim Labib 1957-yili Afg‘onistonning Foryob viloyatida dunyoga keldi. 1976-yili Qobul universitetiga o‘qishga kirdi. So‘ngra, 1984-yili Rossiyada o‘qishni yakunlab, adabiyotshunoslik sohasida filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasiga erishdi. Olim Labib o‘zbek va dariy tillarida ijod qiladi. Shoirning o‘zbek tilida “So‘z injulari” va “Tuyg‘ularim, qayg‘ularim” va fors tilida “Yak tasvir dar du oyina” (“Ikki ko‘zguda bir tasvir”) to‘plamlari chop etilgan. Muhammad Olim Labib Alisher Navoiyga bag‘ishlangan qator maqolalar muallifi, Navoiy g‘azallariga o‘nlab muxammas va naziralar yozgan shoirdir.

2. Sayid Tojuddin Toshqin Bahoiy 1961-yili Foryob viloyati markazi Maymana shahrida tug‘ilgan. 1986-yili Qobul universitetiga kirib, o‘zbek tili va adabiyoti bo‘yicha tahsil oladi. Uning “Po‘pi qush” hikoyasi, “Suvloq” va “Bir siqim tuproq” she’riy to‘plamlari nashr etilgan. Alisher Navoiy haqida qator maqolalar yozgan hamda “Xamsa” va “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarlarini qayta chop etgan qalamkashdir.

3. 1967-yili tadqiqotchi afg‘onistonlik olim Muhammad Yoqub Vohidiy birinchilardan bo‘lib buyuk shoir Alisher Navoiy hayoti va ijodi haqidagi kitobni nashr ettirgan edi. M. Yoqub Vohidiy 1932-yil Sarpul viloyatida tug‘ilgan. U 1961-yili Qobul universitetining adabiyot fakultetini bitirgan. Adabiyot, tarix va geografiya fanlari bo‘yicha o‘qituvchilik qilgan. U yigirmaga yaqin kitoblar muallifi, jumladan Amir Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn”, “Vaqfiya”, “Mezon ul-avzon” kabilari asarlarini tadqiq qilib, ularning qiyosiy matnlarini qayta nashr etishga muvaffaq bo‘lgan.

4. Tojikiston bilan chegaradosh Afg‘onistonning Qunduz viloyatida 1955-yili dunyoga kelgan Abdulloh Ro‘yin ko‘p yillik tinimsiz faoliyati natijasida 2014-yilga qadar Alisher Navoiy asarlaridan 23 tasini eski o‘zbek yozuvida qayta nashr etishga muvaffaq bo‘ldi. Abdulloh Ro‘yin Afg‘onistonda Navoiy asarlarini qayta nashr etish ustida eng ko‘p ish olib borgan tadqiqotchi hisoblanadi.

5. Abdulhay Habibiy 1910-yili Afg‘onistonning Qandahor shahrida tug‘ilgan. U ko‘plab kitoblar muallifi, 1950-yillarda “Ozod Afg‘oniston” nomli jurnal noshiri bo‘lgan. 1966-yilda Afg‘oniston Tarix Jamiyati boshlig‘i sifatida faoliyat olib borib, Afg‘oniston tarixiga oid bir qancha kitoblar nashr qilgan. A.Habibi 1981-yili “Amir Alisher Navoiyning siyosiy va fikriy qarashlari” nomli kitobni nashr etgan.

6. 1925-yili Qandahorda dunyoga kelgan Afg‘onistonlik olim Mir Husayn Shoh 1967-yili akademik Bartoldning Navoiyga bag‘ishlangan monografiyasini ingliz tilidan fors tiliga tarjima qilgan. Adabiyotshunos va tarixchi olim o‘z sohasi bo‘yicha o‘nlab asarlar yaratgan va tarjima qilgan. Ulardan biri “Alisher Navoiy hayoti” nomli kitob bo‘ladi. 1971-yili Qobulda chiqadigan “Juvandun” jurnalida O‘zbekiston adibi Oybekning “Navoiy” romani chop etildi. Ushbu romanning bir parchasi “Alisherning yoshligi” nomi bilan 1979-yili o‘zbek tilida Qobulda bosiladigan “Yulduz” gazetasida eski o‘zbek yozuvida chop qilindi. Mazkur ro‘yxatni davom ettirish mumkin.

“Al-BUXORIY” jurnali O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligining
No111741 raqamli guvohnomasi bilan
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

“Al-BUXORIY”Universiteti
Ilmiy Kengashining 2022-yil, 25-noyabr, 4-sonli majlisida nashrga tavsiya etildi.